

J E K L O N D O N



BORI O'GLI

· H I K O Y A L A R ·

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

JEK LONDON

BO‘RI O‘G‘LI

Hikoyalari



ZIYO NASHR

Toshkent
2020

UO'K: 821 .111(73)-32

KBK 84 (AQSH)

L75

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

G. MAHAMMADALIYEVA, F.ABDULLAYEV

Amerikalik iste'dodli yozuvchi Jek London nomi o'zbek kitobxonlariga yaxshi tanish. Adibning „Martin Iden“, „Uch qalb“ romani, qissa va hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Qo'lingizdagи to'plamda Jek Londonning eng sara hikolari jamlangan. Ushbu kitob sizning ko'ngil mulkingizdan o'rин olishiga ishonamiz.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganları, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganları bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimmi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarları bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasiniz izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jiddligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O.de Balzak, A. P. Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y.Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimi, Qodir Mirmuhammedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rinni olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingen namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamriga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildlig'i ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdag'i juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

BO'RI O'G'LI

Erkak kishi o'z vaqtida xotinining qadriga yetmaydi, uning qanchalik zarurligini yaxshi tushunmaydi, ayoli dunyordan o'tib, beva qolgandagina uning o'rni qattiq bilinadi, shundagina qadrini tushunadi. U dastlab xotinining o'z borlig'i bilan hosil qilgan mehr taftini sezmaydi; lekin ana shu taft ketdi deguncha, erkak hayotida bir bo'shliq paydo bo'ladi va shunda unga nima yetishmayotganini bilmay, nimadandir siqiladi, nimanidir qumsaydi. Shunda o'zidan ko'ra tajribasiz, no'noq bo'lgan jo'ralari unga shubha bilan qarab, bosh chayqaydilar va turli-tuman kuchli dorilarni tiqishtira boshlaydilar.

Bordi-yu, Yukonda yashaydigan inson hayotida shunga o'xshash voqeа sodir bo'lsa, agar ushbu hodisa yozda yuz bersa, u, odatda, qayiqni hozirlaydi, qishda esa chanaga qo'shilgan itlarni qo'shib janub tomonga yeladi. Oradan bir necha oy o'tgach esa, agarda o'zi Shimolni qo'msab, sog'inib qolguday bo'lsa, eri bilan ana shu sovuq o'lkaga muhabbatini, barcha mashaqqat-u qiyinchiliklarni birgalikda baham ko'rishga tayyor rafiqasi bilan qaytib keladi. Ana sizga erkakning tug'ma xudbinligiga yana bir misol! Shunda Skruf Makkenzi hayotida yuz bergen voqeа beixtiyor hali Klondayk¹ oltin vasvasasini hamda che-cha-kuas² bosqinini ko'rмаган va faqat losos balig'i bilan shuhrat qozongan o'sha olis davrlarni yodga soladi.

¹ *Klondayk* – Yukon daryosining irmog'i; 1896-yilda u yerda ko'pdan ko'p oltin sochmalari topilgan.

² *Che-cha-kuas* – yangi kelganlar.

Bir qarashda Skruf Makkenzi qiyofasida bu yerlarni zabit etgan birinchi odamni ko'rish mumkin edi. Tabiatning shafqatsiz kuchlari bilan uzluksiz davom etgan yigirma besh yillik kurash uning yuziga o'z tamg'asini bosgan edi.

Qutb doirasining ko'lankasi ostida oltin izlab topish ilinjida o'tkazgan ikki yili juda og'ir kechdi. Yurakni zirqiratib yuboradigan bo'shliq tuyg'usi Skruf vujudini egallab olgani, bundan ajablanmadni, negaki u ko'pni ko'rgan odam bo'lib, o'z hayotida shunday og'ir dardni boshdan kechirgan odamlarni ko'rgan edi. Lekin Makkenzi o'zida hech qanday xastalik alomatlarini sezmadni, faqat yanada g'ayrat bilan ishlayverdi. Butun yozni chivinlar bilan kurashib, boyib ketarman, degan xayolda Styuart daryosi etaklarida qum yuvib o'tkazdi. So'ngra katta-katta yog'ochlardan sol yasadi-da, Yukonga tushib, Qirqinchi milgacha suzib bорди va o'ziga yaxshigina kulba qurib oldi. Kulba shunday mustahkam va bejirim chiqdiki, uni Skruf bilan bo'lishmoqchi bo'lganlar ham ancha-muncha topildi. Biroq Makkenzi cho'rtkesarlik bilan dangal javob qaytarib, ularning umidlarini puchga chiqardi va shu yaqindagi savdo-sotiq do'konidan ikki hissa oziq-ovqat sotib oldi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Makkenzi ko'pni ko'rgan odam. U, odatda, ko'ngli biror narsani xohlab qolsa, shunga erishmaguncha tinchimas, imkon qadar ahdida mahkam turib, ko'zlagan maqsadidan qaytmas edi. Makkenzi og'ir mehnat-u qiyinchiliklarga o'rganib ketgan, ammo it qo'shilgan chanalarda olti yuz mil yo'l bosish, so'ngra ikki mil masofani okeanda suzib o'tish, yana o'zi ilgari yashagan joygacha rosa ming mil yurish – bularning barini faqat o'ziga rafiqqa izlash uchungina bajarish kerakligini o'ylasa hafsalasi pir bo'lardi.

U serg'ayrat, uncha-muncha yo'lni pisand qilmas, tozi itlari bo'lsa, Yukondagi boshqa itlarga qaraganda ozgina yemak bersang bo'ldi, dunyoning narigi chekkasiga bo'lsa ham ketaverardi. Uch haftadan so'ng u Tanananing yuqori

irmog‘idagi qismiga – Stiks qabilasi qo‘nalg‘asiga keldi. Butun qabila Makkenzini ko‘rib, uning jur‘atidan hayron qoldi; sababi, stikslar oq tanlilarni o‘tkir bolta yo yaroqsiz miltiq qo‘ndog‘i bilanmi, o‘ldirib, ularga o‘z munosabatlarini bildirib qo‘ygan edi. Tag‘in Makkenzi bu yerga yolg‘iz kelibdi-ya. Uning yurish-turishi, o‘zini erkin tutishi, sovuqqonlik va hattoki surbetlik bilan qarab turishi – hammasi bir bo‘lib, Makkenzining kimligini namoyon etib turardi. Bu turli vositalardan unumli foydalanish uchun yovvoyi odam ruhiyatini anglab yetish va mahorat talab etilardi; Makkenzi bunday ishlarda pixini yorgan edi: qachon murosa qilish va qachon kuch ishlatib, vaziyatni qanday qo‘lga olishni bilardi. Avvalo ishni mulozamat qilishdan boshladi: qabila sardori Tiling-Tinnexga o‘z ehtiromini bildirdi, bir necha funt qora choy, tamaki bilan sardorning xayrixohligiga erishdi. So‘ng esa qabila yigit-qizlari bilan tanishdi. Shu oqshom ularga ziyofat berdi. Qorda uzunligi, chamasi yuz fut, eni esa yigirma besh fut keladigan cho‘ziq maydoncha tashkil etildi. Maydoncha o‘rtasiga gulxan yoqildi, ikkala tomonga qoraqarag‘ay butoqlari to‘shtaldi. Butun qabila chodirlardan gala-gala bo‘lib chiqib keldi va kamida yuz nafar mehmon sharafiga hindular qo‘shig‘ini aytdilar.

Makkenzi shu ikki yil ichida hindular tilini o‘rgandi, shuningdek, ularning bo‘g‘zida talaffuz etadigan chuqr tovushlari, yapon tiliga o‘xhash ilmoqli iboralari-yu, hurmatni bildiruvchi so‘zlarini qunt bilan yodlab oldi. Endi u xuddi ibtidoiy usulda she’r o‘qigan kabi o‘zini erkin qo‘yib, hinducha nutq irod etdi. Tiling-Tinnex va shomon ham unga iliq muomalada bo‘ldi. Makkenzi boshqalarga ham unga shunday munosabatda bo‘lishlari uchun qabila erkaklariga arzimagan sovg‘alardan ulashdi, ular bilan birga qo‘shiq kuyladi va hindularning „Ellik ikki tayoq“ qimor o‘yinida mohir o‘yinchi sifatida o‘zini yana bir bor namoyish qildi.

Shunday qilib, hindular Makkenzining tamakisidan che-kib, rohatlandi. Biroq uning qabilada qozongan obro'-e'tibori yigitlarga yoqmayotgan edi – qizlar qiqir-qiqir kular, tishsiz kampirlar nimalargadir ishora qilardi. Ular ko'p bo'lmasalarda, uncha-muncha oq tanlilarni – Bo'ri O'g'illarini o'zlariga ba'zi saboqlarni berib qo'yishganini yaxshi bilardilar.

Makkenzi o'zini bee'tibor tutsa-da, buni juda teran uqli. U tunda qopko'rpa ichiga kirib yotganicha, barini ipidan ignasigacha o'ylab, reja tuzib chiqdi, buning uchun trubkasi-da ozmuncha tamaki chekmadi. Qabiladagi qizlar ichida uning e'tiborini tortgani qabila sardorining qizi – Zarinka edi. Qiz boshqalardan keskin ajralib turar, yuz tuzilishi, kelishgan qaddi-qomati, barnoligi bilan oq tanli odamning go'zallik haqidagi tushunchalariga mos kelar edi. Makkenzi Zarinkani xotin qilib oladi va otini Gertruda qo'yadi. Shunday qarorga kelgan Makkenzi o'zini Samson¹dek kuchli his qildi-da, yonboshiga o'girilib, uyquga ketdi.

Bu mashaqqatli ish, uning bu rejasi vaqt va sa'y-harakatni talab etardi. Makkenzi hiyla bilan ish ko'rdi, u o'zini lo-qayd, beparvo tutar va bu bilan qabiladagilarni chalg'itar edi. U qabiladagilarga o'zini mohir mergan va usta ovchi ekanini ko'rsatib, ularni hayratda qoldirishga kirishdi; olti yuz yardli masofadan los²ni o'ldirib, ularning maqtovlariga sazovor bo'ldi. Kunlarning birida, oqshom chog'i, u qabila sardori Tiling-Tinnexning los va bug'u terisidan tikilgan chodiriga tashrif buyurdi, unga xushomad qildi, sardorni tamaki bilan siyladi. Makkenzi yana fursatni boy bermay, qabilada katta obro'ga ega bo'lgan shomonga ham xuddi sardor kabi iltifotda bo'ldi. Biroq ko'rsatilgan iltifotdan g'azabini arang bosgan shomonni hech ikkilansmasdan bo'l-g'usi raqiblari safiga qo'shib qo'ydi.

¹ Samson – „Bibliya“dagi favqulodda kuchli qahramon.

² Los – bug'ular oilasiga mansub butoq shoxli hayvon.

Makkenzining Zarinka bilan bevosita suhbatlashish imkonи bo'lmasa-da, qizga imo-ishoralar bilan o'z niyatini bayon etdi. Qiz ham uning maqsadini juda yaxshi tushungan, ammo har safar noz-u karashma bilan atrofiga bir to'da xotin-xalajni to'plab olar, bu payt erkaklar yiroqda bo'lar, shunda Skruf Zarinkaning oldiga borishiga imkon tug'ilardi. Lekin Makkenzi shoshilmasdi, sababi, Zarinka o'zi bilmagan holda yigit haqida o'ylay boshlashini va vaqt kelib, bu o'ziga yordam berishini bilardi.

Nihoyat, bir oqshom Makkenzi kutilgan vaqt kelganini tushunib, to'satdan sardorning tutunlar buruqsigan chodiridan chiqdida, qo'shni chodirga yo'l oldi. Zarinka, odatdagidek, ayollar va yosh qizlar qurshovida ko'ylakka munchoq qadab o'tirar edi. Ular Makkenzini ko'rib, kulib yubordilar, Zarinkaga hazil aralash kinoya qila boshladilar. Lekin Makkenzi takalluf qilib o'tirmasdan ularni birin-ketin chodirdan to'g'ri qorga uloqtirdi, ayollar bo'lib o'tgan voqeadan boshqalarni boxabar etish uchun atrofga yugurib ketdilar.

Makkenzi qanday maqsad uni bu yerga yetaklab kelgani ni bag'oyat ishonarli qilib, Zarinkaning ona tilida (uning tilini qiz tushunmasdi) bayon etdi va oradan ikki soat o'tgach, ketishga chog'landi. Zarinka oq tanli odam chodiriga yashashga boradi, shundaymi? Yaxshi! Men hozir borib otang bilan gaplashaman. Balki, u qarshilik qilar. Men otangga ko'p sovg'a-salom beraman, lekin u ko'p narsa talab qilmasa kerak. Bordi-yu, u rad etsa-chi? O'zing gaplashib ko'rasanmi? Zarinka baribir oq tanli odamning chodiriga ketadi.

Makkenzi eshik vazifasini o'tovchi teri pardani ko'targan ham ediki, qizning past ovozda aytgan gapini eshitib, ortga qaytishga majbur bo'ldi. Zarinka ayiq terisidan to'shalgan yerga tiz cho'kdi, uning yuzidan xuddi Momo Havoning bokira qizlariniki kabi nur taralardi. Zarinka tiz-zalagancha, Makkenzining katta ovchilar pichog'i osilgan belbog'ini ohista yechdi. Makkenzi nima gapligini tushu-

nolmay, qizga taajjub bilan qarar ekan, tiq etgan tovushga qulog‘i ding edi. Ammo birozdan so‘ng u Zarinkaning maqsadini tushundi; shubhalari tarqab, mamnun kuldil. Zarinka o‘zi tikkan narsalari saqlanadigan xaltadan los terisi qoplangan, jilolanib turgan, munchoqlar bilan bezalgan qinni oldi. Qiz boshmaldog‘ini pichoqning o‘tkir tig‘idan ehtiyyotkorlik bilan yurgizdi-da, uni o‘zi taqdim etayotgan yangi qinga soldi. So‘ngra qinli pichoqni belbog‘iga taqib, o‘z joyi – belining chap yoniga surib qo‘ydi.

Qarang-a, bu manzara qadim zamonlardagi sahnani eslatmaydimi: xonim va uning bahodiri. Makkenzi qizni o‘rnidan turg‘izdi va mo‘ylovli lablarini uning aqiq lablariга tekkizdi – bu qiz uchun notanish, begona erkalash edi. Tosh asri po‘lat asri bilan shu tariqa uchtrashdi.

Skruf Makkenzi qo‘ltig‘ida kattakon tugun bilan yana Tiling-Tinnex ostonasida paydo bo‘lganda, atrofda uning kayfiyatini kabi g‘ayrioddiy jonlanish sezilardi. Bolalar yelib-yugurib qo‘nalg‘alariga ziyofat uchun quruq o‘tin, shox-shabbalar tashir, ayollarning vag‘ir-vug‘uri avjiga minar, tumshaygan yigitlar to‘p bo‘lib olganlaricha nimanidir gaplashar, shomon uyidan vahimali afsun sadolari eshitilar edi.

Sardor ko‘zlarini yig‘idan qizargan xotini bilan yolg‘iz o‘tirardi. Makkenzi ular yangilikdan allaqachon xabar topganliklarini darhol tushundi. Zarinkaning rozi bo‘lganini isbotlovchi munchoqli qinni ko‘zga ko‘rinadigan joyga surib qo‘ydi va dedi:

– Ey, stikslar qabilasi, los, bug‘u, ayiq, kiyik va Tananining ulug‘ hukmdori bo‘lgan Tiling-Tinnex! Oq tanli odamni huzuringga buyuk maqsad yetaklab keldi. Ko‘p oylardan buyon uning uyi bo‘m-bo‘sh va u juda yolg‘iz; bu yolg‘izlik uni xarob qildi, uning ayolga bo‘lgan ehtiyoji kuchaydi – ayol uning uyida birga o‘tirsin, ovdan qaytganda kutib olsin, o‘choqqa olov yoqib, taom pishirsin. Oq tanli odamning ko‘ziga g‘alati narsalar ko‘rindi. Bir kuni oqshom

uning ko‘z o‘ngida arvoх ko‘rindi, qulog‘iga mokasin¹lar ning tap-tupi va bolalar qiy-chuvi eshitildi. Arvoх Qarg‘a – сening ajdoding, ulug‘ Qarg‘a, stikslar qabilasining sardori paydo bo‘lib, unga so‘zlay boshladi: „Oyog‘ingga mokasin kiyib ol, chang‘ingni taq, chanangga ko‘p kunlik safar uchun yeguliklar, Tiling-Tinnexga atalgan qimmatbaho sovg‘a-salolmarni joyla, chunki sen bahor quyoshi charaqlagan zamin ortida yashiringan tomonga yuzingni qaratishing, ulug‘ Tiling-Tinnex sari yo‘l solishing zarur. Sen u yoqqa qimmatbaho sovg‘a-salomlar olib borasan, keyin mening o‘g‘lim Tiling-Tinnex senga ota bo‘ladi. Uning chodirida bir qiz bor, men sen uchun bu qizga hayot nafasini baxshida etdim. Sen bu qizni xotin qilib olasan”. O, sardor, ulug‘ Qarg‘a menga shunday dedi. Men shuning uchun ham ana shu hadyalarni oyoqlaring ostiga keltirib to‘kyapman. Ana shuning uchun ham men сening qizingni xotin qilib olgani keldim.

Keksa sardor qirollardek savlat bilan mo‘ynali libosiga o‘ralib oldi, ammo javob berishga shoshilmadi. Xuddi shu payt bir bolakay kirib keldi va sardorni qabila kengashida kutayotganlarini aytib, qanday kelgan bo‘lsa, shunday g‘oyib bo‘ldi.

– O, biz loslar kushandasи deb atagan, yana Bo‘ri va Bo‘ri o‘g‘li degan nom bilan ma‘lum-u mashhur Oq Tanli odam! Sen bizning buyuk qavmimizdan ekaningni bilamiz; mehmonimiz bo‘lganidan g‘ururlanamiz. Keta² lososga juft emas. Xuddi shundaymi, Bo‘ri ham Qarg‘aga juft bo‘la olmaydi.

– Noto‘g‘ri! – xitob qildi Makkenzi. – Men Qarg‘анинг qizlarini Bo‘ri lagerlarida – Mortemir, Trejidgo, Bernebilar bilan uchratdim, – ularning uylariga skvo³ ikki marta muz

¹ Mokasin – hindilar oyoq kiyimi.

² Keta – baliq turi.

³ Skvo – Shimoliy Amerika hindilari tilida: ayol.

ko‘chishidan ilgari kirib kelgan. Men garchand o‘z ko‘zim bilan ko‘rmagan bo‘lsamda, boshqa shunday voqealarni eshitganim bor.

– O‘g‘lim, aytganlaring rost, lekin ular yaxshi juft bo‘la olmaydilar, go‘yo qum bilan suvning, qor parchasi bilan quyoshning juft bo‘lgani singari. Sen Meyson ismli odam bilan uning skvosini bilasanmi, yo‘qmi? U barcha Bo‘rilar dan birinchi bo‘lib, o‘n marta muz ko‘chishidan ilgari kel gan. Tol daraxtidek uzun bo‘yli, grizli¹ ayig‘i kabi bayabat, kuchli, jasur bir yigit ham u bilan birga edi. Uning...

– Bu axir Meylmyut Kid-ku! – Makkenzi Shimolga don g‘i ketgan shaxsni eslab sardorning gapini bo‘ldi.

– Ha, bu o‘sha pahlavon. Sen biror marta uning skvosini ko‘rganmiding? U Zarinkanining tug‘ishgan opasi bo‘ladi.

– Yo‘q, sardor, men uni ko‘rmaganman, lekin eshitgan man. Olis Shimolda yuz yillik qarag‘ay qarib, qulagan va Meyson shuning ostida qolib o‘lgan. Meyson xotinini juda sevardi, keyin uning oltini ham ko‘p bo‘lgan. Ayol oltinni, eridan yodgorlik bo‘lib qolgan o‘g‘lini olib, uzoq yo‘lga ravanaugh bo‘lgan, yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, qishda ham quyosh charaqlab turgan mamlakatga kelib qolgan... U hozir ham o‘sha yerda yasharmish. U tomonlarda qahraton sovuqlar bo‘lmasmish, qor ham yo‘q emish, yozda yarim kechasi quyosh nur sochmasmish, qishda esa qiyom vaqt qorong‘i ham tushmasmish.

Xuddi shunda ikkinchi chopar sardorni kengashga cha qirib, ularning gapini bo‘ldi. Makkenzi uni qorga uloqtirarkan, gulxan atrofida lipillaryotgan odamlar ko‘lankalarini ilg‘adi, aftidan, bu yerda qabila kengashi bo‘lyapti shekilli, bir maromda ohista kuylagan erkaklar ovozlarini eshitdi va shomon qabila kishilarining g‘azabini qo‘zg‘ayotganini bildi. U sardorga yuzlandi:

¹ Grizli – Amerikaning shimoli g‘arbida yashovchi jigarrang ulkan ayiq turi.

– Gapimga qulq sol, senga yomonligim yo‘q. Men sening qizingni xotinlikka olmoqchiman. Qara, mana tamaki, mana choy, katta va yaxshi jun ko‘rpa, manavi esa haqiqiy miltiq, yana unga ko‘p patron va ko‘p o‘q-dori ham qo‘sdim.

– Yo‘q, – rad qildi sardor, qarshisida yoyilgan katta boylikka e’tibor bermaslikka tirishib. – Hozir butun qabila bu nikohni to‘xtatish uchun yig‘ilib o‘tiribdi.

– Sen axir ularning sardorisan-ku!

– To‘g‘ri, biroq yigitlarimiz qattiq g‘azabda, sababi bo‘rilar ularning qalliqlarini tortib olishyapti.

– Qulq sol, Tiling-Tinnex! Bo‘ri ana shu tun o‘tib, kunga aylanishi bilan itlarini Sharqiy tog‘lar tomon, olis Yukon tomon haydaydi. Zarinka ham u bilan ketadi.

– Balki, mana shu tun yarimlasdanoq mening yigitlarim Bo‘rining go‘shtini itlarga tashlar va uning suyagi baho quyoshi ko‘ringuni qadar qor ostida yotar.

Bu po‘pisaga po‘pisa bilan javob berish edi. U ovozini balandlatdi. Shu vaqtgacha ularni jimgina kuzatib o‘tirgan sardorning keksa xotini eshikni to‘sib turgan Makkenzining orqasidan o‘tib, chiqib ketmoqchi bo‘ldi. Shu payt tashqarida eshitilayotgan ashula ovozlari tindi; o‘rniga har xil ovozlarning shovqini eshitildi. Makkenzi kampirni qo‘pollik bilan teri o‘rindiqqa uloqtirib yubordi.

– Sendan yana bir marta so‘rayapman, Tiling-Tinnex! Bo‘ri jag‘larini yumib o‘larkan, u bilan birga qabilangning naq o‘nta zabardast yigit ham abadiy uyquga ketadi, erkaklar kerak-ku, axir ov endigina boshlanyapti, yana baliq oviga cha uncha ko‘p vaqt qolgan emas. Ayt-chi, mening o‘limim dan senga nima naf? Elingning urf-odatlarini bilaman: senga mening boyliklarimning ozginasi tegadi. Menga qizingni bersang, butun boylik faqat seniki bo‘ladi. Senga yana bir narsani aytay: bu yoqqa mening birodarlarim keladilar. Ular ni sanab, sanog‘iga yetib bo‘lmaydi, ular yeb to‘ymaydilar,

keyin Qarg‘aning qizlari Bo‘rilar makonida bolalar tug‘adilar. Mening qabilam senikidan kuchli. Buni taqdiri azal dey-dilar. Menga qizingni ber, bularning bari seniki bo‘ladi.

Tashqarida mokasinlar qorda g‘irchilladi. Makkenzi miltig‘ini ozod ko‘tardi va belbog‘idagi ikkala revolveri g‘ilofini yechdi.

– Hoy, Tiling-Tinnex, qizingni menga ber!

– Qabilam bunga ko‘nmaydi.

– Ber, shunda mana bu boyliklar seniki bo‘ladi. Qabilang bilan esa o‘zim gaplashaman.

– Bo‘ri xohlaganidek bo‘la qolsin. Hadyalaringni, mayli, olaman, biroq men seni ogohlantirdim-a?

Makkenzi unga sovg‘a-salomlarni berdi, hatto miltiq tepkisini tushirib qo‘yishni ham unutmadi, yana ko‘zni oladigan guldor ro‘molni ham qo‘shib berdi.

– Narsalarining yig‘ishtir! – u tabriklash o‘rniga qisqa buyruq berdi Zarinkaning chodiri yonidan o‘ta turib, so‘ng itlarini chanaga shosha-pisha qo‘sha boshladi.

Oradan bir necha daqiqa o‘tib, u chanasini yetaklab, qabila kengashida paydo bo‘ldi; Zarinka Makkenzi bilan yonma-yon keldi. Makkenzi tepkilab tashlangan maydon-chaning yuqori etagidan, sardorning yonidan joy egalladi. Zarinkaga o‘zining chap tomonidan, bir qadam orqadan joy ko‘rsatdi. Bilib bo‘ladimi, biror ko‘ngilsizlik yuz beradi-gan bo‘lsa, kimdir seni orqa tomondan pana qilib turishi kerak-ku. O‘ng va so‘ldan erkaklar gulxan tomon egildilar, ularning ovozlari qadimiy, deyarli unut bo‘layozgan qo‘sinqda qo‘silib, birlashdi. Buni ko‘ngilga borib tegadigan zo‘r qo‘sinq deb bo‘lmasdi, – qo‘sinq g‘alati, kutilmaganda o‘zgarib qolar, birdan jo‘rsiz, yakka ijro joylarida to‘xtab, yana g‘ashga tegib takrorlanaverardi. To‘g‘rirog‘i, bu qo‘sinq kishini vahimaga solar edi. Maydoncha pastida shomon oldida turgan o‘nlab ayol chir aylangancha raqs-ga tushardi. Kimda-kim marosimni sidqidildan ijro etma-

sa, shomon o'sha odamga qattiq dashnom berardi. Huddi qarg'a qanotiga o'xshab, qop-qora sochlari qoq beligacha yoyilib tushgan xotinlar asta orqaga va oldinga chayqalar, ularning qomatlari to'xtovsiz o'zgarib turgan ohangga mos egilib-bukilardi.

Bu aslo zamonga muvofiq kelmaydigan g'alati manzara edi. O'n to'qqizinchi asr poyoniga yetmoqda, uning so'nggi o'n yilliklari ham o'zining oxirgi yillarini kechirmoqda edi, – qarang, bu yerda esa ibtidoiy odam, tarixga dovur g'orda istiqomat qilayotgan, ko'lankasi olis o'tmishning xotiradan ko'tarilgan parchasi gullab-yashnamoqda. Katta-katta malla itlar hayvon terisidan libos kiygan egalari bilan yonma-yon o'tirar, qon to'la ko'zлari, nam so'yloq tishlari gulxan yog'dusida yiltillardi. Xira qor ko'rpasiga o'rangan quyuq o'rmon sodir bo'layotgan voqealarga parvo ham qilmay, dong qotib uxlardan edi. Qo'nalg'ani qurshab olgan Oppoq sukunat go'yo yana qaytadan borliqni zabit etishga tayyorgarlik ko'rayotganga o'xshardi; yulduzlar xuddi Buyuk Qahraton zamonidagidek titradilar va ko'kda raqs tushdilar, shunda Qutb Ruhlari butun ufqqa o'zining yog'du sochuvchi olovli libosini yoyib oldilar.

Skruf Makkenzi ana shu manzaraning yovvoyi ulug'verligidan lol qoldi. Bular orasida kim yo'q ekan, deya qaldirg'ochday tizilishib turgan mo'yna libosli odamlarni ko'z qiri bilan kuzatdi. Shunda uning ko'zлari onasining ochiq ko'kragini osoyishta emayotgan chaqaloqqa tushdi. Harorat qirq darajadan ham past edi. Makkenzi beixtiyor o'z xalqining nozik ayollarini esladi va miyig'ida istehzoli қulib qo'ydi. Ana shunday nozik ayollardan dunyoga kelgan, o'zi hamda elatdoshlariga jami quruqliklar-u dengiz, barcha o'lkalar zaminidagi jonivorlar hamda insonlar ustidan hukmron bo'lish huquqi in'om etildi. U Arktika qishining qa'rida qadrdon yerlardan olisda ana shu in'om etilgan meros xitobini – hukmronlik qilish istak-irodasi, xavf-xatar,

tahlikaga telbalarcha hirs qo'yish, jang ehtirosi, yo g'alaba qozonish, yo halok bo'lish ahdi-qarorini his qildi.

Qo'shiq ham, raqs ham poyoniga yetdi, shunda shomon shiddat bilan nutq irod etdi. Shomon ustalik bilan hindularning timsollarga boy asotir-u afsonalaridan tushunib bo'lmas, chalkash misollar keltirib, ishonuvchan, soddadil tinglovchilarni avray boshladi. U kuchli va ishonchli dalillar bilan so'zлади. Tinchlik va bunyodkorlik timsoli bo'lmish Qarg'aga – tajovuzkorlik va buzg'unchilik timsoli bo'lmish Bo'ri – Makkenzini qarshi qo'ydi. Stikslar qabilasi – Jelksning, Prometey olovini olib kelgan Qarg'aning naslidandir; Makkenzi esa – Bo'ri, boshqacha aytganda, iblisning o'g'li. Bu ikki kuchning azaliy urushini to'xtatishga urinish, ashadiy g'animimizga qabilamiz qizlarini xotinlikka berish – demakki, o'taketgan xoinlik, kufrdir. Eng achchiq so'zlar, eng qabih haqoratlar ham Makkenziga – zaharli ilon, ishonchimizga makkorlik bilan biqinib kirib olishga urinayotgan iblis elchisiga juda muloyimlik qiladi. Shunda uning so'zlarini tinglab turgan odamlar g'ovur-g'uvur qildilar, dag'dag'a bilan shovqin soldilar, shomon esa nutqida davom etdi:

– Birodarlarim, Jelks har ishga qodir, qudratlidir! Axir u emasmi isinishimiz uchun ilohiy olovni olib kelgan? Axir u emasmi biz ko'rishimiz uchun quyosh, oy va yulduzlarni osmondag'i inlaridan chiqarib qo'ygan? Axir u emasmi bizni ochlik va sovuqlik ruhlari bilan kurashishga o'rgatgan? Hozir esa Jelks bolalaridan xafa bo'ldi, g'azabi keldi – uning qabilasidan bir siqim qoldi, shuning uchun ham Jelks ularga yordam bera olmaydi. Negaki ular Jelksni unutganlar, negaki ular noma'qul ish qilmoqdalar va yomon yo'llardan yurmoqdalar, o'z chodirlariga g'animlarini kiritmoqdalar va gulxanlari atrofida o'tqazmoqdalar. Axir Qarg'a bundan keyin ham o'z bolalarining badxulqligidan ozor chekmasismi, qayg'urmasinmi? Biroq uning bolalari qilgan qilmishlarini tushunib yetib, Jelks sari qaytib kelsalar, shun-

da u zulmatdan chiqib, ularga yordam beradi. Ey mening qondoshlarim! Olov olib keluvchi o‘z xohish-irodasidan shomonni boxabar etdi, – endi sizlar ham bu xabarga qu-loq tutinglar. Yigitlar qizlarni o‘z chodirlariga olib kirsinlar, o‘zlari esa Bo‘riga hamla qilsinlar, toki ularning nafratlari sira so‘nmasin! Shundagina xotinlarimiz bola tug‘adilar, shunda Qarg‘a elati ko‘payadi va qudratli bo‘ladi! Shunda Qarg‘a ular ota-bobolarining buyuk qabilalarini Shimoldan olib chiqadi, shunda ular Bo‘rilar bilan kurashadi va ularni kunfayakun qiladi, bulturgi gulxan kuliga aylantiradi, o‘zlari esa yana butun mamlakatga hukmdor bo‘ladi. Jelks, Qarg‘a menga shunday dedi!

Stikslar yaqin kelajakda yuz berajak xaloskorlik haqidagi xabarni eshitgach, guvullab o‘rinlaridan turib ketdilar. Makkenzi endi nima bo‘larkin, deya kutdi. Shunda atrofni „Tulki, tulki!“ – degan hayqiriqlar tutdi. Hayqiriqlar tobora ko‘kka ko‘tarildi; nihoyat yosh ovchilardan biri oldinga chiqib, dedi:

– Birodarlar! Shomon dono gaplarni aytди. Bo‘rilar naslimizni davom ettirishi kerak bo‘lgan qizlarimizni olib ketyapti, qavmimiz esa kamayib boryapti. Oramizga Bo‘rilar bostirib kelib, issiq mo‘yna po‘stinlarimizni tortib olish-yapti, o‘rniga shishadagi yovuz ruhlarni, qunduz yo silovsin terisidan emas, o‘tdan tikilgan kiyimlarni tashlab ketishyapti. Albatta, bu kiyimlar issiq bermaydi, keyin odamlarimiz tushunarsiz dardlardan qirilib ketishyapti. Mana, men – Tulkinging xotini yo‘q. Nega deysizmi? Men ikki qizni yoqtirdim. Men yoqtirgan qizlar ikkisi ham Bo‘rining qo‘nog‘iga ketib qoldi. Men zora Zarinkani berarmikan, zora Tiling-Tinnex e’tiboriga tusharmikinman, deb qunduz, los, bug‘u terisini olib qo‘ygandim. Mana, hozir Zarinka Bo‘ri bilan ketishga tayyor, uning itlarini yo‘lga chorlashga hozirlilik ko‘ryapti. Men faqat o‘zimni gapirmayapman. Ayiq ham xuddi men hozir aytgan gaplarni aytishi mumkin. U ham

Zarinka tug‘ajak bolalarning otasi bo‘lishni istaydi, u ham xuddi menday Tiling-Tinnexga beraman deb ozmuncha terilarni asrab qo‘ydimi. Men bu gaplarni hamma bo‘ydoq ovchi yigitlar nomidan gapiryapman. Bo‘rilar hech qachon to‘ymagan. Ular hamisha och. Ular doim yog‘li-yog‘lilarini saralab oladi. Biz bechora Qarg‘alarga esa yeb bo‘lmaydigan sarqitlar qoladi.

– Mana, qarang, manavi Guklani! – Tulki andisha qilib o‘tirmay ayollardan biriga qo‘lini niqtadi; o‘sha xotin oq-soq edi. – Qarang, Guklaning oyoqlarini, xuddi ayiqning oyog‘idek, bo‘ksasi qing‘ir-qiyshiq. Gukla, ko‘rib turib-siz, o‘tin yig‘olmaydi, shox-shabba yig‘olmaydi, ovchi otib tushirgan o‘jasinni ham olib kelolmaydi. Uni Bo‘rilar olarmidi?

– Yo‘q! yo‘q! – deya qabiladoshlari qichqirib xitob qildilar.

– Mana Moyri, – so‘zida davom etdi u. – Yovuz ruh uning ko‘zlarini g‘ilay qilib qo‘ygan. Hattoki chaqaloqlar ham uni ko‘rsa qo‘rqib ketarmish, Ayiq ham unga yo‘l bo‘shatib beradi. Uni-chi, Bo‘rilar tanlab olarmidilar?

Yana olomon guvullagancha uning gaplarini ma’quladi.

– Mana, bu yerda Pischet ham o‘tiribdi. U mening gaplarimni eshitmaydi. Pischet hech qachon xandon-xushon suhbatlarni eshitmagan, erining ovozini ham, o‘z go‘dagi guvranishini ham eshitolmaydi. U oppoq sukunatda yashaydi. Bo‘rilar aqalli bir marta bo‘lsa-da, unga e’tibor qaratdimi? Yo‘q! Ularga sara-saralari, bizga bo‘lsa sarqitlar qoladi.

Birodarlar, ish bunday ketaverishi aslo mumkin emas! O‘chog‘imiz oldiga boshqa kelmasligi uchun bo‘rilarni daf qilishimiz lozim!

Shimol yog‘dusining ulkan olovli qanoti qirmizi, yashil, sariq alanga bo‘lib, yorqin ko‘kning u chekkasidan bu chek-

kasigacha yoyilib lovulladi. Shunda Tulki boshini orqaga tashladi va qo'llarini osmonga ko'targanicha, na'ra tortdi:

— Qaranglar! Ota-bobolarimizning ruhlari oyoqqa turdi!
Mana shu tun buyuk voqealar sodir bo'lajak!

U orqaga chekindi, shunda uning turtkisi bilan bir ovchi jur'atsizgina oldinga chiqdi. U boshqalardan bo'yи balandroq, keng ko'kragi xuddi sovuq bilan o'chakishganday ochiq. Yigit o'ng'aysizlanib, og'irligini u oyog'idan bu oyog'iga solar, tili kalimaga kelmasdi. U tortinchoq, odamovi edi. Uning yuziga qaragan kishi qo'rqib ketardi: aftidan, qandaydir bir maxluq urib abjag'ini chiqarganga o'xshardi. Nihoyat u xuddi do'mbirani chalganday, ko'kratgiga mushti bilan urdi va so'ng gap boshladi; ovozi go'yo ummon bo'yidagi g'orga to'lqinlar kelib urilgandagi kabi bo'g'iq eshitildi.

— Men — Kumush Nayza avlodidanman, Kumush Nayzaning o'g'li — Ayiqman. Hamisha jarangdor ovozim bilan silovsin, los va kiyik ovladim; ovozim suvsar tuzoqqa tushib hayqirgani singari yangraganida Janubiy tog'larni kesib o'tdim va Oq daryo qabilasidan uch kishini u dunyoga jo'natdim; chinuk o'kirig'i singari o'kirganida bahaybat grizliga yo'liqdim — men ayiqqa yo'l bermadim.

U kafti bilan yuzidagi dahshatli chandiqlarini silagancha to'xtab qoldi. So'ng gapida davom etdi:

— Men Tulki emasman. Tilim xuddi daryo kabi muzlab qolgan. Men chiroyli gapira olmayman, so'zga no'noqman. Tulki: „Shu tunda buyuk voqealar sodir bo'ladi“, dedi. Xuddi bahor toshqinida daryo to'lib-toshganiday uning so'zları og'zidan toshib chiqaveradi, lekin u amalda bunday saxovatli emas. Men bugun oqshom Bo'ri bilan olishmoqchiman. Men uning jonini olaman va Zarinka mening xonadonimda o'tiradi. Men, Ayiq, o'z so'zimni aytdim.

Atrofda chinakam qiyomat qo'pdi, biroq Makkenzi joyidan qimir etmadni. Miltiqni shunday yaqin masofada

otish befoydaligini yaxshi tushungan holda u revolverlarini ishga solish uchun shaylandi – belbog‘idagilarni kishi bilmas oldinga surib qo‘ydi, keyin qo‘lqoplarini barmoqlari uchlarigacha tushirdi. Agar unga hammasi birdaniga hamla qilsa, hech nima qila olmasligini bilardi. Yaqindagina o‘zi „Bo‘rilar shunchaki o‘lmaydilar“, deb maqtangan edi, shu gapiga sodiq qolib, jag‘lari bilan g‘animining bo‘g‘zidan olgancha jon berishga shay turdi. Lekin Ayiq qondoshlarini to‘xtatib qoldi, eng qiziqqon, jizzakilarini dahshatli musht bilan orqaga irg‘itib yubordi. To‘fon tindi, Makkenzi Zarinkaga ko‘z qirini tashladi, bu favqulodda ajoyib manzara edi. Qiz chang‘ida turgancha, butun vujudi bilan oldinga intildi, lablari sal ochildi, burun kataklari pir-pir qildi – uning bu turishi xuddi urg‘ochi yo‘lbarsning sakrashdan oldingi holatini eslatardi. Qiz qabiladoshlariga qarab turar, uning qora ko‘zlarida ham qo‘rquv, ham norozilik ifodasi zohir edi. Uning butun borlig‘i xuddi kamon ipi singari tarang tortilganidan, hatto nafas olishni ham unutdi. Qiz azbaroyi bezovta bo‘lib bir qo‘lini ko‘ksiga bosganicha, ikkinchisida uzun qamchisini qisganicha qotib qoldi. Ammo Makkenzi unga qarashi bilan Zarinka o‘ziga keldi. Qizning tarang tortilgan mushaklari bo‘sashdi, chuqur nafas oldi, qaddini rostladi va Makkenziga benihoya mehr-sadoqat to‘la nighohlari bilan javob qaytardi.

Bir payt Tiling-Tinnex gapirishga urindi, ammo olomonning hayqirig‘i uning ovozini bosib ketdi. Shunda Makkenzi o‘rtaga chiqdi. Tulki so‘zlash uchun og‘iz juftladi-yu, biroq shu on orqasiga tislandi, kuchli faryod tomog‘iga tiqildi – Makkenzi unga g‘azab-u tahdid bilan o‘girildi. Tulkining mag‘lubiyyati qattiq qahqaha bilan qarshi olindi.

– Birodarlarim! – deya so‘z boshladi Makkenzi. – Siz Bo‘ri deb atagan oq tanli odam sizlarning huzuringizga ochiq ko‘ngil bilan keldi. U eskimoslarga o‘xshab aldamaydi. U huzuringizga do‘st bo‘lishni istab keldi. Biroq yigit-

laringiz ko'ngillaridagini aytdilar, endi do'stona gaplarga o'rinn qolmadi. Endi gapimga qulqoq solinglar: avvalo, siz-larning shomoningiz yovuz odam, u yolg'ondan bashorat qilar ekan, u sizlarga aytgan istak-iroda – bu Olov Keltiruv-chining xohish-irodasi, hukmi emas. Qarg'aning ovozini eshitish uchun uning qulqlari karlik qiladi, shomon ichidan g'arazli gaplarni to'qib chiqarib, hammangizni laqillatdi. U hech qanday ilohiy kuchga ega emas. Sizlar o'z itlaringizni o'ldirib, go'shtini yeishga majbur bo'lganingizda, mokasin yeb xom teridan qorningiz og'riganida, chollar o'lganida, kampirlar jon bergenida, onasining ko'kragiga sut kelmay, chaqaloqlar nobud bo'lganida; yerlaringizni zulmat qoplaganida va xuddi muzda losos qirilganiday bari jonivor qirilib-bitganida; ochlik-qahatchilik sizlarga hujum qilganida – shu shomoningiz biror yordam berdimi yoki ovchilarga omad kulib boqdimi? Yoki u qorningizni go'sht bilan siylab, to'ydirdimi? Yana qaytarib aytaman: shomoning hech qanday ilohiy kuchi yo'q. Mana men hozir uning yuziga tupuraman!

Hamma Makkenzining shomonday muqaddas zotga til tekkizganidan, uni tahqirlaganidan hayratdan lol bo'lib qoldi, lekin hech kim churq etmadni. Ba'zi ayollarning o'takasi yorilib, qo'rqib ketdi. Erkaklar esa yuragi taka-puka bo'lib, endi qanday mo'jiza yuz berarkin, deya kutib turdilar. Hammaning nigohi shomon va Makkenziga qaratilgan edi. Shomon hal qiluvchi daqiqalar yetib kelganligini anglab yetdi. Endi vaziyat jilovi qo'ldan ketayotganini his qildi va shunda do'q-po'pisa qilib, la'natlar o'qishga shaylandi-yu, birdan fikridan qaytdi. Makkenzi mushtumini do'laytirdi va qahr ila chaqnagan ko'zlarini bilan unga tomon qadam bosdi. Shomon istehzoli ishshayib, ortiga tisarildi.

– Nima, shomonni haqorat qilganim uchun menga balo yopirildimi? Meni yashin urdimi? Yoki osmondan yulduz tushib, halok qildimi? Tuf-ey! Men bu it bilan hisob-kitob

qilib bo'ldim. Endi men sizlarga butun yer yuzida, jamiki o'lkalarda hukmdorlik qilayotgan qudratlilardan qudratli bo'lgan o'z qabilam haqida aytib beray. Avvaliga biz yakka-yakka, bir o'zimiz ov qilamiz. So'ng gala-gala bo'lib ov qilamiz va nihoyat xuddi bug'ular to'dasi kabi butun o'lkani to'ldirib yuboramiz. Biz o'z chodirlarimizga kiritganlar-imizgina omon qoladi, qolganlarini o'lim kutadi. Zarinka chiroyli, baquvvat qiz, u Bo'rilarga yaxshi ona bo'la ola-di. Sizlar hozir meni o'ldirishingiz mumkin, lekin Zarinka baribir Bo'rilarga ona bo'ladi, negaki mening birodarlarim son-sanoqsiz, ular itlarimning izlarini olib bu yerga keladi. Mana, Bo'ri Qonuniga quloq tuting: agarda kimda-kim bit-ta Bo'rining jonini olsa, qabilanglardan o'n kishining joni ketadi. Mana shunday tovon pulini ko'p o'lkalarda to'ladi-lar, hali yana ko'p yerlarda to'laydilar.

Endi men Tulki va Ayiq bilan gaplashib olmoqchiman. Zarinka ularning ham didiga o'tirgan, bu shundoq ko'rinish turibdi. Shundaymi? Lekin o'zingiz bir qarang – axir men Zarinkani sotib oldim-ku! Ana, Tiling-Tinnex men bergen miltiqqa suyanib turibdi, yana qiz uchun boshqa narsalar ham berdimki, ular sardor xonadonida. Shunday bo'lsa-da, men baribir yosh ovchilargaadolat qilmoqchiman. Uzundan uzoq va'z qilib, tomog'i qurib qolgan Tulkiga beshta katta qutida tamaki bermoqchiman. Mayli, shu bilan og'zi yana moylanib, yig'inlarda hovridan tushguncha shovqin solaver-sin. Ayiqqa esa, – men u bilan tanishganimdan faxrlana-man, – unga ikkita adyol, yigirma finjon un, Tulkinikidan ikki baravar ziyod tamaki beraman; agarda men bilan birga Sharqiy tog'larga ketadigan bo'lsa, unga xuddi Tiling-Tin-nexnikiga o'xshash miltiq ham beraman. Agar u bunga rozi bo'lmasa-chi? Juda yaxshi! Bo'ri gapirib charchadi. Lekin u yana bir marta o'z Qonunini takrorlaydi: agarda kimda-kim bitta Bo'rining joniga qasd qiladigan bo'lsa, qabilalaringdan o'n kishining yostig'i quriydi.

Makkenzi iljayib, ilgarigi joyiga qaytdi, lekin uning ko'ngli notinch edi. Tun pardasi hali ko'tarilmagandi. Qiz Makkenzining yoniga kelib turdi, Ayiq pichoq bilan urishganda qanday hiyla qilishini aytib berdi, Makkenzi uning gaplariga diqqat bilan quloq soldi.

Shunday qilib, ular – Makkenzi bilan Ayiq Zarinka uchun jang qiladigan bo'ldilar. Ko'z ochib yumguncha o'nlarcha mokasin gulxan atrofidagi tepkilangan maydonchani kengaytirdi. Hammaning ko'z o'ngida shomonning mag'lubiyati haqida qizg'in bahs ketmoqda edi; ba'zilar u o'z kuchini ko'rsatadi hali, deb ishontirmoqchi bo'lsa, ba'zilari o'tgan voqealarni eslab, Bo'rining fikrlariga qo'shilardi. Ayiq maydonchaga chiqdi, uning qo'lida ruslar ishlagan qinsiz ovchilar pichog'i bor edi. Tulki hammaning diqqatini Makkenzining revolverlariga qaratdi, u bo'lsa belbog'ini yechib ishonishi mumkin bo'lган yagona inson – Zarinkaga taqib qo'ydi va qizga miltig'ini berdi. Qiz otishni bilmayman, degan ma'noda boshini chayqadi: bunday qimmatbaho qurolni ishlatishni u bechora qayyoqdan ham bilsin.

– Agar xatar orqa tomondan keladigan bo'lsa, „Mening erim!“ deb baqir. Yo'q, mana bunday: „Mening erim!“

Qiz notanish inglizcha so'zni takrorlaganida Makkenzi kulib yubordi-da, uning yuzlaridan chimchilab qo'ydi va o'zi o'rtaga borib turdi. Ayiq Makkenzidan faqat bo'yi bilan emas, balki qo'lidagi pichog'i bilan ustun. Pichoq naq ikki dyuym¹ga uzun edi. Skruf Makkenzi ilgarilari ham g'animining ko'zlariga qarashiga to'g'ri kelgandi, hozir qarshisida haqiqiy jasur erkak turganini anglatdi; biroq u po'lat pichoqlar yaltillashi bilan birdan jonlandi va ajdodlari da'vatiga itoat etgan tomirlarida oqayotgan qon yanada tezlashdi.

¹ Dyuym – uzunlik o'chovi, 25,5 mm.

G‘animi qayta-qayta uni goh gulkxanga, goh qalin qor-ga uloqtirardi, biroq Makkenzi ham xuddi mohir bokschi singari qayta maydon o‘rtasiga siqib kelardi. Hech kim yoniga tushib, unga madad bo‘ladigan biror og‘iz so‘z aytmadi, raqibini bo‘lsa olqishlar bilan ruhini ko‘tardilar, sergaklantirdilar, ehtiyot bo‘l, deya ogohlantirdilar. Biroq Makkenzi pichoqlarning tig‘lari bir-biriga tegib, jarang-jurung etganida faqat tishlarini qattiqroq qisdi. Shunda u o‘z imkoniyatlarini hisobga olib, shoshilmay payt poyladi, Ayiqqa tashlandi, xavf yaqin kelganda, chekindi. Dastlab Makkenzi beixtiyor dushmanini ayadi, lekin omon qolish, jonini saqlash tuyg‘usi Ayiqni o‘ldirishga unday boshladi. O‘n ming yillik tamaddun tuyg‘usi qalbidan xuddi archil-gan qobiq singari sidirilib tushdi va u bir ayol zoti uchun urishib jang qiladigan oddiygina g‘orda yashaydigan ibti-doiy odamga aylandi-qoldi.

U Ayiqqa pichoq bilan ikki marta hujum qildi va o‘zi-ning biror joyiga tig‘ tegizmay, chap bera oldi; lekin uchin-chi marta – o‘ziga zarba berishidan ehtiyot bo‘lish uchun ayiqning qurol ushlangan qo‘lini siqib tushirmoqchi bo‘ldi. Shunda Makkenzi g‘animining kishini dahshatga soladigan kuchini his qildi. G‘animi siqib turgan mushaklari zirqiradi, paylari, bo‘g‘inlari zo‘riqqanidan mana, hozir yorilib ketadi-ganga o‘xhab tuyuldi... rus po‘latining tig‘i esa tobora yaqinroq kelmoqda edi... U raqibining changalidan ozod bo‘lishga urindi, biroq bu harakati besamar ketdi. Mo‘ynali odamlar qurshovi yanada jipslashib boraverdi, – so‘nggi zarba yaqin qolganiga hech kim shubha qilmayotgan, ular bu tomoshani ko‘rishga sabrlari chidamayotgan edi. Shunda Makkenzi usta jangchiday usul qo‘lladi, o‘zini chekkaga olib qochdi-da, raqibiga kalla qo‘ydi. Ayiq noiloj orqasi-ga tisarildi, muvozanatini yo‘qotdi. Makkenzi zudlikda bu fursatdan foydalandi va butun og‘irligini unga tashladi, uni tomoshabinlar halqasidan nariga, bosilmagan qalin qorga

irg‘itib yubordi. Ayiq arang yerdan turdi-da, yana Makkenziga tashlandi.

– Ey, mening erim! – xatar yaqinlashib kelayotganini bildirib, Zarinkaning ovozi yangradi.

Shu payt kamonning tarang tortilib, „shuv“ etgan ovozi eshitildi, Makkenzi qochib qolishga ulgurdi, – poyanagi suyakdan yasalgan nayza ular ustidan uchib, to‘g‘ri Ayiqning ko‘ksiga borib qadaldi, u raqibi ustiga gup etib yiqildi. Makkenzi zumda o‘rnidan turib ketdi. Ayiq tanasida jon asari yo‘q, qimir etmay yotar, gulxanning boshqa tomonida shomon ikkinchi nayzani otishga hozirlik ko‘rmoqda edi.

Makkenzi buni ko‘rdi, darhol pichog‘ini olib, tig‘ tomoni uchidan tutdi va o‘sha tarafga otdi. Pichoq yashinday yaltirab, gulxan ustidan uchib o‘tdi. U naq sopigacha shomuning bo‘g‘ziga qadaldi, shomon gandiraklab-gandiraklab, lang‘illab turgan cho‘g‘lar ustiga yiqildi.

Atrofni qiyqiriq tutdi – Tulki Tiling-Tinnexning miltig‘ini qo‘liga olvolib, unga patron joylashga urindi, lekin eplay olmadi, shunda Skrufning qah-qah uring kulganini eshitib, qurolni qo‘lidan tushirib yubordi.

– Demak, Tulki mana bu o‘yinchoqni qanday ishlatishni haliyam o‘rganib olmabdi-da? Demak, Tulki haligacha ojiz ekan-da. Buyoqqa kel! Miltiqni ber, senga o‘zim otishni o‘rgatib qo‘yaman.

Tulki ikkilandi.

– Beri kel deyapman senga!

Tulki tepki yegan kuchukdek bo‘shashib, unga yaqin keldi.

– Mana, qara, mana bunday qilasan, bo‘ldi.

Makkenzi patronni o‘z joyiga joyladi, tepkini „shaq“ etkizib qo‘ydi, miltiqni yelkasiga osdi.

– Tulki bu tun buyuk voqealar sodir bo‘ladi, degan edi, uning gapi to‘g‘ri chiqdi. Chindan buyuk voqealar sodir bo‘ldi, lekin ularni Tulki sodir etmadni. Nima, u haliyam Za-

rinkani o‘z chodiriga olib ketmoqchimi? U ham shomon bilan Ayiqning izidan yurmoqchimi? Unday emasmi? Yaxshi!

Makkenzi nafrat bilan yuzini o‘girib, shomonning bo‘g‘-zidan pichog‘ini sug‘urib oldi.

– Ehtimol, yosh ovchilar ichida shunday qiluvchilar topilib qolar? Agar ular yana kurashmoqchi bo‘lsalar, Bo‘ri ularni ham bitta qo‘ymay o‘sha yoqqa jo‘natadi. Xohlay-diganlar yo‘qmi? Yaxshi. Tiling-Tinnex, men, mana, ikkinchi marta miltiqni senga beryapman. Agar qachonki Yukon tomonlarga boradigan bo‘lsang, Bo‘rining eshigi sen uchun ochiq, u senga uyidan joy beradi va to‘kin-sochin dasturxonni sen bilan baham ko‘radi. Ana tun ham kunga o‘tib boryapti. Men ketaman, balki, yana kelib ham qolarman, yana so‘nggi bor so‘zimni qaytaraman: Bo‘ri Qonunini yodda tuting!

U Zarinkaning yoniga keldi, stikslar esa Makkenziga bir mo‘jizaviy mavjudotga qaraganday qaradilar. Zarinka chana oldidagi o‘ziga atalgan joyni egalladi va itlar yo‘lga ravona bo‘ldi. Oradan biror daqqa o‘tgach, ular qorli g‘ira-shira o‘rmonga singib ketdilar. Shundagina qimir etmay turgan Makkenzi ham chang‘iga oyoq qo‘ydi va ularning izidan ketishga hozirlandi.

– Nahotki Bo‘ri beshta katta quti tamakini tashlab ketishni unutgan bo‘lsa?

Makkenzi g‘azab bilan Tulkiga o‘girildi, negadir birdan kulgisi qistadi.

– Men senga bitta kichkina qutida tamaki beraman.

– Bo‘ri baribir Bo‘riligini qildi-da,— dedi sekingina Tul-ki qo‘lini cho‘zib.

ISYONCHI

*Turaman. Mehnatga chaqirar kunduz,
Yalqovlikni ato qilmagin, yo Rab!
Kunduzi tanamdan agar chiqsa jon,
Qilgan mehnatim chun aylagil ehson!*
Omin.

– Hoziroq tur, Jonni. Bo‘lmasa ovqat bermayman!

Bu gap bolaga ta’sir qilmadi. Bola uyg‘onishni sira ham istamas, xayolparast o‘z xayoliy orzularidan ajralishni istamaganidek, shirin uyqudan ajralgisi kelmasdi. Bola mushtlarini qisib, zaif va tartibsiz ravishda havoni mijig‘lardi. Bu zarblar onasiga qarshi qaratilgan, ammo onasi bunga odatdagidek chaqqonlik bilan chap berar va bolaning yelkasidan ushlab, uni qattiq-qattiq silkitar edi.

– Bor-e-e!..

Bola uyqu aralash bo‘g‘iq ingradi-yu, ammo bu ingrash tezda g‘azabli qichqiriqqa aylandi, keyin bola jum bo‘ldida, ketidan allanarsalar deb g‘ulduradi. Bu jon achchig‘ida-gi qichqiriq, jahannamda jon azobi chekib yotgan odamning alamli qichqirig‘i edi.

Ammo ona bunga e’tibor bermadi. Ko‘zlari g‘amgin, yuzlari horg‘in bu xotin kunda bo‘ladigan bu mashmashaga o‘rganib qolgan edi. Ona ko‘rpaning bir uchidan tutib, bolaning ustini ochib tashlamoqchi bo‘ldi. Lekin bola musht solishdan voz kechib, jon-dili bilan ko‘rpaga yopishib oldi. U karavotning oyoq tomonida g‘ujanak bo‘lib olib,

ko'rpadan ajralishni istamasdi. Undan keyin onasi karavot-dagi ko'rpa-to'shakning hammasini yerga tortib tushirmoq-chi bo'ldi, bola bunga ham qarshilik ko'rsatdi. Onasi butun kuchi bilan tortdi, zo'rlik qildi, ko'rpa bola bilan birga yerga sirg'alib tusha boshladi. Bola odatdagidek ko'rpara mahkam yopishib, isitilmagan uydagi sovuqdan jon asramoqchi bo'lardi.

Bola karavotning chekkasida osilib, polga yiqilay-yi-qilay deb turardi, shunda uyqusi o'cha boshladi. U dik etib o'rnidan turib o'tirib oldi-yu, yiqilmadi; keyin oyoqlarini polga osiltirdi. Shu zahoti onasi uni yelkasidan tutib silkitdi. Bola yana mushtlarini ishga soldi, bu gal u mo'ljaliga kuchliroq va bexatoroq musht urdi. Uning ko'zлari ochildi. Onasi uni qo'yib yubordi – bola uygongan edi.

– Xo'p, xo'p, – deb ming'illab qo'ydi u.

Onasi stol ustidan lampani oldi-da, uni qorong'ida qoldirib oshxonaga chiqdi.

– Oyligingdan ushlab qolishadi, o'shanda bilasan! – dedi ona chiqib ketarkan.

Qorong'ilik unga xalaqit bermadi. Bola kiyinib oshxonaga chiqdi. Uning og'ir qadam tashlashi oriq, nozik gavdasiga hech mos kelmasdi. Bola oyoqlarini og'ir sudrab bosardi, bu esa g'alati ko'rnardii: uning oyoqlari ingichka va qoqsuyak edi. U stol oldiga siniq stulni surdi-da, o'tirib oldi.

– Jonni! – dedi onasi norozilik bilan.

Bola indamay jahl bilan o'rnidan turdi-da, chanoq oldiga keldi. Bu chanoq iflos, moy bosib ketgan, uning teshigidan yomon hid kelib turardi. Bola buni sezmasdi. Chanoqdan sassiq hid kelib turganligi, bugungidek yuvindi singib ketgan sovunning ko'pirmasligi ham unga tabiiy bir hol edi. To'g'risini aytganda, sovun bilan yuvinishga haf-salasi ham yo'q. U yuziga bir necha marta suv sepdi-da, shu bilan yuvinishni tamom qildi. U tishlarini tozalamadi, tish cho'tkasini umrida ko'rmagan. Dunyoda tish tozalash-

ga ham vaqt sarf qilib o‘tiradigan ahmoq odamlar bo‘ladi, deb hatto xayoliga ham keltirmasdi.

– Hech bo‘lmasa kunda bir marta yuvinishni odat qilsang edi, – dedi o‘pka qilib onasi.

Kofeynikning siniq qopqog‘ini bir qo‘li bilan ushlab turib, onasi ikkita chashkaga kofe quydi. Bola onasining ta’nasiga javob bermadi, chunki bu ona-bola o‘rtasidagi har kungi savdo bo‘lib, ona faqat bir narsani – hech bo‘lmasa kunda bir marta yuvinishni qat’iy talab qilardi. Jonni yuzini yog‘ bosib ketgan, yirtiq sochiqqa artdi. Uning betiga sochiq iplari yopishib qoldi.

– Uyimiz ishxonadan juda uzoq-da, – dedi ona bola stol yoniga o‘tirganda. – Bilasan-ku, axir, qo‘limdan kelganicha tirishaman. Lekin uyimiz keng, ijara haqi bir dollar kam. O‘zing bilasan, bir dollar ham ko‘chada yotmaydi-da.

Onaning so‘zlariga u deyarli quloq solmasdi. Bu gaplarni u juda ko‘p eshitgan. Onaning fikr doirasi juda tor bo‘lib, doim uning boshini qotirgan narsa – turmushning noqulayligi va turgan joylarining fabrikadan uzoqligi edi.

– Ortiqcha dollar – ortiqcha ovqat degan gap, – dedi bola, burrolik bilan. – Uzoqroq yo‘l yursam ham ko‘proq ovqat yeish yaxshida.

U nonni shoshib-pishib yamlab yutar, ustidan qaynoq kofe ichardi. Issiq loyqa suyuqlik kofe o‘rnini bosardi. Lekin Jonni buni haqiqiy va eng yaxshi kofe deb o‘ylardi. U umrida rostakam kofeni ichmagandi.

Bir burda nondan tashqari unga bir parcha yaxna to‘ng‘iz go‘shti ham tegdi. Onasi yana bir chashka kofe quyib berdi. Jonni nonini yeb bo‘lib, yana biror burda non bermasmikan, deb onasining qo‘liga qaradi. Onasi uning maqsadiga tushundi.

– Bunday ochko‘z bo‘lma, – dedi onasi. – O‘z tegishingni olding. Ukalaring nimani yeysi?

Jonni javob bermadi. Umuman, u juda kamgap bola edi. U ochko‘zlik bilan endi ovqatga tikilmadi. Bola zorlanmadı, bu itoatkorligi shunga majbur qilgan maktabidan ham battar edi. U kofeni ichib og‘zini qo‘li bilan artdi-da, o‘rnidan turdi.

– Shoshma, – dedi onasi shoshilib. – Non chetidan yupqa qilib yana bir burda kesib bera qolay.

Ona epchillik qilmoqchi bo‘ldi. U bir bo‘lak nonni olib, go‘yo chetidan kesayotganday pichoq urdi, keyin nonni qaytib savatga soldi-da, o‘z nonidan bir burdasini bolasiga berdi. Ona, uni aldadim, deb xayol qildi, lekin u onasining quvligini sezdi, shunday bo‘lsa ham nonni hech tortinmay oldi. Onam kasalmand bo‘lganidan ko‘p ovqat yeya olmaydi, deb o‘ylar edi u.

Bolaning quruq non chaynayotganini ko‘rib, onasi unga o‘z kofesini ham quyib berdi.

– Bugun nima uchundir kofe ko‘nglimni aynitib turibdi, – deb qo‘ydi ona.

Uzoqdan eshitilgan cho‘ziq va qattiq bong ikkalasini ham o‘rinlaridan sakratib turg‘azib yubordi. Onasi tokchadagi tunuka soatga qaradi. Soat besh yarim. Barcha fabrika ishchilari endi uyqudan uyg‘onmoqdalar. Ona ro‘molini yelkasiga tashladi, boshiga eski g‘ijimlangan shlapani kiyib oldi.

– Yelib yurmasak bo‘lmaydigan ko‘rinadi, – dedi u lampaning piligini ichiga tortib puflab o‘chirar ekan.

Ular paypaslanib xonadan chiqib, zinapoyadan pastga tushdilar. Tashqarisov uqqa, osmonda bulut yo‘q. Jonni sovuqqa chiqishi bilan badani junjikib ketdi. Yulduzlar hali charaqlab turibdi. Shahar qorong‘i. Ona-bola oyoqlarini og‘ir sudrab, piyoda borardilar. Oyoqni qattiq-qattiq bosishga mador yo‘q.

O‘n besh daqiqalardan keyin onasi o‘ngga burildi.

– Ehtiyyot bo‘l, kech qolma! – deb qorong‘ilik ichidan so‘nggi marta ogohlantirdi ona.

Jonni indamay ketaverdi. Ishchilar mahallasi jonlanib,

eshiklar ochilib-yopila boshladi. Ko‘p o‘tmay Jonni oshiqib ishga ketayotgan odamlarga qo‘sildi. U fabrikaning hovlisiga kirganda ikkinchi bong chalindi. Jonni sharqqa ko‘z tashladi va uylar ustida endigina oqarib kelayotgan tong yorug‘ini ko‘rdi. Kunduzgi yorug‘likdan Jonniga qismat bo‘lgani ana shu g‘ira-shira yorug‘ edi. Jonni yorug‘likka orqasini o‘girib, boshqa ishchilar qatori sexga kirib ketdi.

Jonni uzunasiga qator tizilgan mashinalarning biri oldiga kelib, o‘z joyini egalladi. Uning oldida ip g‘altaklari solingan yashik turadi, undan teparoqda juda tezlik bilan katta duglar aylanadi. Jonni o‘sha duglarga kichik g‘altaklardagi iplarni ulab turishi kerak.

Ish qiyin emas, lekin chaqqonlik talab qiladi. Kichkina g‘altaklar ipni tez-tez chuvatadilar, duglar ipni shunday tezlik bilan o‘raydilarki, anqayding – ish chatoq.

Jonni beixtiyor tez ishlardi. Kichik g‘altaklardan biri bo‘shaganda, u chap qo‘li bilan duglarning harakatini to‘xtatar, ayni vaqtda ikki barmog‘i bilan ipning uchini ushlab olardi. O‘ng qo‘li bilan esa xuddi shu vaqt boshqa g‘altakdagagi ipning uchini tutib olib, ikki ipni bir-biriga ulardi. Bu harakatlar ikki qo‘l bilan bir vaqtda juda tez bajarilishi kerak. Keyin Jonni tez harakat qilib iplarning uchini tugib, dugni qo‘yib yuboradi. To‘quvchilik iplarini ulash oson ish. Jonni bu ishlarni juda oson va xatosiz bajaradi, bunday tugunchalarni qilishga u juda usta bo‘lib qolgandi, bir marta, hatto u tushimda ip ulay olaman, deb maqtangan edi. Haqiqatan ham Jonni kechalari tushida mana shunday tugun tugib chiqardi.

Ba‘zi bolalar ishyoqmaslik qilib, g‘altaklarni o‘z vaqtida almashtirmay, mashinalarning bo‘sh ishlashiga yo‘l qo‘yardilar. Ammo usta bundan doim ko‘z-quloq bo‘lib turardi. Bir kun usta Jonni oldida ishlab turgan bolani xuddi shu aybi uchun qulinq-chakkasiga qo‘yib yubordi-da:

– Jonniga bir qara! Nega unga o‘xshab ishlamaysan? – deb do‘q qildi. Jonnining duglari tez va to‘xtovsiz aylanar-

di, lekin u masterning maqtovidan xursand bo‘lmadi. Va-holanki, bir vaqtlar... Lekin bunga juda ko‘p vaqtlar bo‘ldi. Usta uni boyagi bolaga ibrat qilib ko‘rsatganda, bolaning beparvo yuzi mutlaqo o‘zgarmadi. Ha, u ibrat bo‘larli ish-chi, buni o‘zi ham bilardi. Bu haqda o‘ziga ham aytishardi, aytganda ham ko‘p martalab aytishgan edi. Lekin odat tusiga kirib qolgan bu maqtovlarning unga hech qanday ahamiyati yo‘q edi. Asta-sekin u namunali ishchidan namunali mashinaga aylanib ketdi. Uning ishida biror kamchilik yuz bersa, bunga xom-ashyoning yomonligi sabab bo‘lardi. Eng yaxshi dastgoh yomon mahsulot chiqarmagandek, u ham sira xato qilmay ishlardi.

Bunga ajablanmasa ham bo‘ladi. U umri bo‘yi mana shu mashinalar bilan birga yashadi. Uni mashinalar tarbiyaladi desa ham bo‘ladi. Har holda, u mashinalar ichida katta bo‘ldi. Bundan o‘n ikki yil burun shu fabrikaning tikuv sexida birdan qiy-chuv ko‘tarildi. Jonnining onasi hushidan ketib yiqildi. Onani guvullab turgan mashinalar orasida yerga yotqizib qo‘ydilar. Darhol ikkita to‘quvchi xotinni chaqirib oldilar. Usta ham yordam berdi. Bir necha daqiqadan keyin to‘quvchilik sexida bitta jon ortdi. Bu mashinalar g‘uvvosi, shovqin-suroni ichida tug‘ilgan bola Jonni edi. U birinchi bor nafas olganda uchib yurgan chang aralash quyuq, issiq havo bolaning o‘pkasiga kirdi. Birinchi kundayoq o‘pkasini changdan qutqazish uchun Jonni yo‘tala boshladи. Shu-shu bo‘ldi-yu, hali-hozirgacha yo‘talishini qo‘ymaydi.

Jonnining oldida ishlayotgan bola biqnab yig‘lar va shilq-shilq burnini tortardi. U hali ham uzoqdan olayib-olayib qarab qo‘yayotgan ustaga nafrat bilan xo‘mrayib qarardi; ammo endi mashinasida bo‘shab qolgan g‘altaklari yo‘q edi. Bola oldida aylanayotgan g‘altaklarni ovozini baralla qo‘yib so‘kadi, lekin uning alam bilan yog‘dirgan so‘kishlari uzoqda eshitilmas, xuddi devorga urilgandek, mashinalar guvvosi orasida yo‘qolib ketardi. Jonni hech nar-

saga e'tibor bermay qo'ygandi. Sodir bo'layotgan hodisalariga u beparvo qarashga o'rgangan. Shu bilan birga hamma narsa hadeb takrorlanaversa, jonga tegib qoladi. Bunday hodisalarni u ko'p martalab ko'rghan. Ustaga qarshi biror narsa deyish – mashinaga qarshilik ko'rsatishdek foydasiz ish, deb o'ylardi u. Mashinalar ma'lum qolipda harakat qiladi va ma'lum bir vazifani ado etadi. Usta ham xuddi shunday.

Soat o'n birga borib sexda allaqanday hayajon boshlandi. Qandaydir sirli yo'l bilan bu hayajon bir zumda hamma yoqqa tarqaldi. Jonnining boshqa yonida ishlayotgan bir oyoqli bola qo'ltiq tayog'i bilan bir zumda bo'sh vagonetka ichiga yashirinib oldi. Shu vaqt eshikdan fabrika ish boshqaruvchisi kirib keldi. Uning orqasidan yaxshi kiyingan bir yigit kelmoqda edi. Yigitning egnida kraxmallangan ko'yak. O'zi yaxshi kiyingan bo'lib, Jonni bundaylarni jentlmen deb hisoblardi, buning ustiga u yana nazoratchi ham edi.

Nazoratchi bolalar yonidan o'tib borarkan, har birini diqqat bilan ko'zdan kechirdi, ba'zan to'xtab bir-ikki savol ham berardi. Shunday paytlarda u ovozi boricha baqirardi, shunda uning yuzlari kulgili bir tusda burishib-tirishib ketardi.

U Jonni yonidagi mashinaning bo'sh turganligini ko'rib qoldi, lekin hech narsa demadi.

Nazoratchi Jonnining oldiga kelib to'xtadi, uning tirsagidan ushlab mashinadan bir qadam chetga tortdi-da, taajjub bilan yana qo'yib yubordi.

– Biroz oriqroq, – deb tashvish aralash iljaydi ish boshqaruvchi.

– Qoqsuyak-ku! – dedi unga nazoratchi. – Oyoqlariga qarang. Raxit bo'lsa kerak, to'g'ri, hozir kasalning boshlang'ich davri, lekin kasal ekanligi shubhasiz. Agar uni tutqanoq tamom qilmasa, demak, sil oldinroq tamom qiladi, degan gap.

Jonni aytilgan gaplarning hammasini eshitdi, lekin hech narsa tushunmadi. Bundan tashqari, qachonlardir bo'ladi

gan, kelajakdagи kasallar uni qo‘rqiitmadi. U nazoratchining o‘zidan ko‘proq qo‘rqib turardi.

– Qani, bola, to‘g‘risini ayt, – deb qichqirdi nazoratchi Jonnining qulog‘iga egilib... – Yoshing nechada?

– O‘n to‘rtda! – dedi Jonni yolg‘ondan kuchi boricha baqirib.

Qattiq baqirganidan o‘tkir, quruq yo‘tali qo‘zg‘aldi. Er-talabdan beri uning o‘pkasiga o‘tirib qolgan chang yo‘talni yana ham kuchaytirdi.

– Aft-u basharasiga qarab, o‘n oltida desa ham bo‘ladi, – dedi ish boshqaruvchi.

– Oltmishda desa ham bo‘ladigan ko‘rinadi, – deb jahl bilan gapni shart kesdi nazoratchi.

– U doim shunaqa.

– Ko‘pdan berimi? – deb tez so‘radi inspektor.

– Bir necha yildan beri. O‘zi hech ulg‘aymaydi.

– Yasharmaydi deng. Shu yillar ichida u hamma vaqt sizda ishladimi?

– Hamma vaqt emas. Lekin bu bola yangi qonun chiqarilmasdan ancha ilgari ishlar edi, – deb shoshib tushuntirdi ish boshqaruvchi.

– Bu yerda hech kim ishlamaydimi? – deb qiziqib so‘radi nazoratchi Jonnining yonidagi mashinani ko‘rsatib. Mashinada yarmigacha ip o‘ralgan duglar juda tez aylanmoqda edi.

– Shunaqaga o‘xshaydi, – deb ish boshqaruvchi imlab ustani chaqirdi-da, mashinani ko‘rsatib nimanidir qichqirib so‘radi.

– Mashina bo‘sh ekan, – dedi u nazoratchiga qarab.

Ular nari o‘tib ketdilar. Jonni xavf o‘tib ketganligiga suyunib, mashinasi oldiga qaytdi. Lekin bir oyog‘i yo‘q bola baxtsizlikka uchradi. Hamma yoqqa diqqat bilan ko‘z tashlab borayotgan nazoratchi uni ko‘rib qoldi-da, vagon-etka ichidan tortib tushirdi. Bolaning lablari titrar, boshi-

ga og‘ir kulfat tushgandek ko‘zlarini g‘amgin mo‘ltiratib turardi. Usta cho‘loq bolani xuddi umrida birinchi marta ko‘rayotgandek taajjub bilan baqrayib qoldi. Ish boshqaruvchining yuzida o‘ng‘aysizlanish va norozilik alomatlari paydo bo‘ldi.

— Men uni bilaman, — dedi nazoratchi. — U endi o‘n ikiga kirgan. Shu yilning o‘zida mening ko‘rsatmam bilan uchta fabrikadan bo‘shtdilar, bu to‘rtinchisi.

— Maktabga boraman, deb va‘da berib eding-ku? — deb so‘radi u boladan. Bola yig‘lab yubordi.

— Kechiring meni, nazoratchi janoblari, biz juda kambag‘al odamlarmiz. Uyimizda ikkita kichkinamiz o‘lib qoldi, yemoqqa hech narsa yo‘q.

— Nega yo‘talyapsan? — deb so‘radi nazoratchi, yo‘tal-gani uchun uni go‘yo jinoyatkor qilayotganday.

— E-e, hechqisi yo‘q, — dedi bola, o‘zini oqlayotganday bo‘lib. — Men o‘tgan hafta shamollab qolgan edim, bo‘lgani shu, nazoratchi janoblari.

Ish nazoratchi bolani olib chiqib ketishi bilan tugadi. Tashvishlangan ish boshqaruvchi ham uning orqasidan g‘oyib bo‘ldi. Shundan keyin sexda hamma narsa eski iziga tushib ketdi.

Nihoyat, uzundan uzoq ertalab, undan ham uzoq kun o‘tdi-da, ish tugaganidan darak berib bong chalindi. Jonni fabrika darvozasidan chiqqanda qosh qorayib qolgan edi. Bu vaqt ichida quyosh o‘zining oltin yo‘lidan osmonga ko‘tarilgan, yorqin nurlari bilan dunyoni isitgan, undan keyin shahardagi binolarning past-baland tomlari orqasiga o‘tib, botib ham ketgan edi.

Kechki ovqat oilaning barcha a’zolarini jam qiladigan birdan bir vosita ediki, shunda Jonni o‘z ukalari bilan to‘qnash kelardi. Bu uchrashuv chinakam edi, chunki Jonni juda qari, ular esa kishiga alam qilarli darajada yosh edilar. Bu ajoyib va erishib bo‘lmas yoshlik uning asabiga tegib,

jahlini chiqarardi. U yoshlik nima ekanligini tushunmasdi, uning yoshligi endi juda uzoq o'tmish bo'lib qolgan edi. Bolalarning o'yin-sho'xliklariga sovuqqonlik bilan qarab turolmaydigan asabiy va jahli tez cholga o'xshardi. Jonnining nazarida, bu o'taketgan ahmoqlik. U qovog'ini solib o'tirib ovqat yer ekan, ular ham tez orada ishga boradilar-ku, deb o'ziga tasalli berardi. Ish ularni ipakdek qilib qo'yadi, ular ham Jonniga o'xshab vazmin va jiddiy bo'lib qoladilar. Barcha mo'min bandalar singari Jonni ham hamma narsani o'z qarichi bilan o'lchardi.

Ovqat ustida onasi bolalarini boqish uchun qo'lidan kelganicha tirishayotganini har xil shaklga solib qayta-qayta pesh qilardi. Shuning uchun ham u qashshoqona dasturxon yig'ishtirilishi bilan yengil tortib, o'rnidan turdi. Yotib uxlasammikan yo birpas ko'chaga chiqsammikan, deb bir zum ikkilandi, so'ng ko'chaga chiqishga ahd qilib, tashqariga yurdi. Lekin uzoqqa ketmadi, yelkalarini bukchaytirib, tirsaklarini tizzalariga tirab, ikki kaftini iyagiga tirab, eshik oldidagi zinapoyaga o'tirib oldi.

U hech narsani o'yamas, faqat orom olardi. Uning ongi mudrardi. Shu vaqt ukalari ham tashqari chiqib, boshqa bolalar bilan shovqin-suron ko'tarib o'yin boshlab yubordilar. Elektr fonaridan tushayotgan shu'la o'ynayotgan bolalariga yorug' tushirib turardi. Ular Jonnining asabiy va serjahl ekanini biladilar, lekin shunday bo'lsa ham bolalarga xos sho'xlik bilan uning jig'iga tega boshladilar. Ular qo'llarini tutishib, bir maromda chayqalib, Jonnining sha'niga tegizib bemaza ashula ayta boshladilar. Boshda u g'ijinib, bolalarni ustalardan o'rganib olgan yomon so'zlar bilan so'kdi. Lekin buning befoyda ekanligini ko'rib va yoshi kattaligi esiga tushib qolib, obro'sini saqlash uchun yana jim bo'lib qoldi.

Bu sho'xlikni boshlab bergen o'zining ukasi o'n yashar Villi edi. Jonni uni yaxshi ko'rmasdi ham. Bolalikdanoq Vililini deb doim ko'p narsalardan voz kechishga, o'z hissasini

unga berishga to‘gri kelardi. Shuning uchun ham Jonni, Vil-li mendan ko‘p qarzdor, yaxshilikni bilmaydigan bola, deb o‘ylardi. Bundan ko‘p zamonlar ilgari, Jonni ayni o‘ynab yuradigan vaqtarda Villiga qarab umri o‘tgan. Villi u vaqt-larda chaqaloq edi. Onasi hozirgidek kun bo‘yi fabrikada ishlardi. Jonni ham otalik, ham onalik vazifasini ado etardi.

Jonni ukasini deb o‘zini siqqani va nafsi tiygani, af-tidan, Villiga juda foydali bo‘lib chiqqandi. Yuzlari qip-qizil, baquvvat Villi endi o‘nga kirgan bo‘lishiga qaramay, bo‘yi o‘n ikki yashar Jonnining bo‘yi bilan baravar, hatto undan baquvvatroq edi. Go‘yo akasining ham hissasi ukasi-dan chiqqandek edi. O‘sanda ham faqat jismoniy xislat-dan emas. Jonni holdan toygan, ruhan ezilgan, jonsiz, ukasi esa sog‘lom, o‘zini qayerga qo‘yishini bilmaydi.

Bema’ni qo‘sinq borgan sari avj oldi; Villi sakrab-o‘ynoqlab unga yaqinlashdi-da, tilini chiqarib Jonnini mas-xara qildi. Shunda Jonni chap qo‘li bilan ukasining bo‘yni-dan ushlab oldi va tumshug‘iga bir musht tushirdi. Uning mushti kichkina, quruq suyak edi, ammo shunda ham og‘rit-gan bo‘lsa kerakki, bola chinqirib yig‘lab yubordi. Bolalar qo‘rqib ketib faryod ko‘tardilar. Jonni bilan Villining singlisi Jenni uygaga yugurdi.

Jonni Villini itarib yubordi-da, jahl bilan bir tepdi, keyin yiqtib burnini yerga ishqaladi. Shu vaqt yugurgancha onasi kelib qoldi-yu, ojizlik bilan Jonnidan ginaxonlik qildi va butun onalik g‘azabini sochdi.

– Nega o‘zi tegajog‘lik qiladi! – deb javob berdi Jon-ni. – Charchaganimni ko‘rmayaptimi?

– Men ham sendek katta bo‘lib qoldim! – deb qichqi-rardi Villi onasi quchog‘ida tipirchilab. Uning loy va qonga belangan yuzlaridan ko‘zyoshlari oqib turardi.

– Men ham sen bilan teng bo‘lib qoldim, – dedi yig‘lab Villi. – Sendan ham katta bo‘lib ketaman hali, o‘sanda ko‘rasan, adabingni berib qo‘yaman!

– Shunday katta bo‘lib qolgan bo‘lsang, ishga bor, – dedi Jonni ijirg‘anib. – Ishla endi – ishga kiradigan vaqting keldi. Oyim ishga kirgizib qo‘ysin.

– Hali u yosh bola, axir, – dedi norozilik bilan ona. – U hali juda kichkina-ku, qanday ishlaydi?

– Men ishga kirganimda undan ham yosh edim.

Jonni yana ko‘p gapirib, alamidan chiqmoqchi edi-yu, lekin shashtidan qaytdi. Keyin u qovog‘ini solib o‘rnidan turdi-da, uyga kirib ketdi. Oshxonadan issiq kirsin uchun xonaning eshigi ochib qo‘yilgan edi. U qorong‘ida yechi-narkan, onasining qo‘shni xotinga arz qilayotganini eshitdi. Onasi yig‘lar va yig‘i orasida gapini ham qo‘ymasdi.

– Jonniga nima bo‘lganini hech tushuna olmay qoldim, – derdi u, – bola hech bunday emasdi. U doim farishta singari yuvosh va muloyim edi. To‘g‘risi, u hozir ham yaxshi bola, – deb shoshilib qo‘shib qo‘ydi onasi Jonnini oqlashga tirishib. – U ishdan qochmaydi, faqat juda yoshlikdan fabrikada ishlay boshladi, bunisi to‘g‘ri. Nahotki men aybdor bo‘lsam? Har nima bo‘lganda ham durust bo‘lsin, deb o‘ylaysan-da kishi!

Yana onasining hiqillab yig‘lagani eshitildi. Jonni ko‘zini yumarkan:

– Ha, barakalla, ishdan hech qochgan emasman, – deb ming‘illab qo‘ydi.

Ertasi kuni saharda onasi uni yana shirin uyqusidan qo‘yarda-qo‘ymay uyg‘otdi. Ketidan qorni to‘yar-to‘ymas non-ushta qildi-da, tun qorong‘usida uydan chiqib, ishga jo‘nadi. Jonni fabrika hovlisiga kirganda, g‘ira-shira tong otib kelardi, u o‘sha yorug‘likka orqa o‘girib, sexga kirib ketdi. Bir-biriga o‘xshagan son-sanoqsiz kunlardan yana biri keldi.

Lekin Jonnining hayotida yangiliklar ham bo‘lib turardi: bu boshqa ishga o‘tganida yoki kasal bo‘lganida yuz berar edi. Olti yoshida u Villi va boshqa ukalarini boqardi. Yetti yoshida fabrikaga ishga kirib, g‘altaklarga ip o‘ray boshla-

di. Sakkiz yoshida boshqa fabrikadan ish berishdi. Uning yangi ishi juda yengil edi. Jonni qo‘lida tayoq bilan bir joyda o‘tirar va oldidan uzlusiz o‘tib turgan gazlamaning taxi buzilgan yerini tayog‘i bilan to‘g‘rilardi. Bu gazlama oqimi mashinalar ichidan chiqib, issiq barabanlar ustidan qayoq-qadir nariga o‘tib ketardi. Jonni doim kunduzgi yorug‘dan mahrum yarim qorong‘i bir joyda, kichkina gaz rojak ostida o‘tirardi, shu tarzda u asta-sekin mexanizmning bir qismiga aylanib bordi.

Jonni o‘tirgan yerning havosi rutubatli va issiq bo‘lishiga qaramay, o‘z ishidan juda xursand edi, chunki u hali yosh bo‘lib, ajoyib umid va xayollar dengizida suzib yurardi. U to‘xtovsiz o‘tib turgan gazlama oqimini kuzatarkan, shirin-shirin xayolga botardi. Ish hech qanday harakat qilishni, aqlni ishlatishni talab qilmasdi; shu tufayli u borgan sari kamroq xayol suradigan bo‘ldi, ongi borgan sari o‘tmaslanib bordi. Har holda, u haftasiga ikki dollar ishlar, bu pul esa ochdan o‘lmaslik uchun bir amallab yetib turardi.

U to‘qqiz yoshga kirganda bu ishdan mahrum bo‘ldi, bunga sabab qizamiq bilan og‘rib qolgani edi. Sog‘aygan-dan keyin shisha zavodiga ishga kirdi. Bu yerda ko‘proq pul to‘lar edilar, lekin bu ishda uquv talab qilinardi. Bu yerda haqni ishlagan ishiga qarab to‘lar edilar. U qanchalik tez ishlasa, shuncha ko‘p pul olardi. Bu ish uni juda rag‘batlantirdi. Mana shuning ta‘siri ostida u tez fursatda eng yaxshi ishchilar qatoriga o‘tib oldi.

Bu ish ham uncha qiyin emasdi: shishadan yasalgan tiqinlarni kichik shisha idishlarga bog‘lash kerak. Jonni belliga bir tutam ip bog‘lab olib, ikki qo‘li bilan ishslash uchun shishalarni tizzasi orasiga qisib olardi. Muk tushib o‘tirib ishslash natijasida yelkalari turtib chiqib bukchayib qoldi. Ko‘krak qafasi esa bir kunda o‘n soatlاب siqilib turardi. Bu uning o‘pkasiga ta‘sir qildi. Bir kunda u uch yuz dujina shishaga tiqin bog‘lardi.

Zavod ishlab chiqaruvchisi u bilan juda g'ururlanib yurar va zavodga kelgan odamlarni boshlab kelib, uning ishlashini ko'rsatardi. O'n soat ichida uning qo'lidan uch yuz dujina shisha o'tardi. Bu esa u mashinadek takomilga yetishdi, degan so'z edi. U birorta ham ortiqcha harakat qilmasdi. Oriq qo'llarining har bir harakati, qoqsuyak barmoqlarining har bir qimirlashi tez va aniq edi. Bunday ish zo'r diqqatni talab qilardi, shuning uchun uning asablari sekin-asta buzila bordi. Kechalari uqlab yotganda irg'ib-irg'ib tushar, kunduzlari esa na ko'ngil ochar, na dam olardi. U doim asabiy bo'lar, qo'llarining tomiri tortishardi. Rangi kasallarniki singari zahil bo'lib ketdi, yo'tali kundan kunga kuchaya bordi. Oxiri u o'pkasini shamollatib qo'yib shisha zavodidagi ishdan ajrab qoldi.

Undan keyin Jonni yana qaytib jun fabrikasiga ishga kirdi. Bu yerda Jonni tuzukroq ishga o'tkazishlariga umid qilsa bo'lardi. U yaxshi ishchi edi. Uni avval kraxmal sexiga, keyin to'quvchilik sexiga o'tkazishlari mumkin. Keyin gap ish mahsulotini orttirishda bo'lib qoladi.

Shu yillar ichida mashinalar tezroq, Jonnining miyasi esa sekinroq ishlay bordi. U endi bir vaqtlardagi singari shirin xayollarga cho'mmas edi. Bir marta u oshiq ham bo'lgan edi. Bu voqeа gazlama oqimini tayoqcha bilan to'g'rilib yurgan paytlarida sodir bo'lgandi. U oshiq bo'lgan qiz ish boshqaruvchining kattagina bo'lib qolgan qizi edi. Jonni qizni uzoqdan besh-olti marta ko'rdi, xolos. Ammo buning ahamiyati yo'q edi. O'z oldidan o'tib ketayotgan mato ustida kelajakning porloq manzarasini tasavvur qilardi – u ishda ajoyib hunar ko'rsatar, g'alati mashinalar ixtiro qilar-di. U fabrikaning direktori bo'ladi, oxiri o'z ma'shuqasini quchoqlab, asta peshonasidan o'padi...

Bularning hammasi bir vaqtlar, Jonni hali uncha qarib qolmagan bir zamonlarda, unda sevish qobiliyati o'limgan zamonlarda bo'lib o'tgan edi. Qiz erga tegib, qayoqqadir ketib qoldi, uning sezgilari esa o'tmaslashdi.

Ha, u vaqtlar ajoyib zamonlar edi. Odamlar o‘zlarining hurlarga ishongan yoshlik chog‘larini eslaganlaridek, Jonni ham u vaqtlnari tez-tez eslab turardi. Jonni esa hurlarga ham, Santa Klausga ham ishonmasdi; u soddalik bilan o‘z oldidan o‘tayotgan mato ustida ko‘ziga ko‘rinayotgan o‘sha xayoliy keljakning go‘zal manzaralariga ishonardi.

Jonni juda erta ulg‘aydi. Yetti yoshida, birinchi marta oylik olib kelganda, uning o‘spirinlik davri boshlangandi. Unda ma’lum mustaqillik tuyg‘usi uyg‘ondi va ona bilan o‘g‘ilning munosabati o‘zgardi. U o‘z nonini o‘zi topadi-gan, o‘z mehnati bilan kun ko‘radigan va demak, onasi bilan tengdek bo‘lib qoldi. O‘n bir yoshida u yarim yilgacha tungi smenada ishlab, chinakam yigitlar qatoriga o‘tdi. Kechalari qolib ishlovchi bolaning bolaligi qoladimi.

Uning hayotida bir necha muhim hodisa ro‘y bergan edi: bir marta onasi Kaliforniya olxo‘risi olib keldi. Ikki marta qaynatma krem qilib berdi. Bular uning hayotidagi chinakam ajoyib hodisalar edi. Bularni u juda mammuniyat bilan eslardi. O‘sha vaqtarda onasi unga tansiq bir ovqat tayyorlab berishni va’da qilgandi. Onasi bu ovqatni „suzuvchi orol“ deb atardi. „Bu ovqat qaynatma kremdan ham shirinroq narsa“, degan edi onasi. O‘sha kunni Jonni ko‘p yillar kutdi. Bu umidi ham ko‘p boshqa shirin xayollari singari puchga chiqquncha, Jonni „suzuvchi orol“ qo‘yl-gan dasturxonga o‘tirishni uzoq yillar kutib yurdi.

Bir kun u ko‘chadan yigirma besh sentli tanga topib oldi. Bu ham uning hayotidagi yirik, hatto fojiali bir hodisa edi. Tanga uning ko‘zlariga yarqirab ko‘ringan zamonoq, u bu pulni nima qilishini o‘ylab qo‘ygan edi. Odatda, uyda yeydigan hech narsa bo‘lmaydi. Bu pulni o‘z oyligi kabi onasi-ga berishi kerak. Nima qilishi aniq, lekin Jonni hech qachon cho‘ntagida pul olib yurmagan, u shirinlikni juda sog‘inib qolgan edi. Yuragi ezilib konfet yegisi kelar, konfet yeyishga esa faqat biror tantanali kunlarda tuyassar bo‘lardi.

Jonni o‘zini aldamoqchi emasdi, gunoh ish qilayotgani ni bilardi, shunday bo‘lsa ham o‘n besh sentni yallo qilib sarfladi. O‘n sentini boshqa bir kunga saqlab qo‘ydi. Lekin pul saqlashga odatlanmaganidan, pulini yo‘qotib qo‘ydi. Bu baxtsizlik Jonni vijdon azobiga tushib yurgan paytlarda sodir bo‘ldi. U buni tasodifiy bir narsa emas, Xudoning qahriga uchradim, deb o‘yladi. Qahri kelgan ilohiy kuchning g‘azabiga uchrashi yaqinlashib kelayotganini sezdi. Gunohini Xudo ko‘rib turgan edi, gunoh qilishga sabab bo‘lgan pulidan ham mahrum qilib, Xudoning o‘zi unga jazo berdi.

Jonni bu hodisaga o‘zining birdan bir qilgan jinoyati deb qarardi. O‘sha gunohi har esiga tushganda vijdon azobi yangidan qiyndi. Bu uning jinoiy siri bo‘lib qoldi. Shu bilan birga Jonnidek odam bunday sharoitda afsuslanmay iloji yo‘q edi. Topib olgan pulni yaxshilab sarf qilolmagandan norozi edi. O‘sha pulga ko‘proq narsa olsa bo‘larkan; Xudoning bunday tez qahri kelishini bilganida yigirma besh sentning hammasini sarf qilib, Xudoni aldab qo‘ya qolgan bo‘lardi. O‘sha yigirma besh sentni u xayolida ming marta lab qayta-qayta sarf qilardi, har gal qilingan sarf bir-biridan o‘rinli bo‘lib chiqardi.

Bolaning qalbida otasining rahmsiz oyoqlari manguga qoldirgan, uzoq va tumanli o‘tmishdan qolgan yana bir esdalik bor. Bu voqeа esdalikdan ham ko‘ra ko‘proq dahshatli bir bosinqirashga, odamzodning tushiga kirib, bobo-yu bobokalonlari daraxtlarda yashagan zamonlarga olib ketadigan allaqanday qo‘rqinchli atavistik xotiralarga o‘xshagan bir narsa edi. Bu esdalik kunduzlari, Jonni uyg‘oq paytlarda sira xayoliga kelmasdi. Bu xotiralar uni kechasi, uyquga ketar paytlarda kelib bosardi. U qo‘rqib uyqusidan uyg‘onar, shunda dastlab karavotning oyoq tarafida ko‘ndalang yotganday tuyulardi. Karavotda otasi bilan onasining ko‘z ilg‘ar-ilg‘amas qorasi ko‘ziga ko‘ringandek bo‘lardi. Otasining qanday odamligi esida yo‘q edi. Otasining bir narsasi

esida qolgan: uning oyoqlari o'lgudek qattiq, turtgani-turtgan edi.

Uning yodida yosh bolalik vaqtlaridan ba'zi narsalar saqlanib qolgan, keyingi yillardan esa hech narsa qolmagan. Hamma kunlar bir xil edi. Xoh kechagi kunni, xoh o'tgan yilni ming yil desa ham, bir daqiqa desa ham bo'la-di. Hech qachon hech qanday hodisa ro'y bermasdi. Zamon yurishini belgilovchi biror hodisa ro'y bermasdi. Vaqt yurishini to'xtatgan, bir joyda turardi. Faqat tinib-tinchimagan mashinalar harakat qilar, lekin tobora tezroq aylansalarda, baribir hech qayerga jilmasdilar.

Jonnining yoshi o'n to'rtga kirganda kraxmal sexiga ishga o'tdi. Bu juda katta hodisa edi. Bu shunday katta hodisa ediki, uni bir kechada, hatto bir haftada ham unutib bo'lmashdi. Uning hayotida yangi davr boshlandi. Bu davr Jonni uchun bir olimpiadadek gap, yangi eraning boshlanishi edi. Endi Jonnining og'zidan: „Kraxmal sexiga o'tganimda“ yoki „Kraxmal sexida ishlay boshlaganimdan keyin“ yo „oldin“ degan so'zlar tushmay qoldi.

Jonni o'zining o'n oltiga to'lgan kunini, to'quv sexiga, to'quvchilik dastgohiga o'tish bilan nishonladi. Bu ishda ham manfaatdorlik bor edi, chunki ishlaganiga qarab haq to'lanardi. Jonni bu yerda ham o'zini ko'rsatdi, chunki fabrika sharoiti uni allaqachon takomillashgan mashinaga aylantirgan edi. Oradan uch oy o'tgach, u ikki dastgohda, so'ng uch, hatto to'rt dastgohda ishlaydigan bo'ldi.

Shu sexda ikki yil ishlagandan keyin u boshqa barcha ishchilarning har biridan ancha ko'proq mato to'qiydigan, o'ziga nisbatan kamroq epchil o'rtoqlariga qaraganda ikki baravar ortiqroq mahsulot beradigan bo'lib qoldi. Mana endi, butun kuchini sarf qilib ishlay boshlagach, uyda ham tirik-chilik yaxshilana bordi. Lekin shunday bo'lsa ham uning ish haqi oila ehtiyojini to'la qoplay olmasdi. Ukalari ulg'aydi, endi ko'proq ovqat yeishardi, maktabga qatnashardi, dars-

liklar esa pulga keladi. U qanchalik g‘ayrat bilan ishlagan sari narx-navo, tirikchilik ham nima uchundir tobora qimmatlasha borardi. Yiqilib ketay-yiqilib ketay deb turganiga qaramay, ijaraga olib turishgan uy haqi ham oshib ketdi.

Jonni katta bo‘lib qoldi, shu sababdan u yana ham origroq ko‘rinardi. Uning asablari juda buzilgan, o‘zi sirkasi suv ko‘tarmaydigan va serjahl bo‘lib qolgan edi. Bolalar achchiq tajribada ko‘rib, undan hayiqadigan va undan nariroq yuradigan bo‘lib qoldilar. Onasi oilaning boquvchisi deb uni hurmat qilar, shu bilan birga undan biroz qo‘rkar ham edi.

Uning hayotida sevinch degan narsa bo‘lmasdi. U kunduz yorug‘ini ko‘rmas, kechalari esa behalovat uxlardi. Qolgan vaqtini u ish bilan o‘tkazardi, uning ongi ham mashinaga o‘xshab qolgandi. Bundan tashqari, u hech narsani ko‘rmas, hech narsani bilmas edi. U hech narsaga qiziqmas, hech narsaga intilmasdi, faqat bitta shirin xayolga – har kuni ajoyib kofe ichaman, degan xomxayolga qattiq ishonardi. U ruhiy hayotdan mahrum bir ish hayvoni bo‘lib qolgandi. Qayerdadir, ongingin bir burchagida, uning o‘zi ham sezmagan holda, qilgan ishlarining har bir soatidan, har bir harakatidan allaqanday bir asar yig‘ilib qola boshladiki, bularning hammasi yig‘ilib, uning o‘zini ham, kichkina dunyosini ham hayron qoldirgan oqibatga olib keldi.

Bir kuni, kech ko‘klam chog‘ida, Jonni ishdan odatdagidan ham ko‘ra charchagan holda qaytdi. Dasturxon yonida o‘tirganlarning juda vaqt chog‘ edi. Lekin u hech narsa sezmadidi. U jim va qovog‘i soliq holda o‘tirib, apiltapil ovqat yedi. Bolalar esa hay-haylashib, tomoqlarini taqillatib maza qilganlarini bildirishar edi. Lekin Jonni hech narsa sezmadidi.

– Nima yeayotganining bilasanmi? – deb so‘radi ni-hoyat, sabri chidamagan onasi. U tovoqqa parishonlik bilan ko‘z tashladi, keyin onasiga qaradi.

– „Suzuvchi orol“, – dedi onasi g‘urur bilan.

- Ha-a, – dedi Jonni beparvogina.
- „Suzuvchi orol!“ – deb baravar qichqirishdi bolalar.
- Ha-a, – deb takrorladi u va yana bir-ikki qoshiq ovqat ichgandan keyin: – Nima uchundir bugun ovqat yegim kelmayapti, – deb qo'shib qo'ydi.

U qoshig'ini qo'yib, stulni nari surdi-da, bazo'r o'midan turdi.

- Men biroz yotay.

Oshxonadan chiqarkan, Jonni oyog'ini odatdagidan ham madorsizlik bilan zo'rg'a sudrab bosardi. Yechinish undan ham qiyin bo'lib ketdi. Holsizlikdan yig'lab yubordi va bir oyog'idagi boshmog'ini yechmay, o'rniga yotdi. Uning boshida allaqanday shish paydo bo'lгandek, u tobora o'sib ketayotgandek tuyular, bundan esa fikrlari sochilib borardi. Uning ingichka barmoqlari xuddi bilagiday yo'g'on tortib ketgandek, barmoqlarining uchi esa paxtadek yumshoq tuyular, fikrlari singari barmoqlari ham itoat qilmasdi. Beli zirqirab og'rirdi, hamma suyaklari sirqirardi, a'zoyi badani qaqlashi. Miyasida millionlab mashinalar chiyillashar, guvullashar va g'ijirlashardi. Butun borliqni to'xtovsiz yugurib turgan mokilar bosib ketganday. Uylar yarqirab turgan yulduzlar orasida u yoqdan bu yoqqa gir aylanishadi. Uning yakka o'zi minglab dastgohni boshqaradi, dastgohlar esa borgan sari tezroq ishlar, mokilar tobora tezroq aylanardi, uning miyasi esa tobora tezroq cho'zilib, ingichka ipga aylanib borar, bu ipni esa minglab dastgohlar duglarga o'rab, tortib ketmoqda edi.

Ertasi kuni Jonni ishga bormadi. U boshqa ish bilan, uning miyasida guvullayotgan minglab dastgohlar bilan band bo'lib qoldi. Onasi fabrikaga ketdi, ammo oldin doktorga odam yubordi. Doktor, Jonni qattiq tumov bo'libdi, dedi. Akasiga Jenni qarab turdi, doktor aytganlarining hammasini qildi.

Kasali og'ir ko'chdi, faqat bir haftadan keyingga Jonni kiyinib, uy ichida gandiraklab zo'rg'a yura boshladi. Yana

bir haftadan keyin ishga chiqsa bo'ladi, dedi vrach. Yakshanba kuni to'quvchilik sexining ustasi uni ko'rgani keldi. O'sha kuni Jonni ancha yengillashgan edi.

— Sexdag'i eng yaxshi to'quvchimiz shu, — dedi usta Jonning onasiga. — O'rniga hech kimni olmay turamiz. Yana bir haftadan keyin, yanagi dushanbaga ishga chiqsa ham bo'ladi.

— Hech bo'lmasa rahmat ham demaysan, Jonni, — dedi tashvishlanib ona. — Ahvoli shu qadar og'ir ko'chdiki, haligacha o'ziga kelgani yo'q, — deb tushuntirdi u ustaga.

Jonni bukchayganicha yerga tikilib o'tirar edi. Usta ketganidan keyin ham u ancha vaqtgacha shu vaziyatda o'tirdi. Tashqarida qorong'i tushdi, ovqatdan keyin Jonni biroz o'tirish uchun eshik oldiga chiqdi. Ba'zan uning lablari qimirlar edi. Uning miyasi son-sanoqsiz hisob bilan banddek tuyulardi.

Ertasiga havo isigan edi, u yana eshik oldiga chiqib o'tirdi. Uning qo'lida qalam bilan qog'oz bor edi. U anchangacha zo'r berib nimalarnidir hisoblab o'tirdi.

— Milliondan keyin nima keladi? — deb so'radi u choshgohda Villi mактабдан qaytib kelgandan keyin. — Uni qanday sanashadi?

Kechga borib hisob-kitobni tamom qildi. U endi har kuni qog'oz-qalamsiz, eshik oldiga chiqib o'tirardi. U ko'chaning narigi tomonida o'sgan yakka-yolgiz daraxtga uzoq tikilib o'tirardi. U, bu daraxtni soatlab kuzatar va, ayniqla, shamoldan shoxlari qimirlaganda, barglari shitirlaganda chuqur qiziqish bilan kuzatar edi. Bu haftani u xuddi o'z-o'zi bilan suhabat qilayotganday bir tarzda o'tkazdi. Yakshanba kuni u eshik oldida o'tirarkan, ko'p yillardan beri katta o'g'lining kulganini eshitmagan onasini zo'r tashvishga solib, bir necha marta xaxolab kulib ham yubordi.

Ertasiga dushanba kuni onasi Jonnini uyg'otish uchun karavoti oldiga keldi. Kasal bo'lgandan beri Jonni uyqu-

ga to‘yib olgandi, shuning uchun u qistatib o‘tirmadi, darrov uyg‘ondi. U onasini qiynamadi, ilgarigidek ko‘rpaga yopishmadni, u tinch yotar edi.

– Ovora bo‘lma, oyijon, – dedi u xotirjamlik bilan.

– Voy, kechga qolasan, axir, – dedi onasi, uni hali uyqudan turmagan gumon qilib.

– Uxlayotganim yo‘q, oyi, bekorga ovora bo‘lyapsan.

Yaxshisi, meni o‘z holimga qo‘y. Baribir turmayman.

– Ishdan ajrab qolasan, axir! – dedi onasi.

– Turmayman, dedim-ku, – deb takrorladi Jonni, ovozi ham allaqanday yot va sovuq edi.

O‘sha kuni onasining o‘zi ham ishga bormadi. Bolaning kasali ma’lum bo‘lgan kasallarning hammasidan ham batтароq edi. Ona bezgakni, bosinqirash kasallarini ko‘rgan, lekin bu jinnilik-ku. Ona o‘g‘lining ustini o‘rab qo‘ydi-da, qizini doktorga yubordi.

Doktor kelganda, Jonni tinchgina uxbab yotar edi. U o‘shanday tinchgina uyg‘ondi, doktor uning tomirlarini ushlab ko‘rdi.

– Hechqisi yo‘q, – dedi doktor. – Bolangiz juda zaiflashib qolgan, albatta. Qoq suyag-u terisi qolibdi.

– U hamma vaqt ham shunday edi, – dedi onasi.

– Bor endi, oyijon, men bir uxbab olay.

Jonni buni juda beozor va muloyimlik bilan aytdi. Xudi shu tarzda beparvo holda yonboshiga ag‘darildi-da, yana uyquga ketdi.

Soat o‘nda uyqusidan uyg‘ondi va o‘rnidan turib, oshxonaga chiqdi. Onasi unga cho‘chib qaradi.

– Men ketyapman, oyi, – dedi u, – kel, xayrlashaylik.

Ona peshbandi bilan yuzini bekitdi, stulga o‘tirdi-da, yig‘lab yubordi.

Jonni sabr bilan kutib turdi.

– Qanday kunlarga qoldim! – dedi nihoyat, ko‘zyoshi ni oqizib turib ona. Keyin peshbandini tushirib, qo‘rquv

aralash Jonniga qaradi. Uning qarashida hatto qiziqish ham yo‘q edi. – Axir, qayoqqa borasan?

– Bilmayman... biror joyga ketarman.

Ko‘chaning narigi tomonida o‘sigan yolg‘iz daraxt Jonnining ko‘z oldiga keldi. Bu daraxt uning miyasiga shunday qattiq o‘rnashib qolgan ediki, u istagan vaqtda daraxtni tasavvur qila olardi.

– Ishing nima bo‘ladi? – deb titroq tovush bilan so‘radi ona.

– Endi ishlaymayman.

– Nimalar deyapsan, Jonni! – dedi onasi. – Senga nima bo‘ldi o‘zi?

Ona o‘g‘lining gapini kufrga yo‘ydi. O‘g‘lining Xudoga qarshi aytgan so‘zi dindor onani qanday dahshatga solsa, Jonnining gaplari ham onaning kayfini xuddi o‘shanday uchirib yubordi.

– Axir, senga nima bo‘ldi, – dedi u o‘z hukmini o‘tkazishga sal bo‘lsa ham tirishib ko‘rib.

– Raqamlar, raqamlar... – deb javob berdi u. – Raqamlar, xolos. Men keyingi hafta ichida rosa hisoblab ko‘rdim, o‘zim ham hayron qoldim.

– Tushunmayapman, raqamlaring nimasi? – dedi yig‘-lamsirab ona.

Jonni toqat bilan iljaydi. Onasi undagi asabiylik mutlaqo yo‘q bo‘lib ketganidan hayron qoldi.

– Hozir tushuntirib beraman, – dedi u. – Men tinkam qurib, ishdan chiqib qoldim, nima sababdan? Harakatdan. Tug‘ilgan kunimdan beri harakat qilaman. Juda charchadim, ortiq qimirlashga toqatim yo‘q. Shisha zavodida qanday ishlaganim esingdami? Har kuni uch yuz dujina shishani qo‘ldan o‘tkazardim. Hisobimga ko‘ra har bir shisha o‘n marta harakat qilishni talab etadi. Bu har kun o‘ttiz olti ming harakat degan so‘z. O‘n kunda uch yuz oltmis ming, bir oyda bir million sakson ming harakat bo‘ladi. Sakson

mingni hatto olib tashlay qoling, – dedi u saxiylik bilan. – O'shanda ham oyiga bir million yoki yiliga o'n ikki million harakat bo'ladi. To'qimachilik dastgohi yonida men ikki martaba ko'p harakat qildim, bu bir yiliga yigirma besh million harakat bo'ladi. Nazarimda, men million yildan beri to'xtovsiz harakat qilayotgandekman.

Mana shu hafta ichida men hech qanday harakat qilmadim, ba'zan bir necha soatlab mutlaqo harakatsiz o'tirdim. Ishlamasdan, bekor o'tirish, shunday jum o'tirish qanday yaxshi! Men shu choqqacha baxt nima ekanligini bilmadim. Hech qachon bo'sh qolmaganman. Butun umrim harakatda bo'ldi. Bunda qanday shodlik bo'lsin? Endi ishlamayman. Hamma vaqt mana shunday o'tiraman, doim dam olaman... keyin yana dam olaman.

– Villi, boshqa ukalaring nima bo'ladi? – deb ojizlik bilan so'radi ona.

– Ha-ya, Villi, ukalarim... – deb takrorladi u.

Uning ovozida o'kinch yo'q edi. Onasining kichik ukasidan umidi zo'r ekanini Jonni ko'pdan beri bilardi, lekin hozir unga bu ham alam qilmadi, endi unga baribir edi.

– Oyi, Villini nima qilmoqchi bo'lib yurganingni bila-man. U mакtabni bitirib, hisobchi bo'lishini istaysan. E-e, bas endi. Boshqa ishlamayman. Endi u ishlasin.

– Men esa seni parvarish qilib voyaga yetkazdim, oqibat shu bo'ldimi? – dedi-da, onasi yana yig'lab yuborib, peshbandini ko'tardi-yu, ammo yuzini bekitmadi.

– Meni sen o'stirgan emassan, – dedi Jonni yuvoshgina va g'amginlik bilan. – Men o'zimni o'zim o'stirdim. Villini ham men o'stirdim. U mendan baquvvatroq, sog'lomroq va balandroq. Men yoshligimdan boshlab to'yib ovqat yemadim. Undan keyin, Villi och qolmasin, deb ham ishladi. Endi bas. Endi menga o'xshab Villi ishlasin, ishlamasa – ochdan o'lsin, menga baribir. Bo'ladiganim bo'ldi. Men endi ketaman...

Ona javob bermadi. U yuzini peshbandi bilan bekitib, yana yig'ladi. Jonni eshik oldida biroz to'xtadi.

— Axir, men qo'limdan kelganini qildim-ku, — dedi ona ko'zyoshlarini oqizib.

Jonni uydan chiqdi-da, ko'chadan yurib ketdi. Yolg'iz turgan daraxtga qarab, sekin iljayib qo'ydi.

— Endi hech ishlamayman, — dedi u o'z-o'ziga asta va qiroat bilan. Keyin o'ychan holda osmonga qaradi-yu, ko'zini yumi: quyosh shu'lasi ko'zlarini qamashtirdi.

Uning bosadigan yo'li uzoq, lekin u shoshilmasdi. Mana, jun fabrikasi. Qulog'iga to'quvchilik sexining guvul-lagan shovqini eshitildi. U iljayib qo'ydi. Bu yuvoshgina va muloyim tabassum edi. U hech narsadan gina qilmas, hech narsadan keki yo'q edi, hatto taqirlayotgan va g'ijir- layotgan mashinalarga qarshi ham unda nafrat hissi yo'q edi. Ko'nglida alam, armon yo'q, uning birdan bir orzusi, cheksiz istagi orom olish edi.

Shahardan tashqari chiqqan sari keng dalalar yoyilib borardi. Fabrikalar, uylar siyraklashib borib, oxiri shahar orqada qoldi. U temiryo'l yoqalab salqin xiyobondan borardi. Uning qadam tashlashi odamning qadam tashlashiga o'xshamas, umuman, o'zi ham odamga o'xshamasdi, u odamning kulgili bir tasviri, holdan toygan, abjaq bo'lган bir maxluqqa o'xshardi. Xuddi kasal maymundek, qo'llari ikki yoniga osilgan, bukchaygan, ko'krak qafasi tor, dah-shatli bir vujud gandiraklab borardi.

Kichik bir temiryo'l bekti oldidan o'tib, daraxt os-tidagi maysaga cho'zildi. U kun bo'yi o'sha yerda yotdi. Vaqtı-vaqtı bilan u uyquga ketar va uyqusida muskullari irg'ib-irg'ib ketardi. Uyqudan ko'zini ochib, yana qimir etmay yotar, qushlarni kuzatar yoki boshi ustidagi shoxlar orasidan osmonga qarardi. Bir-ikki marta u hech qanday sabbsiz xaxolab kuldı ham.

G'ira-shira quyuqlashib, hamma yoqni qorong'ilik bos-

ganda, shovqin-suron solib bekatga yuk poyezdi kelib qoldi. Parovoz vagonlarning bir qismini zaxira yo‘lga o‘tkazib bo‘lguncha, Jonni sekingina poyezdga yaqinlashdi. U bo‘sh vagonlardan birining eshigini ochdi-da, bir amallab vagon ichiga kirib oldi. Keyin vagonning eshigini yopdi. Parovoz hushtak berdi. Jonni qorong‘ida qimirlamay yotar va iljayar edi.

SHIMOL ODISSEYASI

Chanalarning g‘ijirlashi tinmas, oldingi safda borayotgan itlarga taqilgan qo‘ng‘iroqchalar jiringlardi; lekin itlar ham, odamlar ham juda charchagan, shu sababdan indamay borardilar. Ular uzoqdan kelishardi, yaqinda yog‘gan qordan keyin esa hali yo‘l ochilmagandi, muzlagan bug‘u go‘shti ortilgan chanalar yumshoq qordan zo‘rg‘a sudralib borar va tinimsiz orqaga tortardi. Qorong‘i tushib kelaverdi, lekin yo‘lovchilar bu kecha tunashga to‘xtamoqchi emaslar. Sokin havoda qor urib turardi, ammo u yirik emas, maydalab yog‘ib turardi, kun deyarli iliq, bor-yo‘g‘i o‘n darajagina sovuq edi. Mayres bilan Bettlz qulochchinlarini ko‘tarib oldilar, Meylmyut Kid esa hatto qo‘lqopini ham yechib qo‘ydi.

Itlar tush paytidayoq charchab qolishgan, lekin hozir, nechukdir, yangidan kuchga kirib ketishdi. Itlarning eng sezgirlari allaqanday chidamsizlik ko‘rsata boshladilar: ular toqatsizlik bilan chana qayishlarini siltab tortar, havoni hidlar, qulqlarini ding qilishardi. Ular o‘zlarining beparvo birodarlaridan xunob bo‘lar va ularning orqa oyoqlaridan tishlab, tezroq yurishga undar edilar. Bulari ham o‘z navbatida bezovta bo‘lib qolishar va xuddi shu tarzda oldindagilarini qistar edi. Nihoyat, oldingi chanaga qo‘shilgan yetakchi it shodlik bilan vangillab yubordi-da, ildamroq harakat qilib, oldinga intildi. Qolganlari uning orqasidan ergashdi. Qayishlar tarang tortildi, chanalar tez-

roq yurib ketdi. Odamlar esa chana yog‘ochlariga yopishib, orqadan tez kelayotgan chanalar ostida qolmaslik uchun qadamlarini tezlatdilar. Kunduzgi charchoqdan asar ham qolmadi. Odamlar hay-haylashib itlarga dalda berardilar, itlar esa bunga quvonchli vovullash bilan javob qaytarib, quyuqlashib borayotgan qorong‘ilikda jon kuydirib yugurardilar. Chanalar izdan chiqib, xuddi shamol kuchi bilan bir tomonga og‘ib ketayotgan kema singari qiyshayib, ag‘darilay deganda odamlar:

– Hay-hay! – deb baravariga hay-haylashardilar.

Mana, yog‘li qog‘oz yopishtirilgan derazasidan yorug‘ tushib turgan issiq uy, o‘t yonib turgan o‘choq hamda qaynab turgan choy yaqinligidan darak berayotgan uygaga yetishlariga bor-yo‘g‘i yuz yardcha qoldi. Lekin uy band ekan. Elliktacha eskimos itlari vovullashib, oldingi chanalarga qo‘silgan itlarga tashlanishdi. Eshik katta ochilib, uydan shimoli-g‘arb polismenlari kiyadigan qizil mundirli bir kishi chiqdi. U tizzadan qorga botib, jig‘ibiyroni chiqqan itlar orasiga kirdi-da, sovuqqonlik bilan qamchi dastasini ishga solib, darrov tartib o‘rnatdi. Keyin erkaklar qo‘l berib ko‘rishdilar, shunday bo‘lib chiqdiki, Meylmyut Kidni o‘z uyida begona bir odam mehmondek kutib oldi.

Uni qarshi olishi, uyni isitib, choy qaynatib qo‘yishi kerak bo‘lgan Stenli Prins mehmonlar bilan band, ular o‘n-o‘n ikki kishi bo‘lib, har xil odamlar – ammo hammalari ham qirolicha xizmatidagi kishilar: ba’zilari qirolicha qonunlarini himoya qiluvchilar bo‘lib, ba’zilari esa pochtaleyon va kuryer vazifalarini ado etuvchilar sifatida xizmat qilardilar. Ular har xil millatdan, lekin kechirgan turmush sharoitlari ularni ma’lum bir turdag'i odamlar guruhiga – ozg‘in, chidamli, chayir, yuzlari quyoshda qoraygan, qarashlari muloyim, tabiatlari yumshoq kishilarga aylantirib yuborgan edi. Bu odamlar qirolichaning itlari qo‘silgan chanalarda yurardilar, qirolichaning dushmanlari yuragiga qo‘rqinch solardi-

lar va qirolicha in'om etgan ozgina xayr-saxovat bilan tirik-chilik qillardilar-u, o'z turmushlaridan zorlanmasdilar.

Ular ko'pni ko'rgan, qahramonliklar ko'rsatgan, hayotlari har xil ajoyib sarguzashtlarga to'la edi-yu, lekin buni o'zlarini sezmasdilar. Ular bu yerda o'zlarini o'z uyidagidek erkin tutardilar. Ulardan ikkitasi Meylmyut Kidning karavotiga cho'zilib olib, bu yerga eng oldin kelgan va hindu qizlari-ga uylangan fransuz ota-bobolari aytib yurgan ashulalardan aytmoqda edilar. Bettlnzing karavotiga ham uchtami-to'rtta *Voyageurs*¹ chiqib olibdi, ular oyoqlarini ko'rpa ostiga olib, Xartum qamali vaqtida Vulzli qo'mondonligi ostida xizmat qilgan bir o'rtoqlarining hikoyasini tinglashmoqda.

U so'zini tugatgandan keyin kovboylardan biri Buffalo Bill bilan birga Yevropa poytaxtlariga sayohat qilgan vaqt-larida ko'rgan saroy hayoti, qirollar va qasrlar, lordlar va xonimlar haqida hikoya qilib ketdi. Uyning burchagida ikki metis jabduqlarni yamar ekan, o'zaro shimoli-g'arbni qo'zgolon alangasi qoplagan va Lui Riel qirol bo'lgan zamonalarni eslab, gurunglashib o'tirardilar.

Tez-tez dag'al hazil-huzil gaplar va askiyanamo qochiriqlar eshitilib turar; quruqlik va dengizda yuz bergen ajoyib sarguzashtlarni kunda bo'lib turadigan oddiy narsalardek hikoya qillardilar, o'shanda ham biror o'tkir so'z yoki kulgili hodisani eslash uchungina so'zlab berardilar. Ajoyib hodisalarning jonli shohidi bo'lган, lekin buyuk va romantik voqealarga hayotning oddiy hodisasi deb qaraydigan bu dong'i chiqmagan qahramonlarga Prins juda qiziqib qolgan edi. Haddan tashqari xotamtoyligi tutib ketgan Prins o'zining juda o'lchoqli tamakisini ayamadi, uning bu saxiyligi evaziga xotiraning zanglagan chigal zanjirlari yechilib, allaqachon yoddan ko'tarilib ketgan odisseyalarga jon kira boshladi.

¹ *Voyageurs* – kasbi yo'lboslovchilik bo'lган kishilar, bular kanadalik fransuzlardan bo'lardi.

Hamma gaplar tamom bo‘lib, yo‘lovchilar so‘nggi marta trubkalariga tamaki to‘ldirib, yung qoplarini yoza boshlaganlarida, Prins izoh so‘rab, o‘z do‘stiga murojaat qildi:

– Kovboyning qanday odam bo‘lishini o‘zing ham bilasan, – deb javob berdi Meylmyut Kid, mokasinini yecha turib, – karavotda birga yotgan o‘rtog‘ining tomirlarida esa ingliz qoni oqayotgani sezilib turibdi.

Qolganlariga kelsak, ularning hammasi *couzeuzsdu bois*¹ ning avlodlari, ularning qoni, Xudo bilsin, yana qanday qon bilan qo‘silib ketgan ekan. Eshik oldida turgan anavi ikkisi haqiqiy *bois bzules*². Bo‘yniga sharf o‘ragan anavi yigitning onasi turgan, tutun bosgan vigvamida qachonlardir shotlandiyalik yigit mehmon bo‘lgani ko‘rinib turibdi, uning qoshlari bilan pastki jag‘iga e’tibor qil. Shinelini boshiga yostiq qilib olayotgan mana bu chiroyli yigit fransuz metisi. Gapirganda talaffuziga e’tibor berdingmi? Yonida yotgan anavi hindularni uncha nazariga ilmay qaraydi. Men senga aystsam, metislar Riel boshchiliga qo‘zg‘olon ko‘targanlarida, asl hindular ularga ko‘mak bermadilar. O’shandan beri bular bir-birlarini yoqtirmaydi.

– Xo‘s, pechka oldidagi anavi qovog‘i soliq kim? U ingliz tilini bilmaydi, shekilli, shu vaqtgacha hatto og‘zini ham ochgani yo‘q.

– Yanglishding. U ingliz tilini juda yaxshi biladi. Gapga qulqoq solganida ko‘zlariga qaradingmi? Men qarab turdim. Lekin mana bu o‘tirganlarning hammasiga ham yot bo‘lsa kerak. Gap shevalarda bo‘lganda, u tushunmagani bilindi. Uning kimligini o‘zim ham bilolmay turibman. Kel, bilishga harakat qilib ko‘ramiz... Pechkaga ikkita o‘tin tashlab qo‘ysang-chi, –

¹ *Couzeuzsdu bois* – trapperlar, ovchilar.

² *Bois bzules* – aynan tarjimasi kuygan daraxt (*fran.*). Kanadada eng oldin ko‘chib kelgan fransuzlarni shunday deb atardilar, ular, ayniqsa, Kanada, Angliyaga o‘tgandan keyin o‘rmonlarda ovchilik qilardilar.

dedi u, baland ovoz bilan notanish yigitning ko‘ziga tikilib turib.

Yigit darhol buyruqni bajo etishga kirishdi.

– Uni qayerdadir intizomga o‘rgatib qo‘yanlar, – deb qo‘ydi Prins ohista.

Meylmyut Kid buni tasdiqlab bosh irg‘adi, keyin pay-pog‘ini yechdi-da, yerda yotgan odamlar orasidan o‘tib, pechkaga qarab yurdi. U pechka atrofiga yoyib qo‘yilgan o‘nlab paypoqlar qatoriga o‘zinikini ham yoyib qo‘ydi.

– Dousonga qachon yetib bormoqchisiz? – deb tavakka-liga so‘radi u yigitdan.

Notanish yigit boshida unga diqqat bilan tikilib qara-di-da, keyin javob berdi:

– Aytishlariga qaraganda, hali yetmish mil yo‘l bor emish. Shundaymi? Yana ikki kundan keyin borsak kerak.

U sezilar-sezilmas aksent bilan, lekin qiyalmay, so‘z axtarib o‘tirmay gapirardi.

– Siz bu tomonlarga ilgari kelganmidingiz?

– Yo‘q.

– Shimoli-g‘arb tomondanmisiz?

– Ha.

– O‘sha yerlikmisiz?

– Yo‘q.

– Unday bo‘lsa, qayerda tug‘ilgansiz, axir? Bulardan emasligingiz ko‘rinib turibdi, – deb Kid qo‘li bilan it hay-dovchilarni va Prinsning ko‘rpasiga kirib yotgan ikkita polismenni ko‘rsatdi. – Qayoqdan kelgansiz? Ilgari sizga o‘xshagan odamni ko‘rganman, lekin qayerda ko‘rganim esimda yo‘q.

– Men sizni taniyman, – deb qoldi birdan notanish yigit, paydar-pay berilayotgan savollarni kesib.

– Qayoqdan taniysiz? Ilgari uchratganmidingiz meni?

– Yo‘q. Lekin Pastilikada bir ruhoni y siz to‘g‘ringizda gapirib bergen edi. Bunga ko‘p vaqtlar bo‘ldi. U men-

dan, Melmyut Kidni taniysanmi, deb so'ragandi. U menga oziq-ovqat berdi. Men u yerda ko'p turmadim. U sizga men to'g'rimda gapirib bergandir?

– Ha, bunday deng. Suvsar terisini itga ayirboshlab yur-gan odam sizmidingiz?

Notanish yigit tasdiq ishorasini qildi va trubkasini qoqib tozaladi-da, gap tamom, degan ma'noda o'zining jun adyo-liga o'ralib yotib oldi. Meylmyut Kid chiroqni o'chirib, Prins bilan birga adyolga kirib yotdi.

– Qani, kim ekan u?

– Bilmayman. Gapimni shartta kesdi-da, xuddi tosh-baqa singari boshini yashirib oldi. Ammo bu g'alati yigit. Men bu yigit haqida uncha-muncha eshitganman. Bunde dan sakkiz yil ilgari u sohilda yashovchilarining hamma-sini hayron qoldirdi. Qiziq bir jumboqqa o'xshaydi, Xudo haqi. Qahraton qish paytida u Shimol tomondan keldi va xuddi orqasidan yov quvayotganday nimagadir shoshilar-di. Bu Bering dengizi qirg'oqlarida, bu yerdan ming millab uzoqda edi. Uning qayoqdan kelganini hech kim bilmashi, har holda, juda uzoqdan kelgan bo'lsa kerak. Golovin buxtasida u shved missioneridan oziq-ovqat olgan, shunda uning ko'rinishi juda ayanchli, o'zi g'oyat holdan toygan ekan. U janubga boradigan yo'lni so'ragan, buni biz keyin bildik. Buxtadan u to'ppa-to'g'ri Norton bo'g'ozni orqali ketgan. Ob-havo juda yomon edi, qor bo'ronlari, kuchli shamollar bo'lib turardi, u esa bunga parvo ham qilmadi. Bunday xavfli safarda bo'lganlarning mingdan biri sog' qaytadi. Salomat qaytgan ana shu bo'lgan. U Sent Maykl portiga borolmagan, balki, Pastiliqa yonidagi qirg'oqqa yetib olgan.

– Shu yerga yetib kelganda ixtiyorida ikkitagina it qol-gan, o'zi esa ochlikdan o'layozgan ekan.

U yo'lga chiqishga oshiqib turganda, Rubo ota oziq-ovqat beribdi, lekin ota ketishiga it bermabdi, chunki o'zi

yo‘lga tushishga hozirlanib, mening kelishimni kutib turgan ekan. Bu odam shimolda itsiz sayohat qilish qanday qiyinligini yaxshi bilganidan beri necha kungacha yo‘lga chiqolmay juda tashvish tortgan. Uning chanasida yaxshi iylangan dengiz suvsarlari terisi uyulib yotgan ekan, bunday suvsar terisi, bilsang, oltin bahosida yuradi. Xuddi o‘sha vaqtarda Pastilikada rus savdogari qiyofasidagi bir keksa Sheylok yashardi, unda itdan ko‘pi yo‘q edi. Ular ko‘p savdolashib o‘tirmay, ishni bitiribdilar-u, anavi tentak yana janubga qarab jo‘nab ketibdi. Uning chanasini o‘ntacha juda yaxshi it tortib ketibdi, mister Sheylok esa suvsar terilariga xo‘jayin bo‘lib qolibdi. O‘sha terilarni o‘zim ko‘rganman – juda asl ekan. Hisoblab ko‘rsak, har bitta teridan Sheylok besh yuz dollar foyda qilibdi. Mister Uliss terining bahosini bilmaydi, deb o‘ylamay ham qo‘ya qol, uning o‘zi hindu bo‘lsa ham, gapidan oqlar orasida yashagani bilinib turibdi.

Dengiz muzdan tozalangandan keyin bilsak, u Nuni-vak orolida oziq-ovqat g‘amlayotgan ekan. Keyin zim-ziyo bo‘lib ketdi. Sakkiz yilgacha undan dom-darak bo‘lmadi. U qayoqdan keldiykin, bu tomonlarga yana nima uchun keldiykin? U – hindu; hozir qayerlardan kelayotgani noma’lum, lekin u intizomli odam ekani sezilib turadi, bu esa hinduga juda ham xos bo‘lmagan bir xislat. Mana, Shimolning yana bir jumbog‘i, qani, Prins, yechib ko‘rchi uni.

– Ko‘p rahmat! O‘zimniki ham boshimdan oshib yotib-di! – deb javob berdi Prins.

Meylmyut Kid xurrak ota boshladi, lekin yosh tog‘ muhandisi ko‘z yummay quyuq qorong‘ilikka qarab yotar va o‘zini bosgan hayajonning bosilishini kutardi. Keyin u uyquga ketdi, lekin miyasi ishslashda davom etdi: xayolida allaqanday poyonsiz qorli o‘lkalarda adashib yurdi, uzoq safarlar vaqtida itlar bilan g‘oyat og‘ir yo‘llarni bosib, qor dovonlarni oshdi, tushida haqiqiy odamlarga xos hayot bi-

lan yashayotgan, mehnat qilayotgan va dunyodan o'tayotgan kishilarni ko'rib chiqdi.

Ertasi sahar paytida kuryerlar va polismenlar Dousonga jo'nadilar. Qirolicha janobi oliylarining manfaatlarni himoya va kichkina odamlarning taqdirini hal qiluvchi hukumat amaldorlari kuryerlarga dam oldirib qo'ymadilar. Bir haftadan keyin ular og'ir pochta yuklari ortgan holda yana Styuart daryosi sohillarida paydo bo'lib qoldilar. Bu yuklarni ular Sho'rsuvga yetkazishlari kerak edi. To'g'ri, itlar yangilangan, lekin odamlar o'sha-ku.

Odamlar ozgina bo'lsa ham dam olishni orzu qilardilar. Bundan tashqari, Klondayk Shimoldagi yangi markaz edi, odamlar oltin suvdek oqadigan va tansa zallarida to'xtovsiz o'yin-kulgi bo'ladigan Oltin Shaharda biroz yashamoqni orzu qilar edilar. Lekin ular hozir ham birinchi kelganlaridagidek, paypoqlarini quritib, maza qilib trubka chekib o'tirdilar. Bir nechta dovyuraklar bu yerdan qochib, sharq tomondag'i hali tekshirilmagan qoyali tog'lardan kesib o'tishni, u yerdan Makkenzi vodiysi orqali o'z vatanlariga – Chippeva hindulari o'lkasiga yetib olishni orzu qilardilar. Ikki-uch kishi xizmat muddati tugagandan keyin xuddi ana shu yo'l bilan uyga qaytishga qaror qildilar. Shaharliklar dam olish kuni o'rmon sayriga chiqishga qanday sevinsa, ular ham mana bu xatarli safarni o'shanday zavq bilan o'ylardilar.

Suvsar terilarining sobiq egasi negadir bezovtadek ko'rinar va gapga aralashmasdi. Keyin u Meylmyut Kidni bir chekkaga chaqirib olib, u bilan anchagacha gaplashdi. Prins ularni qiziqib kuzatib turdi. Ular qulqoqchin va qo'lqoplarini kiyib tashqariga chiqqanlarida, jumboq yana ham chalkashgandek tuyuldi. Meylmyut Kid qaytib kirib, oltin o'lhash uchun o'rtaga tarozi qo'ydi. Oltmisht unsiya oltinni o'lchab, notanish yigitning xaltasiga soldi. Undan keyin it haydovchilarning boshlig'i ham kengashga chaqirildi. U bilan ham shu xilda bitim tuzildi. Kelasi kun odamlarning

hammasi daryo bo‘ylab yuqoriga jo‘nadi, suvsar terilari-ning sobiq egasi esa biroz oziq-ovqat olib, Douson tomon-
ga qaytib ketdi.

– Hech narsaga tushunolmay qoldim, – deb javob ber-di Meylmyut Kid Prinsning savoliga. – Bechora xizmatdan bo‘shashga qat’iy qaror qilibdi. Xizmatdan bo‘shash unga juda ham zarur bo‘lsa kerak, lekin sababini aytmadidi. Bilasan-mi, bu ham harbiy xizmatga o‘xshagan bir ishda; u ikki yil ishslash majburiyatini olgan. Muddatidan ilgari bo‘shamoq-chi bo‘lgan kishi pul to‘lashi kerak. Bordi-yu qochib ketsa, bu yerlarda qolishi mumkin emas. Lekin mana shu o‘lkada qolish nima uchundir unga juda zarur ko‘rinadi. Douson-dayoq shunga ahd qilibdi-yu, lekin cho‘ntagida bir tiyin ham puli yo‘q ekan, u yerda uni hech kim tanimas ekan. U bilan bir-ikki og‘iz gaplashgan birdan bir odam men ekanman. Shunday qilib, u boshliqlar bilan gaplashgan, ijozat olgan, agar u mendan qarzga pul ololsa, xizmatdan bo‘shashi mum-
kin ekan. Bir yil ichida qarzini uzishga va’da qildi – agar istasam, u juda ko‘p boylik saqlangan joyni ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. U boylikni o‘zi ko‘rmagan, lekin shunday joy borli-giga qat’iy ishonar ekan.

Tashqariga chiqqanimizda, u yig‘lamoqdan beri bo‘lib gapirdi. Iltimos qildi, yalindi, oyog‘imga yiqilib qor ustida yumaladi. Men uni turg‘azib qo‘ydim. Xuddi jinniga o‘xshab allanimalar deb aljiraydi. Mana shu maqsadim-ga yetmoq uchun yillar bo‘yi ishladim, endi shu fursatni qo‘ldan bersam, o‘kinch va g‘amdan ado bo‘laman, deb qasamlar ichdi. Qanday maqsading bor, deb so‘radim, lekin javob bermadi. Faqat: „Meni o‘lkaning boshqa bir tomoniga jo‘natib yuborsalar, Dousonga ikki yilsiz qaytib kelolmay-man, ikki yildan keyin fursat qo‘ldan ketadi, men shundan qo‘rqaman“, deb arz qildi. Odamning bunday hayajonga tushganini umrimda ko‘rgan emasman. Qarz berishga rozi ekanimni aytganimda, yana oyog‘im ostiga yiqildi, uni yana

qor ichidan tortib olishga, o'rnidan turg'azishga to'g'ri keldi. „Meni ham o'zingga sherik deb qo'ya qol“, dedim, qayqdada deysiz, hech unamadi. Topganimning hammasini sizga beraman, sizni boy qilaman, deb qasamlar ichdi. Odadta, biror odamni o'z ishiga sherik qilgan kishi taqsim vaqtida topgan narsaning hatto yarmisini berishga ham juda og'irlik bilan ko'nadi. Bunda bir gap bor, Prins, meni aytdi dersan. Agar u shu o'lkada qolsa, undan yana biror xabar eshitib qolarmiz.

– Qaytib kelmasa-chi?

– Unda oliyjanobligimga putur yetdi, oltmisht unsiyam esa yig'lab ketdi, deyaver.

Yana sovuq kunlar keldi, uzoq qish tunlari boshlandi. Quyosh janub tomonda, qorli ufq chegaralarida o'zining odatdag'i bekinmachoq o'yinini boshladi. Meylmyut Kid-dan qarzdor bo'lgan yigitdan dom-darak yo'q edi. Kun-lardan bir kun, yanvar oyida, ertalab og'ir yuklar ortilgan chanalar Styuart daryosi bo'yidagi Kidning uyi oldiga kelib to'xtadi. Oldingi chanada suvsar terilarining sobiq xo'ja-yini bilan birga bir odam kelardi – bunday odamlar ko'pdan beri dunyoga kelmay qo'ygan. Omad, botirlik, ertaklar-dagidek behisob oltin xazinalari to'g'risida gap ochilganda, odamlar hamma vaqt Aksel Gundersonni tilga olardilar. Shuningdek, qahramonlik, kuch-quvvat va botirlik haqida gap-so'z yurganda ham uning nomi, albatta, eslanardi. Suh-bat vaqtida gap qovushmay qolsa, uning taqdiriga sherik bo'lgan xotin to'g'risida gap ochilsa, gurung yana qizib ketaverardi.

Aksel Gundersonning bo'yi rosa yetti fut, ko'kragi, bo'yni, qo'l va oyoqlari xuddi devlarnikidek edi. Chang'isi odatdag'i chang'ilardan bahuzur bir yard uzunlik qilardi, bo'lmasa oddiy chang'i chiroyli kiyimlar kiyib yuradigan bu Eldorado azamati va qirolining uch yuz qadoqli gav-dasini ko'tarolmas edi ham. Uning beo'xshov yuzi, do'ng

peshonasi, katta iyagi, doim kiprik qoqmay tik boqadigan ko‘m-ko‘k ko‘zлari bu odam birgina qonun – zo‘ravonlik-dan boshqa qonunni tan olmasligidan darak berardi. Qirov bosib qotib qolgan, pishgan boshoqdek sap-sariq sochlari xuddi tundagi shula kabi yarqirab, ayiq terisidan tikilgan kamzulining yoqasidan chiqib turadi. Aksel Gunderson itlarning oldiga tushib, tor so‘qmoq yo‘ldan kelarkan, allarnarsasi qadimgi dengizchilarni eslatardi; u kelib Meylmyut Kidning eshigini qamchi dastasi bilan eski qasr darvozasini sira tortinmay qoqib o‘rgangan qadimgi normand vikinglari kabi qattiq-qattiq qoqdi.

Prins yenglarini shimarib, xotinlarnikidek nozik qo‘llari bilan xamir qilar va ahyon-ahyonda uchala mehmonga qarab qo‘yardi. Uchalasi uch xil bo‘lgan bu xildagi mehmonni bir uyda doim ham uchratib bo‘lmaydi. Meylmyut Kid Uliss deb atagan tentakka yosh muhandis hali ham qiziqib qarardi, lekin Aksel Gunderson bilan uning xotiniga bundan ham ko‘proq qiziqib qolgan edi. Hozirgi safar bu xotinni charchatib qo‘ygandi, chunki uning eri muz sahrolaridagi boylikni qo‘lga kiritganidan beri u osoyishtalik bilan o‘troq hayot kechira boshlagan, bunday hayot esa uni nozik qilib qo‘ygandi. Endi u erining keng ko‘kragiga bosh qo‘yib, xuddi devorga chirmashgan nozik guldek dam olar va Meylmyut Kidning hazilomuz savollariga erinibgina javob berardi. Xotinning qop-qora chuqur ko‘zлari Prinsga tushganda, yigitni hayajon bosardi, chunki Prins yigit kishi, shu bilan birga sog‘lom, baquvvat va so‘nggi oylarda bironta ham xotin ko‘rman gan yigit. Xotinning yoshi undan kattaroq, buning ustiga u hindu ayoli, ammo Prins shu vaqtgacha uchratgan yerli xotin-qizlarga hech ham o‘xshamasdi. U ko‘p sayohat qilgan, hatto Prinsning vataniga ham borgan – bu suhbat vaqtida aniqlandi – u oq tanli ayollar bilgan va bilmagan narsalarni bilar edi. U dudlangan baliqdan ovqat pishirish-

ni va qor ustiga joy solishni bilardi. Hozir esa u erkaklar allaqachon eslaridan chiqarib yuborgan ajoyib ovqatlar, turli-tuman noz-ne'matlar haqida bat afsil so'zlab, suhbatdoshlarining og'izlaridan suvini oqizar edi. Bu xotin bug'u, ayiq va kichkina havorang tulki, umuman, shimoliy dengizlarda bo'ladigan jonivorlarning qiliq va odatlarini bilardi, o'rmon va daryolarning siridan xabardor, yumshoq qor ustida odam, qush yoki hayvon qoldirgan izlarga qarab, bo'lган ishlarni kitob o'qigandek qiyalmay aytib bera olardi. Lekin hozir bu uyda turadigan odamlar uchun devorga osib qo'yilgan qoidaga ko'zi tushganda, uning ko'zlari ayyorlik bilan chaqnab ketganini Prins ko'rib qoldi. Bu kun tartib qoidalarini o'zi yosh, qoni hali qaynoq vaqtlarda Bettlz tuzgan bo'lib, bu qoidalar biroz dag'alroq uslubda, ammo juda sodda tilda yozilgandi. Bu uyga xotinlar kelganda, Prins, odatda, qoidani ters aylantirib qo'yardi. Lekin bu hindu xotinning savodi bor, deb kim o'ylabdi deysiz... Ey, endi bo'lar ish bo'ldi.

Aksel Gundersonning xotini shu ekan-da. Bu xotin haqidagi dovruq erining shuhrati bilan birlikda butun Shimolga tarqalgandi. Dasturxonga o'tirishar ekan, Meylmyut Kid eski do'st sifatida unga tegajog'lik qilardi, o'zini biroz qo'lga olib Prins ham Kidga qo'shildi. Lekin u xotin bu tengsiz tortishuvda o'zini ustalik bilan himoya qilar, so'zga no'noq eri esa faqat bosh irg'itib iljayardi. Uning o'z xotini bilan faxrlanishi ko'rinish turardi. Uning har bir qarashi, har bir harakati bu xotin erining hayotida naqadar katta o'rin tutganligidan guvohlik beradi. Suvsar terisining sobiq xo'jayini qizg'in suhbatga aralashmay, xuddi hech kimning esiga ham kelmagan bir holda bir burchakda o'tirib, indamay ovqat yerdi; u boshqalar ovqatlanib bo'lishidan ancha ilgari o'rnidan turib, itlar oldiga, tashqariga chiqib ketdi. Boshqalar ham ko'p o'tmay dasturxonadan turib, qo'lqop va quloqchinlarini kiyib uning ketidan tashqariga chiqdilar.

Bir necha kundan beri qor yog‘magan edi, shuning uchun ham chanalar tekis so‘qmoqdan, muz ustidan yurgandek sirg‘anardi. Uliss oldingi chanani haydab borardi, ikkinchisida esa Prins bilan Aksel Gundersonning xotini, Meylmyut Kid bilan oltin sochli dev esa uchinchi chanada borishardi.

– Biz tavakkaliga ketyapmiz, Kid, – dedi Aksel Gunderson, – lekin men to‘g‘ri boryapmiz, deb o‘ylayman. O‘zi o‘sha tomonlarga hech bormagan ekan-u, lekin ko‘pgina qiziq narsalarni hikoya qilib berdi. U menga bir xarita ko‘rsatdi. Bu xarita haqida men bundan bir necha yil ilgari Kutneyga borganimda ba’zi narsalar eshitgan edim. Seni o‘zim bilan olib ketishni juda istardim, lekin u juda g‘alati odam. Agar birov bizga qo‘shilgudek bo‘lsa, hamma ishni tashlayman-ketaman, deb qasam ichdi. Qaytib kelay, senga o‘z joyim oldidan eng yaxshi uchastkani ajratib beraman. Bundan tashqari, shahar qurila boshlaganda, seni o‘z payimga sherik qilaman... Yo‘q! Yo‘q! – deb qichqirib berdi Aksel Gunderson, Meylmyut Kid uning so‘zini bo‘lmoqchi bo‘lganda. – Bu mening ishim. Bamaslahat ish qilgan yaxshi. Agar ish o‘ngidan kelib qolsa, bu ikkinchi Krippl bo‘ladi. Hoy, menga qara, ikkinchi Krippl deyapman-a! U yer qum emas, toza, yaxlit oltin toshlar koni-ya. Agar biz ishga astoydil kirishsak, hammasi bizniki bo‘ladi – million-millionlarga ega bo‘lamiz. O‘sha yer haqida ilgari ham eshitgan edim, sen ham eshitgansan. Biz shahar bino qilamiz... Ishchilar, ajoyib suv yo‘llari, paroxodlar qatnovi, savdo-sotiq... Daryoning yuqori oqimi bilan aloqa... Balki, temiryo‘l qurish ham mumkin bo‘lar. Taxta tilish zavodlari, elektrostansiya quramiz... O‘z bankimizni ochamiz, aksionerlik jamiyati, sindikatimiz bo‘ladi... Faqat jim! Men qaytib kelguncha, dampingni chiqarma!

Yukon bo‘ylab ketgan so‘qmoq Styuart daryosini kesib o‘tadigan joyda chanalar to‘xtadi. Muz dengizi ko‘z

ilg‘amas uzoqlarga – sharqqa tomon cho‘zilib ketgan. Chanalarga bog‘lab qo‘yilgan chang‘ilar olindi. Aksel Gundersen xayrlashdi-da, birinchi bo‘lib yo‘lga tushdi. Uning kattakon chang‘ilari qor va itlarga yo‘l ochib berardi. Uning xotini eng orqadagi chana ketidan qolmay qo‘pol chang‘ilar-da ustalik bilan sirpanib borardi. Xayr-xo‘sh qilib sokinlikni buzdilar, itlar vangillab yuborishdi, suvsar terilarining egasi tixirlik qilayotgan yetakchi itni qamchi bilan yo‘lga soldi.

Bir soatdan keyin chanalar uzoqdan, xuddi katta oq qo‘g‘oz ustidan asta surilib borayotgan qora qalamga o‘xshab ko‘rinar edi.

II

Bir necha haftadan keyin, kechki payt Meylmyut Kid bilan Prins shaxmat masalasini yechib o‘tirar edilar. Bu masalani allaqanday eski bir jurnalning yirtib olingen varag‘idan topib oldilar. Kid Bonanzedagi o‘z uchastkasidan endigina qaytib kelib, dam olar va bug‘u oviga chiqish uchun hozirlik ko‘rardi. Prins ham deyarli qishi bilan sanqib yurdi, endi bo‘lsa uyda rohatlanib yotardi.

– Qora asp bilan to‘sib, shohga kisht ber... Yo‘q, bu yaramaydi. Keyingi yurishni bir o‘ylab ko‘r...

– Piyodani nega ikki xonaga surasan? Uni ko‘zidan o‘tgani uchun urib olish mumkin, fil esa o‘ynamay turibdi.

– Yo‘q, to‘xta! Mana bu yer himoyasiz qoladi...

– Yo‘q, himoya qilingan. Qani, u yog‘ini ko‘raverchi! Nima bo‘lishini ko‘rasan.

Masala juda qiziq edi. Kimdir eshikni ikkinchi marta qoqdi, Meylmyut Kid faqat shundan keyingina: „Kiring“, dedi. Eshik lang ochilib, allakim gandiraklab ichkari kirib keldi. Prins unga bir qaradi-yu, o‘rnidan irg‘ib turdi. Uning ko‘zlarida aks etgan dahshat Meylmyut Kidni o‘girilib qarashga majbur qildi. U o‘z hayotida juda ko‘p dahshatli narsalarni ko‘rgan, lekin hozir u ham qo‘rqib ketdi. G‘alati bir

maxluq paypaslanib ular tomon kela boshladı. Prins revolveri osig‘liq turgan devordagi mixni paypaslab, orqasiga tislana bordi.

— Xudoyo tavba, bu nima o‘zi? — deb shivirladi u.
— Bilmadim, sovuq urgan va och qolgan odamga o‘xshaydi, — deb javob berdi Kid qarshi tomonga chekinayotib. — Ehtiyyot bo‘l! Esdan og‘ib qolgan bo‘lishi ham mumkin, — deb Prinsni ogohlantirdi-da, shartta eshikni yopib oldi.

Haligi maxluq stolga yaqinlashdi. Lampaning yorug‘i uning ko‘ziga tushdi, bundan zavqlanib bo‘lsa kerak, u qiqirlab kulib yubordi. Keyin odam — chunki u har holda odam — birdan orqasiga tashlandi, o‘zining charm ishtonini ko‘taribroq qo‘ydi-da, dengiz to‘lqinlariga jo‘r bo‘lib, ekipaj komandasasi aytadigan bir ashulani boshlab yubordi:

*Daryo ichra pastga qarab suzar kemamiz,
Hech bo‘shashmang, azamatlar,
hech ham bo‘sh kelmang!
Bilasizmi, kapitanning oti nimadir?
Hech bo‘shashmang, azamatlar,
hech ham bo‘sh kelmang!
Kentukkilik, uning oti Jonatan Jonsdir.
Hech bo‘shashmang, azamatlar...*

Qo‘sish tugamay turib, birdan ovozi kesildi. Haligi odam yirtqichlarcha bo‘kirib, ovqat turgan tokchaga o‘zini tashladı. Uni ushlab qolgunlaricha, bir parcha xom yog‘ni og‘ziga tiqdi. U Meylmyut Kid bilan olishib ketdi, lekin tez holdan toydi va zaiflanib, o‘ljasini qo‘yib yubordi. Ikki do‘sit uni kursiga o‘tqazdilar. U ko‘kragini stulga tirab yotib oldi. Bir necha tomchi viski uni o‘ziga keltirdi. U Meylmyut Kid surib qo‘ygan qanddonga qoshiq suqdi. Shirinlik yeb, biroz nafsi bosilgandan keyin, Prins cho‘chib seskanib, uning oldiga bir kosa sho‘rva qo‘ydi.

U maxluqning ko‘zlarida telbalik o‘ti chaqnadi; u qo-

shiqni har og‘ziga olib borganida, o‘sha o‘t goh yonar, goh o‘chardi. To‘g‘risini aytganda, uning ko‘zлari kirtaygan, yonoqlari kirib ketgan yuzida insonni eslatuvchi biror narsa qolmagandi. Yuzlari sovuq urib yara-chaqa bo‘lib ketgan, bu yaralar ostidan eski tirtiqlari bilinib turardi. Qotib ketgan terisi tars-tars yorilib, qoni chiqib yotibdi. Ustidagi mo‘yna kiyimi iflos va dabdala bo‘lib ketgan, bir tomondagi yungi mutlaq kuyib bitgan. Bu uning gulkanga juda yaqin yotganidan bo‘lsa kerak.

Meylmyut Kid uning kamzulidan yo‘l-yo‘l qilib kesib olingen joyni ko‘rsatdi – bu mudhish ochlik belgisi.

– Kim bo‘lasiz? – deb sekin va dona-dona qilib so‘radi Kid.

Odam uning gapini eshitmagandek edi.

– Qayerdan keldingiz?

Notanish kishi bunga javoban titroq ovoz bilan ashula aytib yubordi:

Daryo ichra pastga qarab suzar kemamiz.

– Suzsa suzaversin-ey? Sadqayi sar! – deb Meylmyut Kid, tuzukroq javob berarmikin, degan umidda uning yelkasidan ushlab silkitdi.

Lekin odam, og‘riqdan bo‘lsa kerak, chinqirib yubordi va yonboshini ushlab qoldi, keyin stolga suyanib, ohista o‘rnidan turdi.

– U kulardi... Ko‘zlarida nafrat o‘ti chaqnab turardi... U... men bilan birga ketmadi.

U jim qoldi va gandiraklab ketdi. Meylmyut Kid uning qo‘lidan ushlab qichqirdi:

– Kim? Kim ketmadi?

– Unga-da... Unga. Unga kulib yubordi-yu, meni tushirib qoldi, mana bunday qilib, keyin...

– Ha, keyin nima bo‘ldi?

– Undan keyin...

– Keyin nima bo‘ldi, axir?

– Keyin uzoq vaqtgacha qor ustida yotdi. Hozir ham o‘sha yerda yotibdi.

Ikki do‘s^t sarosimaga tushib, bir-biriga qarashdi.

– Kim qorda yotibdi?

– U-da, Unga. U menga qarab yotdi, qarashida nafrat bor edi, undan keyin...

– Xo‘s^h, xo‘s^h?

– Undan keyin... Unga pichoqni olib, mana bunday qilib bir-ikki tortib yubordi, ammo u holdan toygan edi. Men juda sekin yurdim, o‘sha yerda oltin juda ko‘p, oltin juda ko‘p...

– Unga qayerda qoldi?

Ehtimol, o‘sha bechora Unga shu yaqin orada, boryo‘gⁱ biror millik masofada o‘layotgandir. Meylmyut Kid bechoraning yelkasidan ushlab silkitar va:

– Unga qayerda? Unga kim o‘zi? – deb takrorlar edi.

– U o‘sha yerda... Qor ustida.

– Gapisang-chi axir! – deb Kid uning qo‘lini qattiq qisdi.

– Men ham... qolardim... qor ustida... lekin qarzimni to‘lashim kerak edi... qarzimni... to‘lashim kerak... oltinni... olib yurish... og‘ir bo‘ldi... to‘lashim kerak... – U bir-biriga bog‘lanmagan gapini to‘xtatdi-da, qo‘lini cho‘ntagiga su-qib, bug‘u terisidan qilingan xaltacha oldi.

– Qarzimni... to‘lashim kerak... besh qadoq oltin... Meylmyut Kidga... men...

U holsizlanib boshini stol ustiga qo‘ydi, Meylmyut Kid endi uni oyoqqa turg‘azolmadi.

– Bu Uliss, – dedi shoshilmay Kid va oltin solingan xaltachani stol ustiga tashladi. – Aksel Gunderson bilan xotini adoyi tamom bo‘lgan ko‘rinadi. Kel, uni karavotga yotqizib,

ko‘rpaga o‘rab qo‘yaylik. Bu hindu yigit, joni qattiq, tuza-lib ketadi va bor gapni aytib beradi.

Uning ustida muzlab qolgan kiyimni pichoq bilan kesib olishar ekan, hali bitmagan, pichoq zarbidan paydo bo‘lgan yaralarni ko‘rishdi.

III

– Bor gapni bilganimcha gapirib beraman, hammasini o‘zingiz tushunib olasiz. Eng boshidan boshlayman, avval o‘zim va ayol haqida, undan keyin erkak haqida gapiraman.

Suvsar terisining sobiq xo‘jayini xuddi o‘t qochib ketayotganday pechkaga yaqinroq surildi. Uning harakati issiqdan uzoq vaqt mahrum bo‘lgandan keyin uni yana qay-tib topgan odamning harakatiga o‘xshardi. Meylmyut Kid lampaning piligini tuzatib, yorug‘i hikoyachining yuziga tushib turadigan qilib qo‘ydi. Prins o‘rinning bir chekkasi-ga o‘tirib olib, hikoya tinglashga hozirlandi.

– Mening otim Naas, qabila boshlig‘ining o‘g‘liman, o‘zim ham qabila boshlig‘i edim. Men kunchiqar bilan kunkotlar oralig‘ida, to‘lqinli dengiz o‘rtasida, otamning umi-akida tug‘ilganman. Tun bo‘yi erkaklar eshkak tortdilar, xotinlar esa to‘lqindan umiakka kirayotgan suvlarni suzib turdilar, hamma bo‘ronga qarshi kurashdi.

Sachragan sho‘r suv tomchilari onamning ko‘kragida muzlab qolardi. Oxiri onamning so‘nggi nafasi dengiz to‘l-qini bilan birga to‘xtadi. Lekin men – men o‘z ovozimni bo‘ron ovoziga jo‘r qildim va tirik qoldim. Bizning joyimiz Akatanda edi.

– Qayerda? – deb so‘radi Meylmyut Kid.

– Akatan deb Aleut orollarini aytamiz. Akatan Chignik-dan, Kardalakdan va Unimakdan ham narida. Shunday qilib, biz dunyoning bir chetida, dengiz o‘rtasiga joylashgan Akatanda yashardik. Biz sho‘r dengizda tulen, baliq va suvsar ovi bilan shug‘ullanardik, uylarimiz bir-birining pinji-

ga tiqilib, baland qirg‘oqqa – o‘rmon bilan soylik o‘rtasiga tushgan edi. Mana shu soylikda bizning qayiqlarimiz turardi. Biz uncha ko‘p emasdik, bizning dunyomiz juda tor edi. Bizning sharq tomonda Akatanga o‘xshagan allaqanday yot orollar yotar, biz esa, butun dunyo faqat orollar dan iborat ekan, deb o‘ylar va shunday o‘ylashga o‘rganib qolgan edik. Men o‘z qabilam odamlariga o‘xshamasdim. Qumloq sayoz joylarda qiyshiq xodalar, parchalangan katta qayiqlarning taxtalari sochilib yotardi. Bunday qayiq yashni mening xalqim bilmasdi. Esimda bor, uch tomondan dengiz ko‘rinib turadigan bir orolning chetida tikka o‘sgan silliq qarag‘ay bor edi. Bunday daraxtlar bizning joylari mizda o‘smasdi. Bir kun mana shu yerga dengiz tomondan ikki kishi kelib tushdi, deb hikoya qilardilar. Ana shu ikki kishi dengizning narigi yog‘idan qayiqda tushib kelgan ekan. Bu qayiqning parchalangan taxtalarini o‘scha soylikda ko‘rdim. Ular xuddi sizga o‘xshagan oq tanli va juda holdan toygan, ocharchilik kunlarida ovchilar tulen oviga borib, quruq qaytib kelganlarida, kichik bolalarning ahvoli naqadar mushkul bo‘lsa, ularniki ham shunday ekan. Men bu hikoyani qariyalardan eshitganman, ular esa o‘z ota va onalaridan eshitishgan ekan. Boshda yot o‘lkalardan kelgan bu oq odamlarga bizning urf-odatimiz yoqmagan, lekin bora-bora ular baliq va yog‘ yeb sog‘ayib ketganlar, kuchga to‘lganlar. Ularning har qaysisi o‘zlariga uy qurib, qabilamizning eng yaxshi qizlarini xotin qilib olganlar; keyin ulardan bolalar paydo bo‘lgan. Shunday qilib, otamning otasining otasi dunyoga kelgan ekan.

Hali aytganimdek, men o‘z qabilamdagi odamlarga o‘xshamas edim, chunki mening tomirlarimda dengizning narigi yog‘idan kelgan oq tanli odamlarning qoni oqardi. Aytishlariga qaraganda, ular kelmasdan ilgari bida boshqacha rasm-odatlar bo‘lgan ekan, lekin u odamlar rahm-shafqatsiz va urishqoq bo‘lganlar. Ular bizning

erkaklar bilan urishib, o'zlariga qarshi chiqqanlarning hammasini o'ldirishgan. Keyin esa bizga qabila boshlig'i bo'lib olganlar, bizning eski qonunlarimizni bekor qilib, yangi qonunlar o'rnatganlar. Bu qonun bo'yicha odam, ilgarigi rasmimizdagidek o'z onasining bolasi emas, balki otasining bolasi hisoblangan. Bundan tashqari, ular to'ng'ich bola otaga qarashli hamma mol-mulkni olishi kerak, uning uka va singillari esa o'z kunlarini o'zлari ko'rishlari kerak, deb qaror qilganlar. Ular, bundan tashqari, yana boshqa ko'pgina qonunlar chiqarganlar, bizga baliq tutish va o'rmonlarimiz to'la bo'lган ayiqlarni o'ldirishning yangi usulini ko'rsatganlar. Ular qahatchilik bo'lib qolsa, qanday qilib ko'p oziq-ovqat g'amlashni o'rgatganlar. Buning hammasi yaxshi.

Lekin ular qabila boshlig'i bo'lib, bizda qarshilik ko'rsatadigan odam qolmagandan keyin, bir-birlari bilan urishjanjal qila boshlaganlar. Mening tomirlarimda qoni yurib turgan odam boshqa birining badaniga nayza sanchgan. Bu dushmanlikni ularning bolalari, undan so'ng bolalarining bolalari ham davom ettirganlar. Ularning orasida dahshatli adovat va dushmanlik hukm surgan. Hatto mening vaqtimda ham yovuz ishlar bo'lar ediki, bir-biriga ota qonini o'tkazish uchun har bir oilada faqat bittadan odam qolgan edi, xolos. Bizning oilada men, boshqa oilada esa onasi bilan bir qiz – Unga qolgan edi. Uning otasi bilan mening otam bir kun kechasi baliq ovidan qaytib kelmadilar, lekin dengiz suvi ko'tarilganda, to'lqin ularning tanasini qirg'oqqa chiqarib tashlagan. Qarasalar, ikkisi qumloqda bir-biri bilan quchoqlashib yotgan emish.

Odamlar ularga qarab turib, boshlarini chayqaganlar, chunki ikki oila o'rtasida adovat borligini ular yaxshi bilganlar. Unga bilan mening bolalarim ham bu dushmanlikni davom ettiradilar der edi. Ular bu haqda menga bolalik chog'imdayoq gapirishgan. Keyinroq men ham Ungaga,

bolalarim dushmanining bo‘lgusi onasi deb qaray boshladim. Men hamma vaqt shu to‘g‘rida o‘ylar edim. Yoshim ulg‘ayib, yigit bo‘lganimda, men nima uchun shunday, buning sababi nima, deb qariyalardan so‘radim. „Bilmaymiz, otalarimizning zamonasida shunday edi“, deb javob berdilar. Men, nima uchun kelajak avlod dunyodan o‘tib ketganlarning adovatini davom ettirishi kerak, deb hayron bo‘lardim. Buadolatdan emasligiga aqlim yetardi. Lekin qabila odamlari shunday bo‘lishi kerak, deb ta’kidlardilar. Men u vaqtarda hali yosh yigitcha edim.

Ular: „Unganing bolalaridan sening bolalaring kattaroq bo‘lsin, tezroq voyaga yetsin“, deb meni qistar edi. Bu oson ish edi, chunki men qabila boshlig‘i edim, xalq ota-bo-bolarimning qahramonligi, bergen qonunlari, boyliklarim uchun meni hurmat qilardi. Har qanday qiz menga jon deb xotin bo‘lardi. Lekin ko‘nglimga yoqadigan biror tuzuk qizni topolmay yurdim. Chollar va qizlarning onalari meni qistar edilar: „Ko‘pgina ovchilar Unganing onasi huzuriga kelib, Unga uchun katta qalin berishni va’da qilayotirlar. Agar uning bolalari senikidan ilgari o‘sib ulg‘aysa, sening bolalaringni o‘ldiradi“.

Lekin men hamon o‘zimga munosib qizni topolmay yurdim. Bir kun men baliq ovidan qaytib kelayotgan edim. Quyosh botish oldida uning shu’lesi ko‘zni qamashtirardi. Yengil shabada esmoqda, qayiqlar to‘lqin ustida chayqalib boradi. Birdan Unganing qayiqchasi mening oldimdan shuvullab o‘tib ketdi. Unga mening yuzimga tikilib qaradi. Uning to‘zigan sochlari tun kabi qora, yuzlarida suv tomchilari marjon kabi yaltiraydi. Hali aytganimdek, quyosh ko‘zlarni qamashtirar, men esa u vaqtda yosh edim. Butun vujudim jimirlab ketdi, shunda birdan hamma narsa menga ravshan bo‘lib qoldi. Ungaga yana yetib keldim, u menga yana bir qarab qo‘ydi – bunday qarash Ungaga xos edi. A’zoyi badanim yangidan titrab ketdi. Biz beso‘naqay qayiqlardan o‘zib ket-

ganimizda orqamizdan odamlar qichqirib qolishdi. Unga ustalik bilan eshkak tortar, mening yuragim esa ko'tarilgan yelkan singari tipirchilar edi. Lekin men uning orqasidan quvib yetolmadim. Shamol borgan sari kuchaydi, dengiz yuzini oq ko'pik qopladi. Biz bo'lsak, to'lqinlar ko'ksida xuddi tulenga o'xshab, sakrab-sakrab borardik.

Naas xuddi dengiz ustida qayiqni surayotgan eshkak-chidek stulda o'tirgan holda bukchayib oldi. Ehtimol, uning ko'ziga qayerdadir, pechkaning orqasida, tez ketayotgan qayiqcha va Uunganing to'zigan sochlari ko'ringandir, uning quloqlari ostida yel guvullab, dengizning sho'r suvi dimog'iga urilgandir.

– Unga qirg'oqqa yetib oldi va qah-qahlab kulgani holda qum ustidan chopib borib, o'z uyiga kirib ketdi. Shu kechasi mening aqlimga, Akatan qabilasining boshlig'iga munosib ulug' bir fikr keldi. Oy chiqqach, men Ungalarning uyiga qarab ketdim. U yerda, Ungalarning uyi eshigi oldida Yash-Nush keltirgan sovg'alarga ko'zim tushdi. Yash-Nush yaxshi ovchi bo'lib, Uunganing bolalariga ota bo'lish orzuvida edi. Ko'pgina yigitlar o'z sovg'alarini keltirib, shu uy eshigi oldiga uyib qo'yar, keyin qo'l tekkizilmaganini ko'rib, yana qaytib olib ketardilar. Har bir yangi kelgan kishi o'zidan ilgarisiga qaraganda ko'proq mol keltirardi.

Men oy va yulduzlarga qarab iljaydim-da, uyimga qaytdim. Butun boyliklarim uyimda saqlanardi. Mening sovg'alarim Yash-Nushnikidan bir gaz yuqori ko'tarilguncha, ko'p martabalab u yoqdan bu yoqqa mol tashidim. Bular ichida dudlangan va quritilgan baliq, qirqta tulen terisi, yigirmata suvsar terisi bor, har bir terming ichi yog' bilan to'ldirilgan, og'zi bog'langan. Bundan tashqari, bahor paytida o'z qo'lim bilan o'ldirgan yigirmata ayiqning terisi ham bor. Shuningdek, bu yerda marjon, ko'rpa, to'q qizil matolar uyilib yotardi. Men bu matolarni sharq tomonda yashovchi xalqdan ayirboshlab olgan edim, ular

esa o‘z qatorida undan ham sharq tomonroqda yashovchi xalqdan olgan ekanlar. Men Yash-Nushning keltirgan narsalariga qarab kulib qo‘ydim: chunki Akatanda men qabila boshlig‘i edim, mening boyligim hamma yigitlarning boyligidan ham ko‘p edi. Mening ota-bobolarim katta ishlar qilganlar, qonunlar chiqarib, odamlar xotirasida o‘z nomlarini abadiy qoldirganlar.

Ertasi ertalab men qирғоq томонга кетаётіб, Ungalarning uyiga ко‘з qirimni tashladim. Sovg‘alarimga qo‘l tekkizilmabdi. Xotinlar bo‘lsa kulishar va bir-birlariga gap qotishardi. Men nima qilishimni bilmay qoldim: chunki hech kim shunchalik ko‘p qalin keltirmagan edi. O‘sha kechasi men mollarni yana ham ko‘paytirdim. Keltirgan narsalarim ichida teridan yasalgan va hali suvga tushirilmagan qayiqcha ham bor edi. Kelasi kun ham mening mollarim qimirlamay o‘z joyida turar, odamlar esa meni masxara qilib kulishar edi. Unganing onasi ayyor xotin, meni o‘z xalqim oldida sharmanda qilgani uchun g‘azabim keldi. Kechasi uy eshigi oldiga yana bir qancha mol keltirib qo‘ydim. Bular ichida bahosi yigirmata qayiqchaga baravar keladigan, naqshdor qilib yasalgan katta qayiq ham bor edi. Ertalab qarasam, sovg‘alarim ko‘zdan g‘oyib bo‘lib qolibdi.

Shunda men to‘yga tayyorgarlik ko‘ra boshladim. Men qurgan bazmga hatto uzoq sharq tomonda yashovchi odamlar ham sovg‘a olib kelishdi. Bizning hisobimiz bo‘yicha Unga mendan to‘rt quyosh katta edi – bu to‘rt yosh demakdir. U zamonlarda men yosh yigit edim, lekin men qabila boshlig‘i va qabila boshlig‘ining o‘g‘li bo‘lganim sababli, yosh bo‘lishimning ahamiyati yo‘q edi.

Kutilmaganda okean yuzida yelkanli kema paydo bo‘ldi. Shamol kuchaygan sari kema yaqinlashaverdi. Kema shikastlangan bo‘lsa kerak, matroslar nasosni ishga solib, kema ichidagi suvni chiqarib tashlamoqda. Kemaning old tomonida azamat gavdali bir kishi turardi: u suv chuqurligi-

ni qanday o'Ichayotganliklarini ko'zdan kechirar va mo-maqaldiroqqa o'xshagan baland ovozi bilan buyruqlar berib turardi. Uning ko'zları ko'm-ko'k, sochlari xuddi arslon yoliga o'xshab yoyilgan. U odamning sochlari janubda o'sadigan bug'doy kabi, yoki matroslar arqon to'qiydigan manil kanopidek sap-sariq edi.

So'nggi yillarda uzoqdan suzib o'tgan ko'pgina kemalarni ko'rgandik, lekin bu Akatan qirgog'iga kelib to'xtagan birinchi kema edi. Bazmimiz to'xtadi, bolalar va xotinlar uy-uylariga qochib ketdilar. Biz erkaklar esa o'q-yoylarmizni tayyorlab, qo'llarimizga nayza olib, kutib turdik. Lekin kemaning tumshug'i sohilga kelib urilganda, yot o'lakkalik kishilar o'z ishlari bilan band bo'lib, bizga hech e'tibor bermadilar. To'lqin biroz pasaygandan keyin ular kemani qiyshaytirib, kema ostidagi katta teshikni yamay boshladilar. Shunda xotinlar yana o'z uylaridan o'rmalab chiqdilar, bazm ham davom etaverdi.

Dengiz suvi yana ko'tarilgach, dengizchilar kemalarni chuqur yerga olib borib qo'ydilar-da, biznikiga kelishi-di. Ular o'zları bilan sovg'a olib kelib, hammamiz bilan xushmuomalada bo'ldilar; men ularga o'z o'rtamizdan joy bo'shatib berdim va boshqa mehmonlar qatori ularga ham qo'li ochiqlik bilan sovg'alar tortiq qildim, chunki o'sha kuni mening to'yim edi, men Akatan qabilasining boshlig'i edim. Arslon yolli odam ham biznikiga keldi. U, shu qadar baland bo'yli va baquvvat ediki, yurganda oyoqlarining ostidagi yer titraganday bo'lardi. U qo'llarini mana bunday qilib qovushtirib, Ungaga uzoq tikilib o'tirdi. U to quyosh botib, yulduzlar charaqlaguncha shu vaziyatda o'tirdi. Qorong'i tushganda o'z kemasiga qaytdi. Men esam Uunganing qo'lidan ushlab, uyimga olib ketdim. Ashula va quvnoq kulgi ovozlari eshitilib turardi. Xotinlar rasm-odatimizga taomil qilib sho'xlik bilan bizning ustimizdan kulishar edi. Lekin biz hech nimaga

e'tibor bermadik. Undan keyin xaloyiq uy-uyiga tarqalib, ikkalamiz qoldik.

Hali qo'shiq ovozlari o'chmagan ham ediki, birdan dengizchilarning boshlig'i eshigimiz oldida paydo bo'ldi. U o'zi bilan qora shishalar olib keldi. Biz shishalardagi suvdan icha boshladik, shunda kayfimiz chog' bo'lib ketdi. Axir, men unda yosh bo'lib, butun umrimni dunyoning bir chekkasida o'tkazgan edim. Qonim qizishdi, yuragim esa xuddi dengiz to'lqinlari qirg'oq toshlariga otib tashlagan ko'pik singari yengil edi. Unga po'stinga o'ralib, burchakda jim o'tirar, uning ko'zлari qo'rquinchdan katta-katta ochilgan edi. Arslon yolli odam bo'lsa unga tikilib-tikilib qarab qo'yardi. Keyin uning odamlari bir qancha mol keltirib, mening oldimga to'plab qo'ydilar. Bunday boylik Butun Akatanda yo'q edi. Bu mollar ichida katta-kichik miltiqlar, miltiq dorilari, o'q, yarqiroq boltalar, po'lat pichoqlar, allaqanday g'alati asboblar va har xil boshqa narsalar bor edi. Men bunday narsalarni umrimda ko'rgan emasdim. U qo'li bilan ishora qilib, bu boyliklarning hammasi meniki ekanligini bildirdi. Men uning bu ishiga qarab, faqat ulug' odamgina bunday saxiylik qila oladi, deb o'yladim. Shunda u odam Unga men bilan kemaga birga ketishi kerak, degan ishorani qildi. Tushunyapsizmi? Unga u bilan kemaga borishi kerak emish! Menda ota-bobolarimning qoni qaynab ketdi. Men nayzamni olib, unga tashlandim. Lekin shisha ichidagi ruh qo'l-oyoqlarimdagи kuchni olib qo'ygan ekan. Arslon yolli kishi yelkamdan ushlab, mana bunday qilib, boshim bilan devorga urdi. Men yangi tug'ilgan chaqaloqdek ojiz bo'lib qolgan edim, oyoqlarim bukilib ketdi. Shunda u odam Ungani eshikka sudradi. Unga esa qichqirib, uyda bor narsalarga yopishar edi. Keyin u o'zining baquvvat qo'llari bilan Ungani ushladi; Unga uning sariq sochlarini yula boshlagan edi, u xuddi urchitish vaqtidagi erkak tulenga o'xshab gurkirab, qattiq kulib yubordi.

Men sohilgacha emaklab borib, xalqimni yordamga cha-qira boshladim, lekin odamlar chiqishga jur'at qilolmadilar, faqat Yash-Nushgina erkak ekan, u yordamga keldi, lekin ular Yash-Nushning boshiga eshkak bilan tushirdilar, Yash-Nush qumga yiqilib tushdi-da, jim qoldi. So'ng yot o'lka-lardan kelgan odamlar ashula aytishib, yelkanni ko'tardilar, shamol ularning kemasini surib ketdi.

„Bu yaxshi bo'ldi, chunki Akatanda ortiq qon adova-ti tugadi“, der edi odamlar, lekin men hech narsa demay, oy to'lishini kutib qoldim. Oy to'lganda, men qayiqcham-ni baliq bilan yog'ga to'ldirib, sharq tomonga qarab su-zib ketdim. Men yo'llarda juda ko'p orollar va odamlar-ni uchratdim, o'shandagina dunyoning bir chekkasida yashaganligimni va dunyo qanchalik keng ekanligini ang-ladim. Men odamlar bilan imo-ishora orqali gaplashdim, surishtirdim, lekin arslon yolli odamni ham, kemani ham hech kim ko'rмаган ekan. Kimdan so'rasam, hamma sharqni ko'rsatar edi. Men to'g'ri kelgan yerda yotdim, yemagan ovqatlarimni yedim, g'alati odamlarni ko'r-dim. Ko'p odamlar meni jinni deb masxara qilishdi. Le-kin ba'zi qariyalar mening yuzimni yorug'likka o'girib, duolar qildilar. Yosh xotinlar kema haqida, Unga va ars-lon yolli odam haqida savol-so'roq qilganlarida, ko'zları yoshga to'lar edi.

Shunday qilib, men azamat dengizlar, dahshatli to'lqin-lardan o'tib, Unalyaokaga yetib keldim. U yerda ikkita kemani ko'rdim, lekin men istagan kema ularning ichida yo'q edi. Men yana sharqqa tomon ketdim. Unimak oroli-da ham, Kadiakda ham, Atonyakda ham men qidirgan kema haqida hech kim biror narsa aytib berolmadi. Bir kuni men tog'lik o'lkaza borib qoldim, u yerda odamlar tog' etaklar-ida katta-katta chuqr qaziyotgan ekanlar. O'sha yerda bir kemani ko'rdim, lekin u men istagan kema emasdi, odam-lar tog'dan qazib olgan toshlarni shu kemaga ortar edilar.

Bu menga bolalar o‘yiniga o‘xshab ko‘rindi, chunki toshni istagan yerdan topish mumkin-ku, axir. Ular menga ovqat berib qormimni to‘ydirdilar, keyin ishga soldilar. Kemaning yuki ancha og‘irlashib, suv ichiga ancha o‘tirib qolgandan keyin, kapitan menga pul berdi va, sen endi ozod bo‘lding, deb aytdi. Men undan, qayoqqa borasizlar, deb so‘radim, u janub tomonni ko‘rsatdi; undan meni ham olib ketishlarini iltimos qildim. U avval kului, keyin komandasini to‘la emasligi sababli, meni ham o‘z kemasiga oldi. Shu kemada yurib, men ularning tilida gapirishga o‘rgandim, arqon tortishni, qattiq shamol vaqtida yelkan bog‘ichlarini olishni, rulda turishni o‘rganib oldim. Ajablanarli hech narsa yo‘q, chunki ota-bobolarimning tomirida dengizchilar qoni oqqan.

U bilan qabiladosh bo‘lgan odamlar orasida yashaganimdan keyin, men uni osonlik bilan topib olaman, deb o‘yladim. Bir kuni biz sohilga yaqinlashib dengiz darvozasi orqali portga kirdik, bu yerda qo‘llarimda qancha barmoq bo‘lsa, shuncha kemani uchratamiz, deb o‘ylagan edim. Lekin kemalarning son-sanog‘i yo‘q, xuddi baliq to‘dasi singari g‘uj-g‘uj, kemalar turgan pristan ko‘p chaqirimlar uzoqlarga cho‘zilib ketgan edi. Bir kemadan ikkinchisiga o‘tib, arslon yolli odamni ko‘rdinglarmi, deb so‘rab yurdim, ular kulib, meni masxara qildilar, turli-tuman tillarda javob qaytardilar. Shunda bildimki, bu kishilar dunyoning turli burchaklaridan kelgan ekan.

Shahar ko‘chalarida har bir odamning yuziga diqqat bilan qarar edim. Lekin ular xuddi dengiz qirg‘og‘i bo‘ylab borayotgan treska balig‘i singari son-sanoqsiz edi. Shovqin-surondan mening quloqlarim eshitmay qoldi. Qiy-chuv, g‘ovur-g‘uvurdan boshim aylanib ketdi. Lekin yo‘limdan qolmadim. Quyosh nurlari ostida qo‘sish ja-ranglab turgan o‘lkalarni kesib o‘tdim, dalalarda mo‘lhosil yetishib turgan mamlakatlarni kezdim, xotinlar singari riyokor-yolg‘onchi erkaklar va oltin desa jonini beradigan

ochko‘zlar bilan to‘lgan katta shaharlarni ko‘rdim. Bu vaqt-da esa Akatanda mening xalqim ov qilish va baliq tutish bilan ovora bo‘lib, dunyo kichkina deb o‘ylar va dunyodan bexabarligi bilan baxtiyor edi.

Lekin baliq ovidan kelayotganda Uganining tashlagan nazari meni ta’qib qilar, men esa vaqtি-soati kelib, uni, al-batta, topaman, deb umid qilardim. Unga g‘ira-shira tush-ganda kimsasiz muyulishlardan o‘tar va tungi shudring tushgan serhosil dalalar bo‘ylab, menga ergashib yurardi. Uning qarashlari allanarsalarni va’da qilar, bu va’daga faqat Unga vafo qila olar edi.

Men minglab shaharlarda bo‘ldim. Bu shaharlarda yashagan odamlar ba’zan rahm-shafqat qilib qornimni to‘yg‘azdilarni, ba’zilari masxara qilib ustidan kuldilar, boshqa birlari meni haqorat qildilar, lekin tilimni tiyib, hech indamadim va menga notanish bo‘lgan urf-odatlar bilan yashadim, menga yot bo‘lgan ko‘pgina narsalarni ko‘rdim. Ko‘p vaqt qabila boshlig‘ining o‘g‘li va qabila boshlig‘i bo‘la turib pol, tosh yurakli odamlar uchun xizmat qildim. Men o‘z birodarlarining qo‘manglay terisidan va chekkan azob-alamlaridan oltin siqib olgan shafqatsiz odamlar qo‘lida yollanib ishладим. Xuddi qoyali qirg‘oqqa qaytib kelgan dengiz mushugi singari to dengizga qaytib bormagunimcha, hech yerdan o‘z savolimga javob ololmadim. Bu voqeа shimol tomondagi boshqa bir portda va boshqa bir o‘lkada ro‘y berdi. Men o‘sha yerda sariq sochli dengiz daydisi haqida hikoyalar eshitdim. U tulen ovlab hozir okeanda suzib yuribdi, degan sirdan voqif bo‘ldim.

Men yalqov sivashlar bilan ovchilar kemasiga chiqib, yo‘lga ravona bo‘ldim. U hech yerda iz qoldirmagan. Shimol tomonda tulen ovi ayni qizigan payt edi. Biz ko‘pgina og‘ir oy-kunlarni boshimizdan o‘tkazdik. Shunda biz portlarda boshqa kemalarni uchratib, men qidirgan odamni so‘roqladik, u odam haqida ko‘p narsa eshitdik, lekin o‘zini

ko'rmadik. Biz Shimolga qarab, Piribil orollari tomon ketdik, sohillarda to'p-to'p suvsarlarni ov qildik. Ularni issiq holicha qayiqqa keltirdik. Pirovardida, paluba yog' va qondan shunday sirpanchiq bo'lib ketdiki, tik turish mumkin bo'lmay qoldi. Orqamizdan bir kema bizni quvlashga tushdi. Undagi odamlar bizga qarab katta zambarakdan o'q otdilar. Biz hamma yelkanlarni yoyib yubordik, to'lqin palubani yuvib tozaladi, shxunamiz esa tuman ichiga kirib yo'qoldi.

Keyin eshitsak, biz jon hovuchlab ta'qibdan qochib ketayotganimizda sariq sochli dengiz daydisi Piribil orollariга tushib, to'g'ri Faktoringa kelibdi. Komandasining bir qismi kompaniya xizmatchilarini qamoqda saqlab turibdi, ikkinchi qismi esa ombordan o'n mingta terini olib chiqib kemaga yuklabdi. Bu odamlarning gapi, lekin bunga men ishonaman. Sang'ib yurgan vaqtimda men biror marta ham uni uchratmadim, lekin uning rahm-shafqatsizligi, botirliги haqidagi dovrug butun shimolga tarqalgan edi. Oxirida o'sha tomonlarda yashagan uch xalq birlashib kemalarini jihozlab uning orqasidan quvib ketganlar. Men Unga haqida ham xabar eshitdim. Ko'pgina kapitanlar Ungani osmonlarga ko'tarib maqtar va o'z hikoyalarining birinchi qahramoni qilib ko'rsatar edilar. Unga hamma vaqt u bilan birga. Unga o'sha odamlarning urf-odatlariga o'rganib o'zini baxtiyor hisoblar ekan. Lekin men bunday emasligini, Uunganing qalbi o'z xalqi tomon, Akatanning sariq sohilari tomon intilishini bilar edim.

Shunday qilib, bir qancha vaqtlardan keyin okean portiga qaytib keldim, bilsamki, sariq sochli daydi rus suvlari dan janubda bo'lgan issiq o'lkaza suvsar ovlashga ketibdi. Bu vaqtida men haqiqiy dengizchi bo'lib olib, unga qardosh odamlar tushgan kemaga xizmatga kirdim va uning orqasidan suvsar ovlash uchun yo'lga ravona bo'ldim. Bu yangi o'lkalarga borayotgan kemalarning soni oz edi, lekin biz suvsar to'dalariga uchrab qolib, butun bahor ular-

ni shimol tomon quvladik. Ikkiqat bo'lgan suvsarlar rus suvlariga o'tib ketganida, bizning matroslarimiz u yoqqa o'tishdan qo'rqib, zorlana boshladilar. Chunki hamma yoqni tuman bosgan, qayiqlar har kun halok bo'laverdi. Ular xizmat qilishdan bosh tortdilar, kapitan esa kemani orqa-ga qaytardi. Lekin men sariq sochli daydining hech narsadan qo'rmasligini va suvsar quvlab to rus orollarigacha borishdan qaytmasligini yaxshi bilardim. U tomonlarga uncha-muncha odam borishga jur'at qilolmas edi. Tun qorong'iligida vaxta qorovulining uxlab qolganligidan foy-dalanib, men bir qayiqchani oldim-da, yolg'iz o'zim katta va issiq o'lkaga qarab yo'lga chiqdim. Mana, men janubga, Iyeddo ko'rfaziga keldim. Bu yerda men ko'pgina itoatsiz va qo'rmas odamlarni uchratdim, bu odamlarning qizlari kichkina va chiroyli, ularning badanlari xuddi po'latga o'xshagan yiltiroq ekan. Lekin men bu yerlarda qololmas edim, chunki Unganing to'lqinlar oshib shimol qirg'oqlari tomon ketayotganini bilardim.

Iyeddo ko'rfazidagi odamlar dunyoning har tomonidan kelgan bo'lib, ular na Xudoni bilishar, na Vatanlari bor edi; ular yapon bayrog'i ostida suzib yurishardi. Ana shular bilan men Mis orollari qirg'oqlarigacha suzib keldim. Shu yerda kemamizning omborlari terilar bilan liq to'ldi. Biz mana shu kimsasiz dengizda hech kimni uchratmay orqaga qaytdik.

Bir kuni kuchli shamol tumanni tarqatib yubordi, biz orqamizdan kelayotgan bir shxunani ko'rib qoldik. Uning orqasidan tutunlar bilan qoplangan rus harbiy kemasining trubalari ko'rindi. Biz barcha yelkanlarni yoyib suzib ketdik, shxuna esa borgan sari bizga yaqinlashib kelayerdi, chunki bizning kemamiz ikki fut yo'l bosganda, shxuna uch fut bosar edi. Shxunaning old tomonida arslon yoli odam turar va o'z kuchiga ishongan holda iljayar edi. Unga ham u bilan birga. Men uni darrov tanidim. Rus to'plari o't ochganda, u Ungani ichkariga kirgizib yubordi.

Hali aytganimdek, uning kemasi biznikiga qaraganda tez-roq yurardi. Endi har qalqishda suvdan ko‘tarilib kelayot-gan shxunani ko‘rar edim. Men la’natlar o‘qib, shturvalni aylantirar va otayotgan rus to‘plariga qarshi orqamni o‘gi-rib, tik turar edim. Arslon yolli bizni quvib o‘tib ketmoqchi va rus harbiy kemasining ta’qibidan qutulmoqchi ekanini yaxshi tushundik. Unda ruslar bizni ushlab olishlari aniq. Machtamizni urib tushirdilar. Kemamiz esa xuddi yara-langan baliqchi qushdek shamolda chayqalib borar edi. U Unga bilan birga ufqda ko‘zdan g‘oyib bo‘lib ketdi.

Biz nima ham qila olar edik? Yangi terilar bizni ayblast-uchun guvohlik berib turardi. Bizni rus portiga olib bordi-lar, u yerdan bir sahroga keltirib, tuz konlarida ishlashga majbur qildilar. Birovlar o‘ldi, birovlar esa tirik qoldi...

Naas yelkasidan adyolni olib tashlab, yalang‘och bo‘lib oldi, uning a’zoyi badani yara-chaqa bilan qoplangan. Shubhasiz, bular qamchi izlari edi. Prins mana shu xunuk manzarani ko‘rishdan tezroq qutulish uchun uning yelkasi-ni darrov adyol bilan yopib qo‘ydi.

– Biz bu yerda ko‘p azob chekdik, odamlar ba’zan ja-nubga ko‘chib ketar, lekin har gal ularni qaytarib olib ke-lishardi. Biz – leddo ko‘rfazidan kelganlar birlashib, bir kuni kechasi qorovullardan miltiqlarni tortib oldik-da, shimol tomonga ketdik. Hamma yoq balchiqzor va qalin o‘rmon. Sovuq tushib, ko‘p qor yog‘di. Oramizda esa hech kim yo‘lni bilmas edi. Oylar o‘tdi, biz ana shu poyonsiz o‘rmonlar ichida daydib yurdik. O’sha vaqtda bo‘lgan vo-qealar hammasi yodimda yo‘q, chunki bizda ovqat kam, biz ba’zan yotib o‘limimizni kutardik. Pirovardida, biz sovuq dengizga yetib oldik. Lekin ichimizdan uch kishigagina bu dengizni ko‘rish nasib qilgan ekan. Birimiz iyeddolik ka-pitan, u katta o‘lkalar qayerda va muz orgali bir o‘lkadan ikkinchi o‘lkaga qanday qilib o‘tish mumkin ekanini bilar-di. Kapitan bizni boshlab ketdi. Men qancha yo‘l bosgani-

mizni eslay olmayman, har holda juda uzoq yurdik, borib-borib ikki kishi qoldi. Biz bir yerga borib qoldik. Bu yerda mahalliy odamlardan beshtasini uchratdik. Ularning itlari va terilari bor, bizda esa balo ham yo'q edi. Biz ular bilan qor ustida olishdik. Ulardan birontasi ham tirik qolmadi, kapitan ham o'lди, itlar bilan terilar menga qoldi. Men yorilib-yorilib ketgan muz ustidan boraverdim, meni muz parchasi olib ketdi. G'arb shamoli borib-borib muz parchasini qirg'oqqa keltirib urdi. Undan keyin Golovin buxtasida, Pastilikada bo'ldim. U yerda bir ruhoniyni uchratdim. Undan so'ng janubga, yaqin o'lkalar tomon ketdim. Men bu yerlarda ilgari ham bo'lgan edim.

Dengiz ortiq ko'p o'lja bermay qo'ydi, suvsar ovlovchilar tez-tez xavf-xatarga duch kelib, oz foyda ko'radigan bo'lib qoldi. Kemalar ham oz uchrar, bu kemalarning kapitanlari ham, matroslari ham men qidirib yurgan odamlar haqida hech qanday xabar bermadilar. Men vafosiz okeanni tashlab, quruqlikda sayohat qilishga tushdim, chunki quruqlikda daraxtlar, uylar, tog'lar harakatsiz, qimirlamay bir joyda turadilar. Men ko'p joylarda bo'ldim, ko'p narsa o'rgandim, hatto yozish va kitob o'qishni ham bilib oldim. Men yaxshi ish qildim, chunki mening kallamga bir fikr keldi: mabodo Unga ham shunday narsalarni o'rganib olgan bo'lsa, bir kun vaqt(soati) kelib, tushunyapsizmi, vaqt(soati) kelib...

Shunday qilib, men xuddi faqat yelkan bilan suzadigan baliqchilar qayig'iga o'xshab dunyonи kezib yurdim. Lekin mening ko'zlarim doim ochiq, qulqlarim ding. Men hamma vaqt ko'p sayohat qilgan kishilarga yaqinroq yurdim, chunki ular men izlab yurgan odamlarni ko'rgan bo'lishlari mumkin. Men izlab yurgan odamlarni bir ko'rgan kishi unutishi mumkin emas. Pirovardida, men tog'dan tushib kelgan bir odamni uchratdim. Bu odam o'sha tomondan bir parcha toza tosh olib kelgan ekan. Bu parcha

toshda no‘xatdek-no‘xatdek oltinlar yiltirab turar edi. Bu odam haligi men qidirgan kishilar haqida eshitgan, ularni ko‘rgan, ularni bilarkan. Uning so‘ziga qaraganda, ular boy bo‘lib ketgan, oltin konlari topilgan joylarda yashar ekanlar.

U joy uzoq va vahshiy o‘lka. Men o‘sha yerga ham yetib bordim va qurilgan lagerlarni ko‘rdim. U yerda odamlar quyoshning yuzini ko‘rmay, kecha-yu kunduz ishlar ekanlar. Lekin hali fursat kelmagan edi. Men gap-so‘zlar ga qulq solib yurdim. U, bu yerdan jo‘nab ketgan, Unga ham u bilan birga Angliyaga ketgan ekan. Yerli odamlarning so‘ziga ko‘ra, bu yerga boy odamlarni boshlab kelib kompaniya tuzmoqchi ekan. Men ular turgan uyni ko‘rdim. Bu eski qit’ada bo‘ladigan qasrlarga o‘xhash bir bino edi. Ungaga nimalarni ehson qildi ekan, deb kechasi derazadan uyning ichiga tushdim. Butun xonalarni aylanib chiqdim, uy shu qadar bezatilganki, faqat podsholar va malikalargina bunday uylarda yashaydi, deb o‘yladim. Odamlar, uning Unga bilan qilgan muomalasi qirolning qirolichaga qilgan muomalasiga o‘xshaydi, der edilar. Ko‘plar, Unga qaysi xalqning farzandi, uning tomirida boshqacharoq qon bor ga o‘xshaydi, Unga boshqa Akatan xotinlariga o‘xshamaydi-ku, deb so‘rar edilar. Ha, Unga haqiqiy malika bo‘lib olgan, lekin men qabila boshlig‘i va qabila boshlig‘ining o‘g‘li edim, Unga uchun qulq eshitmagan qalin to‘laganman, teri, qayiqlar, marjonlar bergenman.

Ko‘p gapning nima keragi bor? Men dengizchi bo‘lib olgandim, kemalarning yo‘lini bilardim. Men Angliyaga, keyin boshqa o‘lkalarga bordim. Ba’zan qidirib yurgan odamlarim haqida hikoyalar eshitdim, gazetalarda yozganlarini o‘qidim, lekin o‘zlarini hech quvib yetolmadim. Chunki ular boy bo‘lganliklari uchun bir yerdan ikkinchi yerga tez o‘tib ketaverardilar, men esa kambag‘al edim. Keyinroq eshitsam, ular baxtsizlikka uchrabdi: ularning boyligi xuddi

kulga o‘xshab osmonga sovurilib ketibdi. Boshda gazetalar bu voqeani batafsil tasvirlab ko‘p yozdilar, keyin jim bo‘lib qoldilar. Lekin u Unga bilan birga oltin topish ko‘yida yana orqaga qaytib ketganligini yaxshi bilar edim.

Ular kambag‘al bo‘lib, nazardan g‘oyib bo‘ldilar. Men esa qishloqma-qishloq daydib yurdim va Kutneyda ularning iziga tushdim. Ular shu orolda bo‘lgan ekanlar, lekin ketib qolibdilar – birov bu tomonga ketdi, dedi, birov u tomonga ketdi, dedi, ba’zilari esa Yukon tomonga ketdi, deyishdi. Hamma yerni axtardim, eng oxirida bu tag-tubi yo‘q dunyoda u yoqdan bu yoqqa izg‘ib yurish meni charchatdi. Men juda og‘ir va uzoq yo‘l bosib, yana Kutneyga bordim. Och qolgan vaqtlarim ham bo‘ldi. Menga yo‘l ko‘rsatuvchi shimali-g‘arb tomonlik bir metis ochlikka chiday olmadi. Shu metis ilgari Yukonda bo‘lgan ekan. Vaqt-soatining yaqinlashib kelayotganini sezib, menga bir xarita berdi va bir yashirin joyning sirini aytdi. Bu yerda katta oltin zaxirasi bor, deb Xudoning nomiga qasamyod qildi. O‘sha vaqtarda hamma shimalga qarab intilardi. Men kambag‘al edim: pochta yulalarini tashiydigan it haydovchi bo‘lib yollandim. Qolganlari o‘zingiz bilasiz. Men ularni Dousonda uchratdim. Unga meni tanimadi, chunki Akatanda yashagan vaqtimda men yosh yigitcha edim, bu davr ichida uning kechirgan hayoti lazzatda, shon-shavkatda o‘tdi! Bir vaqtlar uning uchun qu-loq eshitmas qalin to‘lagan odamni qayerdan ham eslasin.

Undan keyinmi? Sen xizmatdan qutulishimga ko‘makkashding. Men ishni o‘z xohishimcha qilish uchun bu yerga qaytib keldim; men juda ko‘p kutdim, lekin endilikda u mening qo‘limda bo‘lganligidan, shoshilmadim. Yana takror aytaman, men o‘z bilganimcha ish qilmoqchi edim, chunki men orqamga, o‘z kechirgan umrimga, tortgan azob-uqubatlarimga qayrilib qarasam, rus dengizlari bo‘yidagi poyonsiz o‘rmonlarda bo‘lgan qahraton sovuqlar, och qolganlarim esimga tushadi. O‘zingiz bilasiz, men ularni, uni va Ungani,

sharqqa boshlab ketdim: u tomonga ko‘p odamlar ketgan, lekin juda oz kishilar qaytib kelgan. Men ularni orqasiga tirik qaytib kelolmagan inson suyaklari yotgan oltin konlari tomonga olib bordim. Hech kim hali bu oltinlarni u yerdan olib ketishga muyassar bo‘lolgani yo‘q. Yo‘l uzoq, poyonsiz qor sahrolarida yurish og‘ir. Itlarimiz ko‘p, lekin ular ko‘p ovqat yer edilar. Bahorgacha zarur bo‘lgan hamma narsalar chanalarga sig‘masdi. Biz ariqlar muzdan tozalanguncha qaytib kelishimiz kerak edi. Yukni yengillashtirish va qaytishda ochdan o‘lib qolmaslik uchun yo‘l-yo‘lakay ovqatlarimizning bir qismini yashirib boraverdik. Mak-Kveshchenda uch odam yashar ekan, ularga yaqin bir yerda biz oziq ombori qurdik. Xuddi shu ishni Meyoda ham qildik. U yerda Pelli qabilasiga qarashli ovchilarning manzili bor. Ular bu yerga janubdan, tog‘ dovonidan oshib kelgan ekanlar. Undan narida biz odam bolasini uchratmadik: bizning ko‘z oldimizda uyquga ketgan daryo, jimjit o‘rmon va op-poq Shimol sokinligi yotar edi.

Hali aytganimdek, yo‘limiz uzoq va og‘ir. Itlar yurishi uchun so‘qmoq tayyorlaymiz, deb kuni bo‘yi sakkiz-o‘n mildan ortiq yo‘l bosolmagan vaqtlarimiz ham bo‘ldi, kechalari esa toshday qotib uyquga ketardik. Bu odam chekkan g‘am-alamlari uchun qasos olmoqchi bo‘lib yurgan Akatan qabilasining boshlig‘i Naas-ku, degan fikr biror marta bo‘lsin yo‘ldoshlarimning xayoliga kelmadи.

Endi biz oz-ozdan zaxira qoldira bordik, kechalari esa men osonlik bilan tekislangan so‘qmoq yo‘l orqali qaytib kelib, ovqat zaxiralarini boshqa yerga yashirib qo‘yar edim. Buni ko‘rgan odam, oziqlarni o‘g‘ri rosomaxlar olib ketgan, deb o‘ylashi mumkin edi. Daryoda faqat suvning yuzi muzlagan joylari bo‘ladi, muzning ostidan esa hayqirib suv oqib turadi. Mana shunday joylarning birida men haydab ketayotgan chana muzning ostiga tushib ketdi. U ham, Unga ham, bu baxtsiz bir hodisadan boshqa narsa emas,

deb o'yladilar. Bu chanalarga ko'p oziq-ovqat ortilgan, yangi yaxshi itlar qo'shilgandi.

Lekin u faqat iljayar, chunki g'oyat sog'lom va baquvvat kishi edi. Tirik qolgan itlarga biz endi juda oz ovqat bera boshladik, borib-borib ularni bitta-bittadan chiqarib, qolganlariga ovqat o'mnida bera boshladik.

— Qaytishda chanasiz, itsiz qaytamiz, yukimiz yengil bo'ladi, — der edi u. — Bir oziq omboridan ikkinchisiga o'tib, osongina qaytamiz.

Shunday bo'lishi kerak edi ham, chunki oziq-ovqatimiz juda oz qolgan, suyaklar odamlar la'natlagan oltinlar bilan qorishib yotgan yerga borganimizda, eng oxirgi itimiz kechasi o'lib qoldi.

Tog'larning qoq yuragiga yetib olish uchun (xarita to'g'ri ko'rsatgan edi), tog' qoyalarida oyoq sirpanib ketmasligi uchun muzni o'yib, zinapoya qilishga to'g'ri keldi. Dovonning orqasida vodiy bor deb o'ylagan edik, yo'q ekan: atrofda tekis qor tepaliklari yoyilib, uzoqdagi tog'larning bahaybat oppoq cho'qqilarini ko'kka o'rlab yotardi. Mana shu tog'liklarning o'rtasida jarlik bo'lib, xuddi yer bag'riga tushib ketgandek ko'rinaridi. Biz dengizchi bo'limganimizda, bu manzarani ko'rib, boshimiz aylanib ketgan bo'lardi. Biz ana shu tubsiz jar ustida turib, pastga tushmoq uchun yo'l axtara boshladik. Dovonning faqat bir tomonida xuddi kuchli shamoldan qiyshayib ketgan kema palubasidek qoyalar yonboshlab pastga qarab tushgan. Qanday qilib yuzaga kelganini bilmayman, lekin manzara shunday ko'rinaridi.

— Bu jahannamning bo'sag'asi, — dedi u, — yuringlar, pastga tushamiz.

— Biz pastga tusha boshladik.

Jarlik ostida bir uycha bor ekan. Bu uyni kimdir yognochdan solgan. Bu yog'ochlarni u tog' tepasidan tashlagan bo'lsa kerak. Uy juda eski edi. Odamlar bu yerda yakka-yak-

ka o'lganlar. Ularning turli vaqtarda muz toshlariga o'yib tushirilgan o'limoldi so'zlarini va la'natlarini o'qidik. Biri singa kasali bilan o'lgan. Boshqa birining o'rtog'i eng oxirgi ovqat, o'q-dorilarini o'g'irlab qochgan; uchinchisini ayiq parchalab tashlagan. To'rtinchisi, ov qilmoqchi bo'lgan, lekin oxirida ochlikdan o'lib ketgan. Hammasi ham shu tarzda hayot bilan xayrashgan; ular oltindan ajralgilari kelmay, har biri o'z o'limi bilan dunyodan o'tgan. Ularga endi hech kerak bo'limgan oltinlar uy ichida sochilib yotibdi.

Lekin men shunchalik uzoqqa olib borgan odamning joni qattiq, kallasi esa yaxshi ishlar edi.

— Yemoq uchun hech narsamiz yo'q, — dedi u. — Shuning uchun biz faqat mana shu oltinlarni bir ko'ramiz, bu oltinlar qayerdan kelgan, ko'pmi-ozmi tekshirib chiqamiz.

Shundan keyin bu oltinlarning yarqirashi ko'zlarimizni ko'r qilib, aqldan ozdirmasdan turib, darrov orqaga qaytamiz. Ko'p oziq-ovqat g'amlab, keyin qaytib kelamiz. Bu oltinlarning hammasi shunda bizniki bo'ladi.

Shunday qilib, biz oltin behisob bo'lgan ana shu uyni boshdan oyoq ko'zdan kechirib chiqdik, o'lchadik. Tepadan pastga qarab chiziq tortdik, qoziq qoqdir va huquqimiz borligini isbot qilish uchun alohida belgilar qilib qo'ydik. Ochlikdan tizzalarimiz bukilar, ko'nglimiz aynir, yuraklarimiz notinch urar edi. Shunday bo'lsa ham biz tirmashib, jar tepasiga chiqdik va orqaga qaytdik.

Yo'lning oxirgi qismida biz Ungani ko'tarib oldik. O'zimiz ham zo'rg'a qadam bosib borar edik. Pirovardida biz birinchi ozuqa omborimizga yetib keldik. Hayhot, u yerda oziq-ovqat yo'q edi! Men ustalik bilan ish ko'rgan edim. U, bu rosomaxlarning ishi, deb o'yladi va ularga la'natlar o'qidi. Lekin Unga ruhan bardam edi, uning qo'llarini ushlab tabassum qilardi. Men shunday paytlarda sirimni fosh qilib qo'yishdan qo'rqib, yuzimni o'girar edim.

– Biz tunni gulxan oldida o'tkazamiz, – dedi Unga, – mokasinlarimizni¹ qaynatib, qornimizga biroz orom beramiz.

Biz etik qo'njlaridan tilim-tilim qilib kesdik va chay-nash mumkin bo'lsin uchun kechasi bilan qaynatdik. Er-talab endi nima qilsak ekan, deb o'ylab qoldik. Ikkinci omborga yetguncha yana besh kunlik yo'l bosish kerak. U yerga yetib borish uchun bizda mador yo'q. Ov topish kerak edi.

– Oldinga qarab boraveramiz, yo'lda ov qilamiz, – dedi u.

– Ha, olg'a qarab boraveramiz va ov qilamiz, – deb takrorladim men.

„Unga o't oldida qolib kuchini saqlasin“, deb buyruq berdi u. Biz esa yo'lga tushdik. U bug'u axtarib ketdi, men bo'lsam ovqat yashirib qo'ygan tomonga qarab ketdim. Lekin men, ular quvvat paydo qilganimni bilmasin, deb ozgina ovqat yedim. Gulxan yoqqan joyga qaytib kelar ekanman, uni ko'rdim: u tez-tez yiqilar edi. Men ham sirni boy bermaslikka tirishib, o'zimni juda holdan toygan qilib ko'rsatish uchun chang'ida borayotib, tez-tez qoqilar va har bir qo'ygan qadamim eng oxirgi qadamga o'xshardi. Biz yana mokasin qaynatib yeb, oz-moz quvvatga kirib oldik.

U juda baquvvat odam. Uning ruhi so'nggi daqiqalarga-chá gavdasini tik ushlab berdi. U zorlanmas va faqat Unga haqida o'ylar edi. Ikkinci kuni o'lganini ko'rib qolay deb uning orqasidan bordim. U dam olish uchun tez-tez yotib olardi. Shu kecha uning ahvoli juda og'irlashdi, lekin erta-lab turib, zaif tovush bilan so'kindi-da, yana yo'lga tushdi. U xuddi mastga o'xshardi. Men bir necha marta mana endi – hozir joni chiqadi, deb o'ylardim. Lekin u baquvvatlarning baquvvati edi. Uning joni gigantning jonidek, chunki gavdasini uzun kun bo'yi ko'tarib yurdi. U ikki-

¹ Mokasin – bug'u terisidan tikilgan uzun qo'njli etik.

ta oq qirg‘ovulni otib tushirdi, lekin yemadi. Qirg‘ovulni pishirmsandan, xomligicha yeyish mumkin, shunda u omon qolarmidi... lekin uning fikr-u xayoli Ungada. U yana turish joyimizga qarab jo‘nadi. U endi tikka turib yurmas, balki to‘rt oyoqlab qor ustida emaklab borardi. Men unga yaqinlashdim, uning ko‘zlarida o‘lim alomatini ko‘rdim. Agar u haligi qushlarni yeganda, qutulib qolishi mumkin edi. Lekin miltig‘ini uloqtirib tashlab, xuddi itga o‘xshab qushlarni tishlab ketaverdi. Men uning yonida borardim. U dam olish uchun to‘xtagan paytlarida menga tikilib qarar va tetikligimga taajjublanardi. Men buni tushundim, chunki u ortiq so‘zlay olmas, lablari qimirlar, lekin hech tovush chiqara olmasdi. Yana qaytarib aytaman, u juda baquvvat odam, menda rahm-shafqat hissi uyg‘ondi, lekin men butun umrimni ko‘z oldimga keltirdim; rus dengizlari yaqidagi poyonsiz o‘rmonlarda yurganlarimni, qattiq sovuq va ochlikda kechirgan kunlarimni esladim. Buning ustiga Unga meniki edi. Men Unga uchun quloq eshitmagan qalin to‘lagandim – teri, qayiq va marjonlar bergandim.

Xullas, biz oppoq o‘rmondan o‘tib borar va xuddi dengiz tumani singari atrofimizni dahshatli sokinlik o‘rab olgandi. O‘tmishning esdaliklari ham ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘ldi. Akatanning sariq qirg‘oqlari, baliq ovidan qaytib kelayotgan qayiqchalar, o‘rmon chetidagi uylar ko‘z oldimdan bir-bir o‘ta boshladi. Mening xalqimga qonun bergen, keyin xalqimga boshliq bo‘lib olgan, mening, ayni damda xotinim Uganining tomirlarida qonlari yurayotgan kishilar ham ko‘z oldimga keldi. Shu qatorda boshlariga ho‘l qum sochilgan va hali ham singan nayzani o‘z qo‘lidan qo‘yib yubormagan Yash-Nush ham men bilan bir safda borardi. Vaqt-soat yaqinlashganini bildim, lekin Uganining qarashlarida va’da alomati borligi ham menga ma’lum edi.

Hali aytganimdek, biz o‘rmondan bormoqda edik, keyin gulxandan kelayotgan tutun dimog‘imizni qichitdi. Men

engashib dushmanim og‘zidan qushchalarni yulib oldim. U aylanib, hayrat ko‘zlar bilan menga qaradi va qo‘li yonida osilgan pichoqqa cho‘zildi. Men kulib, uning ko‘ziga tikildim va qo‘lidan pichoqni tortib oldim. Shunda ham u hech narsa tushunmadi. Keyin bir vaqtlar meni qora shishalardagi suv bilan mast qilganini esiga tushirdim, qor ustiga uyilgan mollarni, umuman, o‘sha to‘yim kechasi nimayiki ish yuz bergen bo‘lsa, hammasini ishoralar bilan ko‘rsatdim. Men bir og‘iz ham so‘z aytmadim, bu gal u tushundi, lekin qo‘rqmadi. Uning lablarida masxarali tabassum, ko‘zlarida g‘azab o‘ti yonardi. Mening so‘zlarim unga yangi kuch berdi. Biz manzilga yaqinlashib qoldik. Qor qalin bo‘lgani uchun u zo‘rg‘a sudralib borardi. Bir marta u anchagacha qimirlamay yotdi, men uni ag‘darib, ko‘ziga qaradim. Uning ko‘zlaridagi hayot goh so‘nar, goh yana paydo bo‘lar edi. Men uni qo‘yib yuborgan edim, u yana emaklab ketdi. Shunday qilib, biz gulxanga yetib keldik. Unga uning quchog‘iga tashlandi. Uning lablari qimirlar, lekin hech tovush chiqarolmasdi. Keyin meni Ungaga ko‘rsatdi, so‘ngra u ohista qorga ag‘darildi. Hozir ham shu holicha yotibdi.

Qushchalar pishib, tayyor bo‘lguncha, men bir so‘z ham aytmadim. Keyin men Unga ko‘p yillardan beri eshitmagan o‘z ona tilimizda so‘zlay boshladim. Unga to‘g‘rilanib oldi va hayrat bilan ko‘zlarini katta ochib menga qaradi. U men dan kim ekanligimni va bu tilni qayerdan o‘rganganligimni so‘radi.

– Men Naasman, – deb javob berdim.
– Sen-a? – deb qichqirib yubordi u va menga yaqinroq o‘rmalab keldi.

– Ha, – deb javob berdim men. – Men Naasman, Akatan qabilasining boshlig‘iman, o‘z urug‘imda eng oxirgi vakil bo‘lganim kabi, sen ham o‘z urug‘ingda oxirgi vakilsan.

U kulib yubordi. Bunday kulgini ikkinchi bor aslo eshitmay! Dahshatdan yuraklarim qinidan chiqib ketayozdi.

Men Oppoq Sokinlikda o'lim bilan, meni masxara qilib kulyotgan ana shu xotin bilan yolg'iz o'tirar edim.

— Tinchlan, — dedim men, uni alahlayapti deb gumon qilib, — biroz quvvatga kirib ol, bu yerdan ketamiz, Akatan yo'li uzoq.

Lekin u murdaning sap-sariq yollariga yashirinib oldida, yana kula boshladi. U shunday kular ediki, nazarimda, ish yana biroz shunday davom etsa, boshimizga osmon yiqilib tushadiganday tuyuldi. U meni ko'rib quvonchga to'lar va o'tmishni esiga tushirganda yana o'z joyiga qaytishni xohish qilar, deb o'ylagan edim, lekin hech kim o'z quvonchini bunday g'alati kulgi bilan izhor qilmaydi.

— Yur! — deb baqirib yubordim men qo'lidan mahkam ushlab. — Tun qorong'iligida uzoq yo'l bosishimiz kerak. Shoshilish kerak!

— Qayoqqa? — deb so'radi Unga o'midan qimirlab. Uning yuzidagi kulgi yo'qoldi.

— Akatanga, — dedim men unga. Shu so'z bilan uning chehrasi yana ochilib ketar, deb kutib turdim. Lekin Unga ning yuzida ham masxarali tabassum va g'azab ifodasi ko'rindi.

— Ha, — dedi Unga, — biz qo'l ushlashib Akatanga qaytamiz. Sen bilan men. Yana iflos uylarda yashab, baliq va tulen yog'i bilan kun ko'ramiz, o'zimizga o'xshagan bolalarni ko'paytiramiz va umr bo'yi ular bilan faxrlanib yuramiz. Biz katta dunyoni unutamiz. Biz juda baxtli bo'lamiz. Qanday yaxshi! Qani, ketdik! Shoshilish kerak! Akatanga qaytamiz.

Unga o'likning sariq sochlarini qo'llari bilan siladi-da, xunuk kulgisini yana boshlab yubordi. Uning ko'zlarida va'dadan asar ham yo'q edi.

Men xotinlarning bunday g'alati qiliqlari bo'lishiga tushunolmay hayron bo'lib, jim o'tirdim. To'y bo'ladigan kechasi u Ungani sudrab ketgani, Unga uning sochlarini yulgani

esimga tushdi. Hozir esa Unga o‘z qo‘llarini uning sochlaridan olgisi kelmaydi. Yana men Unga yo‘lida o‘tkazgan va intizor chekkan uzoq yillarni esimga tushirdim. O‘sha vaqt-da arslon yolli Ungani qanday qilib ko‘targan bo‘lsa, men ham shunday qildim – Ungani dast ko‘tarib olib ketdim. Le-kin Unga xuddi o‘sha tundagi singari – oyog‘ini tirab o‘jarlik qilar va bolalaridan ajralayotgan ona mushuk kabi menga chang solar edi. Biz bilan o‘lib yotgan kishi o‘rtasida gul-xan to‘g‘ri kelib qoldi. Men Ungani qo‘yib yubordim. Unga mening so‘zimga qulqoq sola boshladи. Men unga hammasini; yet dengizlarda boshimdan o‘tgan sarguzashtlarimni, yet mamlakatlarda ko‘rgan kunlarimni, izlashlarim; ochlik bilan o‘tkazgan yillar va Uunganing birinchi marotaba menga bergen va’dasini eslatib, hammasini birma-bir so‘zlab berdim. Ha, men unga hammasini, hatto o‘lgan odam bilan mening o‘rtamda bo‘lgan shu bugungi suhbatni ham gapirdim. Men hikoya qilar ekanman, uning katta ochilgan ko‘zlarida xuddi o‘ziga tortuvchi tong shafag‘i kabi va’da uchqunlari paydo bo‘la boshlaganini ko‘rdim. Men bu ko‘zlarga qarab, Uunganing ko‘zlarida rahm-shafqat, mehr, yuzida latofat belgilari-ni ko‘rdim, qalbidagi hislari yuziga chiqqandek bo‘ldi. Men yana yosh yigitga aylandim, chunki bu qarash Uunganing qarashi, bu qarash lablarda tabassum sochib, qirg‘oq bo‘ylab uyiga chopib ketayotgan o‘sha ilgarigi qizning qarashi edi. Barcha azob-uqubatlar, ochlik va og‘ir intizorlik alamlari bir zumda yo‘qoldi. Vaqtsoati yetdi. Unga meni chaqirayotganday bo‘ldi. Faqat uning tizzasiga bosh qo‘yish va hamma narsani unutishgina qolgandi. U menga qarab quchog‘ini ochdi, men unga tashlandim. Birdan uning ko‘zlarida nafrat o‘ti charaqlab ketdi va qo‘li mening biqinimga cho‘zildi. Keyin u meni pichoq bilan mana bunday qilib bir-ikki urdi.

– Itvachcha! – deb qichqirdi u meni qorga itarib yubo-rib. – It! – So‘ng uning kulgisi sokinlikda yana jaranglab ketdi. Keyin Unga anavining murdasi oldiga qaytib bordi.

Hali aytganimdek, u meni pichoq bilan ikki marta urdi, lekin ochlikdan zaiflashib qolgani sababli, taqdir bu gal ham menga o'limni ravo ko'rmagan ekan. Shunday bo'lsa ham men o'sha yerda qolib, ko'zlarimni yumib, abadiy uyquga ketmoqchi edim. Meni notanish yo'llardan yurgizgan, notanish o'ikalarga olib borgan, hayotlari mening hayotim bilan chirmashib ketgan mana shu odamlar bilan birga qolmoqchi edim. Lekin mening bo'ynimda qarz bor edi, shuning uchun narigi dunyoga safar qilish haqida o'ylashga hali vaqt erta.

Yo'llar uzoq, qahraton sovuq, ovqat oz edi. Pelli qabilasidan bo'lgan ovchilar ov qilishga hech narsa topolmasdan, mening oziq omborimni o'g'irlab ketibdilar. Men aytgan uchta oq odam Mak-Kveshchandagi omborni ham shunday qilibdilar. Lekin men uy oldidan o'tib ketayotib ularning o'lib yotganlarini ko'rdim. Undan keyin men hech narsani eslay olmayman – qanday qilib bu yerga kelganimni, qanday qilib ovqat va issiqlik topganimni bilmayman.

So'zini tamom qilgach, u pechkaga yaqin surildi. Yonib turgan qora chiroq qarshidagi devorga allanechuk qo'r-qinchli soya tashlab turardi.

– Unga nima bo'ldi? – dedi Prins hikoyadan dahshatga tushib.

– Ungami? Unga qirg'ovulni yekishdan bosh tortdi. Unga uning bo'ynidan quchoqlab, yuzini arslon yollariga surib yotib oldi. Men issiq bo'lsin deb gulxanni unga yaqinlashtirgan edim, u boshqa tomonga emaklab o'tib oldi. Men boshqa o't yoqdim, bu ham foyda bermadi. U ovqatdan bosh tortdi, axir! Ikkalasi hali ham o'sha yerda, qor ustida yotishibdi.

– Xo'sh, sen-chi? – deb so'radi Meylmyut Kid.

– Men nima qilishimni bilmayman. Akatan kichkina o'lka, u yerga qaytib borish va dunyoning bir chekkasida yashash istagim yo'q. Endi yashashimning nima keragi bor? Men kapitan Konstantayning oldiga qaytib boraman,

u yerda qo'llarimga kishan urib, bo'ynimga arqon soladilar-da, mana bundoq qilib dorga osadilar; shunda men abadiy uyquga ketaman... To'g'risi... yo'q, bilmayman.

– Menga qara, Kid! – dedi Prins g'azab bilan. – Axir, bu odam o'ldirish-ku!

– Jim bo'l! – dedi Kid jiddiy ravishda. – Shunday narsalar borki, ularga bizning aqlimiz yetmaydi.

Bunda kim haqli, kim aybdor ekanini biz bilmaymiz. Bu haqda hukm chiqarish bizning ishimiz emas.

Naas o'tga yana biroz yaqinlashdi. O'rtaga jimlik tushdi. Mana shu sokinlikda o'tirgan uch kishining ko'z oldilariidan kechmisning xayollari bir-bir o'ta boshladi.

AYOL KISHINING MARDLIGI

Ko‘zлari ma’yus mo‘ltiragan bo‘rikalla it chodir etagini u yoq-bu yoqqa surib, qirov bosgan tumshug‘ini ichkari suqdi.

– Ey, Sivash! Yo‘qol-ey, padaringga la’nat! – deb qichqirdilar norozilik bilan chodirdagilar baravariga. Bettlz tunuka lagancha bilan itning tumshug‘iga tushirdi, itning boshi bir zumda g‘oyib bo‘ldi. Lui Savoy eshik o‘rnini o‘taydigan chodirning brezent to‘sиг‘ini bostirib qo‘yida, oyog‘i bilan qizib turgan tovani ag‘darib, unga qo‘lini tutib isita boshladi.

Sovuq juda qattiq edi. Ikki kun ilgari spirtli termometr oltmisht sakkiz gradus sovuqni ko‘rsatdi-yu, paqqa yorilib ketdi. Sovuq borgan sari kuchayib borardi. Bunday sovuqlar qachongacha davom etishini aytib bo‘lmasdi. Shunday vaqt-larda issiq pechkadan uzoqda bo‘lishni va jon achituvchi muzday havodan nafas olishni dushmaningga ham ravo ko‘rmaysan, kishi! Mana shunday sovuqda ham tashqari-ga chiqishga jur‘at qilgan dovyuraklar ham topilib qoladi, lekin buning oqibati o‘pkani sovuq oldirishga olib bora-di; kishini quruq va kuchli yo‘tal bo‘g‘a boshlaydi, yaqin orada yog‘ qizitilsa, yo‘tal, ayniqsa, kuchayadi. Keyin bahorga yoki yozga borib esa muzlagan yerni portlatib, go‘r qaziydilar. Murdani go‘rga qo‘yadilar va ustini chim bilan yopib, shu holicha qoldiradilar. Bu murda sovuqda yotib to qiyomatgacha bus-butun saqlanib qoladi, deb chin yurakdan

ishonadilar. Qiyomatda odamning tirilishiga ishonmaydigan skeptiklarga o'lish uchun Klondaykdan tuzukroq joyni tavsiya qilish qiyin, albatta. Lekin bundan, Klondaykda yashash ham yaxshi ekan, degan xulosani chiqarib bo'lmaydi.

Palatkaning ichi tashqaridagidek sovuq bo'lmasa ham, juda issiq ham emasdi. Chodir ichida uy jihozi desa bo'ladi-gan birdan bir narsa pechka bo'lganidan, hamma uning atrofiga to'plangan edi. Chodir ichidagi joyning bir qismiga qarag'ay shoxlari solingan, osti qor shoxlarning ustiga yana yung adyollar to'shalgan. Chodirning boshqa bir tomonida, mokasinlar bilan bosilgan qor ustida dekcha, tova va qutb manzilida zarur bo'lgan boshqa narsalar sochilib yotardi. Qip-qizil cho'g' bo'lib ketgan pechkada o'tin chars-churs qilib yonib yotar, lekin undan uch qadam narida muz par-chalari yotardi; ular shunday qattiq ediki, xuddi hozirgina daryo yuzidan o'yib keltirilgandek. Tashqaridan g'irillab sovuq kirib turganidan palatkadagi hamma issiq yuqoriga ko'tarilardi. Pechkaning qoq yuqorisida, shipning mo'ri chi-qadigan joyida bir parcha quruq brezent oqarib ko'rindi. Undan narida brezent nam bo'lib, undan bug' chiqib turibdi.

Undan ham yuqoriqda jiqqa ho'l brezentdan suv tom-chilab turardi. Palatka shipining qolgan qismini va devorlari bir enlik oppoq quruq qirov qoplagan.

– A-a-ah! O-o-oh. Voy-voy-vooy! – deb ingrab yubordi uyqusida jun adyolga o'ralib yotgan yigitcha. Uning oriq va so'lg'in yuzini soqol bosgan. U uyqudan uyg'onmay turib og'riqdan borgan sari battar ingrardi. Adyoldan chiqib turgan gavdasining yarmi xuddi tikanak ustida yotgandek bezovtalik bilan to'lg'anayotgani ko'rini turardi.

– Qani, uni yonboshiga ag'darib qo'ying-chi! – deb bu-yurdi Bettlz. – Yana tutqanog'i tutib qoldi.

Shunda oltita o'rtog'i bir bo'lib kasalning to tutqanog'i o'tguncha shafqatsiz ravishda u yoqdan bu yoqqa ag'dardilar, ezdilar va kaltakladilar.

– Padariga la’nat shu qorli yo‘llarning! – deb ming‘irladi yigit va ustidan adyolini olib tashlab, turib o‘tirdi. – Uch qishgacha surunkasiga o‘lkaning boshdan oyog‘ini kezib chiqdim – jismoniy jihatdan ko‘nikkan bo‘lishim kerak edi, axir! Endi mana shu la’nati o‘lkaga kelib ko‘rsam, sovuqqa dosh berolmaydigan allaqanday xotinchalishlarga o‘xshagan nozik ekanman.

U pechkaga yaqinlashib moxorka o‘ray boshladи.

– Meni, hadeb g‘ingshiyveradigan odam ekan, deb o‘ylamanglar! Yo‘q, men har qanday sharoitga ham bardosh bera olaman. Lekin hozir uyatga qolib o‘tiribman, ko‘rmaysizmi. Ko‘p bo‘lsa o‘ttiz mil yo‘l bosgandirman. Mana endi xuddi shahar atrofiga sayrga chiqib besh mil yo‘l bosib kelgan bemorga o‘xshab hamma yog‘im qaqshab ketyapti, kasal bo‘lib o‘tiribman! Shunday ham bemazagarchilik bo‘ladimi!.. Kimda gugurt bor?

– Qizishma, yigitcha! – deb Bettlz gugurt o‘rniga kasalga cho‘g‘ tutdi va nasihatomuz davom etdi. – Seni kechirsa bo‘ladi, hamma ham shunday sinovlardan o‘tadi. Char-chagansan, qiynalgansan! Birinchi qilgan sayohatim hali esimdan chiqqani yo‘q. So‘log‘im o‘ynab ketgan! Muzni yorib ichasan-da, o‘rningdan turguncha ancha urinasan. Bo‘g‘in-bo‘g‘inlaring bo‘shashib ketadi, suyaklaring shunday zirqirab og‘riydiki, ba’zan aqldan ozay deysan. Tomir tortishini aytmaysanmi? Ba’zan shunday tortib qoladiki, qaddimni rostlaguncha butun manzil yarim kungacha ustimda o‘lib bo‘ladi! Hali yoshsan, ammo, barakalla, tirishtqoq, o‘t yigit ekansan! Jussang ham joyida, asosiy masala shunda: senda ortiqcha yog‘ yo‘q, o‘shani deb ko‘pgina sog‘lom yigitlar vaqtidan oldinroq narigi dunyoga safar qiladilar.

– Yog‘ning ortiqligidanmi?

– Ha, ha. Kimning suyaklari ko‘proq yog‘ va go‘sht bilan qoplangan bo‘lsa, yo‘l azobiga bardosh berolmaydi.

– Buni bilmas ekanman!

– Bilmas edingmi? Bu rost gap, shubha qilmasang ham bo‘ladi. Shunday devqomat odamlar bo‘ladiki, ular bir zumda o‘z zo‘ravonliklarini ko‘rsatishlari mumkin, lekin chidamga kelganda, qayda deysan. Bunday odamlardan umid qilma! Serpay, ozg‘in odamlargina pishiq bo‘ladi. Itning og‘zidan suyakni tortib olsang olasanki, ular yopishgan narsani tortib ololmaysan. Yo‘q, semiz odamlar bu ishga yaramaydi.

– Haq so‘zni gapirding, – deb so‘zga aralashdi Lui Savoy. – Men qo‘tosdek baquvvat bir kishini bilardim.

Shimoliy chashma tomonda yerlar bo‘linib, qoziq qoqilayotganda, haligi yigit Lyun Mak-Feyn bilan birga o‘sha tomonga jo‘nadi. Lon esingdami? Kichkina sariq irlandiyalik, hamma vaqt iljayib yurardi. Ular yo‘lga tushibdilar, bir kecha-kunduz yo‘l bosibdilar. Haligi semiz odam holdan toyib, qorga yotib olavergan. Nozikkina irlandiyalik uni turg‘azsa, sudrasa, u xuddi chaqaloqdek yig‘lar emish. Shu tarzda butun yo‘l bo‘yi Lon uni sudrab, qistab borgan va men turgan manzilga olib kelgan. Mening uyimda u uch kungacha ko‘rpa-yostiq qilib yotdi. Erkak kishi shu qadar xotinchalish bo‘ladi, deb sira o‘ylamagan edim. Ortiqcha yog‘ mana shunday yomon oqibatlarga olib keladi.

– Aksel Gunderson-chi? – deb so‘radi Prins. O‘sha skandinaviyalik devqomat yigit va uning fojiali o‘limi yosh muhandisga juda ta’sir qilgan edi. – U anavi tarafda, allaqayerlarda yotibdi... – deb Prins qo‘lini noaniq silkib, sirli sharq tomonni ko‘rsatdi.

– Yirik odam edi, Sho‘r Suv sohillaridan bu yerlarga kelib, bug‘u ov qilgan odamlar ichida eng yirigi edi, – deb qo‘sib qo‘ydi Bettlz. – Lekin u boyagi gapimizni tasdiqlovchi istisno edi. Uning xotini Unga esingdami? Uning badanida bir misqol ham ortiqcha yog‘ yo‘q, turgan-bitgani pay edi. U eridan ham mardona edi. Ana o‘sha xotin boshiga

tushgan barcha og‘irchilikka chidadi, faqat erini o‘ylar edi. Eri uchun desang, u hech narsadan ham bosh tortmas edi.

– Nima bo‘libdi shu bilan, Unga erini yaxshi ko‘rar edi-da, – deb qo‘ydi muhandis.

– Gap unda emas, axir! U xotin...

– Menga qaranglar, birodarlar, – deb oziq-ovqat solingan yashik ustida o‘tirgan Sitka Charli gapga aralashdi. – Siz bu yerda baquvvat, sog‘lom odamlarni zaif qilib qo‘yadigan ortiqcha yog‘ haqida, xotinlarning mardligi va sevgi haqida gapirdinglar; yaxshi suhbat qurdinglar. Men hozir bir erkak bilan bir ayolni esladim. Ularni hali bu yerlar kam o‘zlashtirilgan, odamlar yoqqan gulxanlar osmondagи yulduzlar kabi siyrak bo‘lgan zamonalarda uchratgan edim. Erkak gavdali, sog‘lom edi, lekin unga hali siz ortiqcha yog‘ degan narsa xalaqit berardi, shekilli. Xotin esa nozikkina, lekin uning yuragi katta edi, buqaning yuragidek keladigan erkakning yuragidan ham kattaroq edi. Shuning uchun ham u ayol juda mardona edi. Biz Sho‘r Suv tomonga bormoqda edik, yo‘l og‘ir, achchiq sovuq, qalin qor va ochlik bizning yo‘ldoshimiz edi. Lekin bu xotin erini buyuk muhabbat bilan sevardi – bu sevgini faqat shunday deb atash mumkin.

Sitka jim qoldi. U bolta bilan oldida yotgan muzdan bir necha bo‘lagini chopib oldi-da, pechka ustida turgan tunuka novga tashladi – shu yo‘l bilan ular ichish uchun suv tayyorlar edilar. Erkaklar yaqinroq surildilar, kasal yigit esa tutqanoqdan keyin badani qattiq og‘rimasin uchun zo‘r berib o‘ng‘ayroq o‘tirib olishga tirishar edi.

– Birodarlar, – deb davom etdi Sitka, – mening tomirlarimda sivashlarning qizil qoni oqib yotibdi, lekin yuragim oq tanli odamlarnikidan. Birinchisi – otalarimning aybi, ikkinchisi do‘sstarimning yaxshiligidan. Hali yosh bola ekanimdayoq ko‘zlarim achchiq haqiqatni ko‘rdi. Men hamma yer sizlarniki ekanligini, sivashlar oqlarga qarshi kurashmoqqa quvvati kelmasligini, qorlar orasida xuddi ayiq va

bug‘ular singari o‘lib ketishini angladim. Ana shundan keyin issiq joyga kelib, sizlarning o‘rtangizdan, sizning o‘chog‘ingiz oldidan joy oldim-da, siz bilan aralashib ketdim. Men o‘z umrimda ko‘p narsani ko‘rdim. Men g‘alati narsalarni ko‘rdim, turli qabila odamlari bilan ko‘p yo‘llarni bosib o‘tdim. Odamlar va qilingan ishlar haqida siz kabi hukm yuritib, siz kabi o‘ylay boshladim. Shuning uchun ham, agar men biror oq odam haqida yomon gap gapirsam, mendan xafa bo‘lmasligingizni bilaman. Bordi-yu, otalrim qabilasidan biror kishini maqtaydigan bo‘lsam, siz: „Sitka Charli – sivash, uning ko‘zлари haqiqatni ko‘rmaydi, uning tili yolg‘on so‘zlarni aytyapti“, deb aytmaysiz. Shundoq emasmi?

Tinglovchilar g‘o‘ng‘illab, uning so‘zini tasdiq qildilar.

– U ayolning oti Passuk edi. Men uni o‘z qabilasidan yaxshigina pulga halol sotib oldim. Bu qabila suvi sho‘r bir ko‘rfazga yaqin joyda, sohilda yashar edi. Xotin ko‘nglimga yoqmasdi, ko‘zlarim unga qarashni istamasdi, uning ko‘zi doim yerga tikilgan, yot kishining qo‘liga tushib qolgan va ilgari bu odamni hech ko‘rmagan hamma qizlar singari tortinchoq va qo‘rqoqday ko‘rinar edi. Men aytganimdek, bu xotin yuragimdan joy ololmadi. Lekin men uzoq safarga hozirlanayotgan edim, menga itlarimni boqadigan, daryoda suzganimda eshkak tortishadigan bir yordamchi kerak edi. Bir ko‘rpaga ikki kishi ham sig‘averadi, shuning uchun men Passukni tanladim. U vaqtarda hukumat xizmatida edim, deb aytdim shekilli? Shuning uchun ham meni channalar, itlar va oziq-ovqat zaxiralari bilan birga harbiy kemaga oldilar; Passuk ham men bilan birga edi. Biz shimol tomonga, Bering dengizi muzliklari tomon yo‘lga chiqdik. O‘scha yerda bizni – meni, Passukni va itlarni kemadan tushirdilar. Hukumat xizmatchisi bo‘lganimdan menga pul, o‘scha yerning hali odam qadam bosmagan joylarining xartalarini va xatlarni berdilar. Xatlar yaxshilab muhrlangan va

qor-yomg‘irdan saqlash uchun yaxshilab o‘ralgan edi. Men bu xatlarni buyuk Makkenzi daryosiga yaqin joyda muzlar orasida qolgan kit ovlovchi kemalarga yetkazishim kerak edi. Daryolarning onasi bo‘lgan bizning Yukonni hisobga olmaganda, dunyoda Makkenzidan kattaroq daryo yo‘q.

Lekin gap bunda emas, chunki kit ovlovchi kemalar ning ham, Makkenzi daryosi sohillarida men o‘tkazgan qahraton qishning ham hozir so‘zlab beradigan hikoyamga hech qanday aloqasi yo‘q. Bahor kelib, kunlar uzayib qolgandan keyin Passuk ikkovimiz janubga, Yukon sohillariga jo‘nab ketdik. Bu juda og‘ir sayohat bo‘ldi, lekin quyosh bizga yo‘lni ko‘rsatib turdi. Hali aytganimdek, bu tomonlar u vaqtida bo‘m-bo‘sh, kimsasiz joylar edi. Biz daryoning oqimiga tushib olib goh tayoq, goh eshkak yordami bilan suzib ketaverdik va axiyri Qirqinchi Milga yetib bordik. Yana qaytib oq tanlilarning oq yuzlarini ko‘rish biz uchun quvonchli edi. Biz sohilga tushdik.

O‘sha qish juda sovuq bo‘ldi. Sovuq bilan birga ochlik ham kelib yetdi. Kompaniyaning agenti odam boshiga qirq qadoqdan un va yigirma qadoqdan go‘sht berdi, xolos. Loviya mutlaqo yo‘q edi. Itlar doim zorlanib uvullashar, odamlarning qorni qapishib, yuzlarini ajin bosib ketdi. Baquvvat odamlar zaiflashar, zaiflar o‘lardi. Qishloqda singa avj oldi.

Bir kuni kechqurun biz do‘konga bordik va bo‘sh pesh-taxtalarni ko‘rib, qorinlarimiz battar ochdi; biz sham yoqmay o‘choqqa yoqilgan o‘t yorug‘ida asta suhbatlashib o‘tirdik, chunki sham bahorga qadar tirik qoladigan odamlar uchun saqlab qo‘yilgan edi. Biz o‘zimizning qanday og‘ir ahvolda qolganimizni bildirish uchun Sho‘r Suvga biror kishini yuborish kerak degan qarorga keldik. Shunda odamlarning hammasi menga qarashdi, ular tajribali sayo-hatchi ekanimni bilishganidan, menga ishonch bildirdilar.

– Daryo sohilidagi Xeys missiyasi bu yerdan yetti yuz

mil joyda, – dedim men, – butun yo‘lni chang‘i bilan bosish kerak. Menga eng yaxshi itlaringizni va eng yaxshi ovqatlariningizni bersangiz, mayli boraman. Passukni birga olib ketaman.

Odamlar rozi bo‘lishdi. Lekin shu vaqt gavdali, baqvuvvat amerikalik yigit – Novcha Jeff o‘rnidan turdi. U maqtanib gapirdi. U: „Men ham juda yaxshi yura olaman, men xuddi chang‘ida yurish uchun yaratilganman, ona qo‘tossining sutini ichib katta bo‘lganman, – deb arz qildi. – Men ham birga boraman, agar yo‘lda halok bo‘lsang, men missiyaga borib, topshiriqni bajaraman“, dedi. Men u vaqtida ancha yosh edim, yankilarni yaxshi bilmasdim. Maqtanchoqlik bilan aytilgan gaplar zaiflikning birinchi belgisi ekanini, katta ishlar qo‘lidan keladigan odam tilini tiyib yurishini u vaqlarda qayoqdan ham bilay! Shunday qilib, biz eng yaxshi itlarni va yaxshi ovqatlarni olib, Passuk, Novcha Jeff va men uchovimiz yo‘lga tushdik.

Hammamiz ham chang‘ida qor orasidan yo‘l ochishimiz kerak bo‘ldi, muzlab qolgan chanalarni o‘rnidan siljitimiz va muz to‘silalarini yorib o‘tishimiz kerak edi. Shuning uchun men yo‘l qiyinchiliklari haqida ko‘p gapirib o‘tirmayman. Lekin shuni aytayki, ba’zan biz o‘n mil yo‘l bosdik, ba’zi kunlari esa o‘ttiz mil yo‘l bosdik. O‘n mil yo‘l bosgan kunlarimiz ko‘proq bo‘ldi. Eng yaxshi deb bergen ovqatlari uncha ham yaxshi emas edi, bundan tashqari, yo‘lga tushgan kundan boshlab ovqatni tejab sarflash lozim bo‘ldi. Eng yaxshi itlar zo‘rg‘a yurishar, biz esa ularni kuch bilan chana tortishga majbur qilar edik. Biz Oq daryoga borib yetganimizda, uchta chanamizdan ikkitasi qoldi, biz esa bor-yo‘g‘i endi ikki yuz mil yo‘l bosgandik. To‘g‘ri, biz hech narsa yo‘qotmadik: o‘lgan itlar tirik qolganlariga ovqat bo‘ldi.

Pelliga yetib kelgunimizcha na inson tovushini eshitdik, na biror o‘choqdan ko‘tarilayotgan tutunni ko‘rdik. O‘sha

yerda men ovqat zaxiramizni ko‘paytirib olamiz, yo‘lda zaiflashib qolgan va tinmay zorlanib, ming‘illab kelayotgan Novcha Jeffni o‘sha yerda qoldirib ketamiz, deb o‘ylagan edim. Lekin Pelli faktoriyasining omborlari deyarli bo‘s edi; kompaniyaning agenti qattiq-qattiq yo‘talar, nafasi siqar, bezgakdan ko‘zлари yonardi. U bizga missionerning bo‘shab qolgan uyini va qabrini ko‘rsatdi. O‘likni itlar qazib yeb ketmasin, deb qabr ustiga tosh qo‘yib qo‘yibdilar. Biz u yerda bir to‘da hindularni ko‘rdik, lekin ular o‘rtasida bolalar va chollar yo‘q edi; ularning ko‘pchiligi bahorgacha tirik qolmasligi ayon edi.

Shunday qilib, qornimiz och, ma‘yus holda yo‘lga tushdik. Xeyns missiyasiga qadar qor sahrosi va sokinlik dengizidan yana besh yuz mil yo‘l bosishimiz kerak. Yilning eng qorong‘i paytlari, hatto tush paytida ham quyosh janubiy ufqni yoritmaydi. Lekin yo‘limizda muz to‘siqlari endi kam uchrardi, shuning uchun yo‘l yurish ancha osonlashdi. Men itlarni to‘xtovsiz olg‘a haydar edim. Biz deyarli dam olmasdan yo‘l bosardik. Aytganim to‘g‘ri chiqdi – biz hamma vaqt chang‘ida yo‘l bosdik. Chang‘ida yurishdan esa oyoqlarimiz zirqirab og‘rir edi. Oyoqlarimiz yorilib va yara bo‘lib ketdi. Kun sayin bu yaralar bizga battar azob berardi. Bir kuni ertalab chang‘ilarni oyoqqa bog‘layotgan edik, Novcha Jeff xuddi yosh bolaga o‘xshab yig‘lab yubordi. Men uni kichik chanalarga yo‘l ochish uchun oldinga yubordim, lekin u yengil bo‘lsin deb chang‘ilarini olib qo‘ydi. Shuning uchun yo‘lning qori bosilmay, u moskasnlari bilan yo‘lni o‘ydim-chuqur qilib boraverdi, itlar esa chuqurlarga tigilib qolardilar. Itlar shu qadar oriqlab ketgan edilarki, juni ostidan suyaklari turtib chiqib turardi. Ular g‘oyat qiyinchilik bilan qadam bosardilar. Men Jeffni rosa so‘kib berdim. U chang‘ilarni endi yechmaslikka va‘da berdi, lekin so‘zida turmadidi. Shunda men uni qamchi bilan tortib yubordim, shundan keyin itlar qorga botmay-

digan bo'ldi. U xuddi chaqaloqqa o'xshar – yo'l azobi, undan keyin hali sen aytgan ortiqcha yog' uni kichkina bolaga aylantirib qo'ygandi.

Passuk-chi! Erkak kishi gulxan oldida yig'lab yotgan paytlarda, Passuk ovqat pishirar, ertalab itlarni qo'shishga, kechqurunlari esa chanadan chiqarishga menga yordamla-shardi. Itlarimizni Passuk omon saqlab qoldi. U hamma vaqt oldinda borar va itlarga yo'l ochib berardi. Passuk... nima desam bo'ladi! Men u vaqtda hamma narsaga odatdag'i bir ish deb qarab, hech narsa ustida o'yamasdim. Fikrim boshqa narsalar bilan band edi, buning ustiga, men u vaqtda hali yosh edim, xotinlarni bilmasdim. Faqat so'ngroq, o'sha vaqtlarni esga olib, xotinim qanday ajoyib odam ekanini anglab yetdim.

Jeff endi bizga faqat ortiqcha yuk bo'lib qoldi. Itlar holdan toyganligini bila turib, orqada qolgan paytlarda yashirinchha chanaga yotib olardi. Passuk itlarni o'zi boshlab bordi, Jeffga ortiq hech qanday ish qolmagan edi. Men har kun ertalab uning ovqatini halol bo'lib berar edim. Uning bir o'zi oldinga ketib qolar, biz esa narsalarni yig'ishtirib chanalarga ortar va itlarni chanaga qo'shar edik. Tush paytlarida quyosh xira nur socharkan, biz uning orqasidan yetib olar edik: u yig'lab-siqtib sudralib borar, ko'zyoshlari esa yuzida muz bo'lib qotib qolardi. Biz esa undan o'tib keta-verar edik. Kechalari biz tunash uchun to'xtaganimizda, Jeffning haqini olib qo'yar va joyini solib berar edik. Bizni osonlik bilan topsin, deb katta gulxan yoqardik. Bir necha soatdan keyin u oqsoqlanib yetib kelar, ming vohlar bilan ovqatini yer, keyin uyquga ketardi. Har kuni ahvol shu. U kasal emas, charchagan, qiynalgan va ochlikdan zaiflashgan edi-ku! Shunga qaramay, hamma ishni biz qilardik, u esa hech ish qilmasdi. Hamma gap Bettlz amaki aytgan ortiqcha yog'da bo'lsa kerak; axir biz hamma vaqt uning ovqatini halollik bilan berib bordik.

Bir kuni biz yo'lda, Oppoq Sokinlikda daydib yurgan ikki ko'lankaga duch keldik – bular bir erkak bilan bir bola edi. Ular oq tanlilar edi. Le-Barj ko'lida muz ochilib, ularning hamma narsasi suvga cho'kib ketibdi, ikkisining yelkasida bittadan adyol qolibdi, xolos. Kechasi ular o't yo-qib, ertalabgacha o't oldida yotisharkan. Ularning ixtiyorida biroz un bo'lib, unni issiq suvga qorib ichishar ekan. Erkak menga sakkiz chashka un ko'rsatdi. Bor ovqatlari shu ekan, ocharchilik boshlangan, Pelligacha esa hali ikki yuz mil yo'l bosishlari kerak. Yo'lovchilar, biz bilan bir hindu kelayotgan edi, biz qo'limizdag'i ovqatni halol bo'lib berdik, lekin u orqada qolib ketdi, deyishdi. Men bunga ishonmadim, agar ular ovqatni insof bilan taqsimlagan bo'lsalar, nima uchun u orqada qolib ketadi?

Men ularga hech narsa berolmadim. Ular bizning eng semiz itimizni o'g'irlamoqchi bo'lishdi (eng semiz itimizning o'zi ham juda oriq edi), lekin men revolver o'qtalib qo'rqtidim va jo'nab qolishlarini maslahat berdim. Keyin ular xuddi mast kishilardek sandiroqlab yo'lga tushdilar va Pelli tomonga qarab, Oppoq Sokinlik ichiga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

Endi mening ixtiyorimda uchta it bilan bitta chana qoldi; itlarning ham eti borib ustixoniga yopishgan edi. O'tin oz bo'lsa, o't yomon yonadi, uyning ichi ham sovuq bo'ladi, biz ana shunday sharoitda yashardik. Biz juda oz ovqat yerdik, shuning uchun ham sovuq bizni jon azobiga solardi; yuzlarimizni sovuq urib, shunday qorayib ketgan ediki, mehribon onamiz ham bizni tanib ololmagan bo'ldi. Oyoqlarimiz qattiq og'rirdi. Ertalab yo'lga tushganimizda, qichqirib yuborishimizga oz qolardi – chang'ilar oyog'imizni shu qadar og'ritardi. Passuk lablarini qisib, tishini tishiga qo'yib, oldinda borar va bizga yo'l ochib berardi. Yanki esa hali ham zorlanib, sudralib borardi.

O'ttiz millik daryo tez oqadi, ba'zi joylarda suv muzni

yuvib ketgan, yo'limizda muz ustiga suv toshgan, muz yorilgan, ba'zan muz ustini yoppasiga suv qoplagan joylar ham uchrardi. Bir kuni biz ancha ilgari yo'lga tushgan Jeffni odatdagidek quvib yetdik. U dam olib o'tirgan ekan. Ikki oraliqda suv yoyilib yotibdi, u muz parchalari ustidan aylanib o'tgan, lekin chanalar muz parchasi ustidan yurolmaydi. Biz katta bir muz parchasini topdik. Passuk yiqilib tushsam kerak bo'lib qolar, deb qo'liga uzun tayoq ushlab oldi-da, muz ustiga birinchi bo'lib qadam qo'ydi. Passuk yengil, chang'ilari enli – u eson-omon o'tib oldi-da, itlarni chaqirdi. Lekin itlarda tayoq ham, chang'i ham bo'lma-ganidan suvga ag'darildilar, oqim ularni olib ketdi. Men chananing orqasidan mahkam ushlab tortdim, lekin qayishlar uzilib ketib, itlar muz ostida g'oyib bo'ldi. Itlar juda oriqlab ketgandi, lekin men, ular bizga bir haftalik ovqat bo'lar, deb o'yagan edim – mana endi ular ham asfalaso-filinga ketdi!

Ertasi kuni ertalab men qolgan butun oziqlarni bab-bavar qilib uchga bo'ldim-da, Novcha Jeffga: „Biz bilan ketasanmi, orqada qolasanmi – o'zing bilasan, bizning yukimiz endi yengillashdi, shuning uchun endi biz tez yuramiz“, dedim. U oh-voh qila boshladi, yara oyog'i va boshqa qiyinchiliklarni ro'kach qilib zorlandi, yomon do'st ekan-san, deb mendan ginaxonlik qildi. Passukning oyoqlari ham, mening oyoqlarim ham unikidan qattiqroq og'rirdi, chunki biz itlarga yo'l ochib borardik, bizga ham qiyin edi. Novcha Jeff, o'lsam ham shu yerdan qimirlamayman, deb qasam ichdi. Passuk indamay jun adyolni oldi, men esa bolta bilan dekchani ko'tardim-da, yo'lga tushmoqchi bo'ldik. Lekin xotinim Jeffga ajratib qo'yilgan ovqatga qaradi-da: „Mana bu chaqaloqqa shuncha ovqatni qoldirib ketish ahmoqlik bo'ladi. Yaxshisi, u o'lsin“, dedi. Men bosh chayqadim: „Do'st hamma vaqt do'st bo'lib qoladi“, dedim. Shundan keyin Passuk Qirqinchi Mildagi odamlarni esimga soldi –

ular haqiqiy erkaklar, ular ko‘pchilik, ular sendan yordam kutib yotibdilar, dedi. Men yana „yo‘q“, degan edim, Passuk belimga qistirilgan revolverni oldi, shundan keyin Novcha Jeff, boy a Bettlz amaki aytgandek, ajalidan besh kun oldin bobolarining oldiga ravona bo‘ldi. Men Passukni urishdim, lekin u qilgan ishiga pushaymon ham bo‘lmadi, qayg‘u ham chekmadi. Ichimda Passuk haq ekanligini e’tirof qildim.

Sitka Charli jim qoldi va pechka ustidagi tunuka novga yana bir necha parcha muz tashladi. Erkaklar indamay o‘tirar edilar. Itlar xuddi dahshatli sovuqdan zorlanayotgandek mungli-mungli uvullashardi. Ularning uvullahidan odamlarning badani jimirlab ketardi.

– Har kuni yo‘l ustida haligi ikki ko‘lankaning tunagan joylarini uchratib bordik. Ular to‘g‘ridan to‘g‘ri qor ustida yotib qolaverganlar. Sho‘r Suvga yetib olgunimizcha hali bunday tunashni orzu ham qilib qolarmiz, deb xayolimdan o‘tkazardim. Keyin biz uchinchi ko‘lanka – hinduni ham uchratdik, u ham Pelliga borardi. Uning aytishiga qaraganda, erkak bilan bola unga ovqatni kam berib, insofsizlik qilganlar, mana uning tamom bo‘lganiga uch kun bo‘libdi. Kechalari u mokasinidan tilib olib, qaynatib yer ekan. Endi mokasinidan ham deyarli hech narsa qolmabdi. Bu hindu dengiz sohilidan ekan, men u bilan Passuk orqali gaplashdim. Passuk uning tiliga tushunardi. U hech qachon Yukonda bo‘lmagan, yo‘lni ham bilmas ekan, shunga qaramay o‘scha tomonga qarab borardi. Yo‘l uzoqmi? Ikki kunlikmi? O‘n kunlikmi? Yuz kunlikmi? U bilmas ekan, lekin Pelliga qarab ketmoqda ekan. Orqaga qaytish juda ham uzoq, shuning uchun u faqat olg‘a qarab borayotgan ekan.

U bizzdan ovqat so‘ramadi, chunki o‘zimizning ahvolimiz ham qiyin ekanligini u ochiq ko‘rdi. Passuk nima qilishini bilmay, xuddi bolalarining boshiga kulfat tushgan qirg‘ovul onadek, goh hinduga, goh menga qarardi. Men Passukka qayrilib qaradim.

— Bu odamga nisbatan insofsizlik qilganlar. Ovqatimizdan bir qismini bersak, qandoq bo‘lar ekan? — deb so‘radim men.

Men uning ko‘zlarida shodlik uchqunlarini ko‘rdim, lekin u hinduga, keyin menga uzoq qarab turdi, uning lablari qat’iy jipslashdi. Keyin uzil-kesil javob qildi:

— Yo‘q. Sho‘r Suvgacha hali yo‘l uzoq, yo‘lda bizni o‘lim poylab yotibdi. O‘lim mana shu notanish odamni ola qolsin, mening erim Charlini tirik qoldirsin.

Hindu Oppoq Sokinlik ichiga kirib yo‘qoldi, u Pelli to-monga qarab ketdi.

Kechasi Passuk yig‘lab chiqdi. Men ilgari uning ko‘z-yoshlarini hech qachon ko‘rmagan edim. Uning yig‘lashi achchiq tutundan emasdi, chunki o‘tin quppa-quruq edi. Uning qayg‘usi meni hayron qoldirdi, zulmat va og‘riq uning tinkasini quritibdi shekilli, deb o‘yladim.

Hayot — g‘alati narsa. Men hayot haqida ko‘p o‘yladim, ko‘pdan beri shu to‘g‘rida bosh qotiraman, lekin nazarimda u kun sayin murakkablashayotir. Nima uchun yashashni shunchalik yaxshi ko‘ramiz? Axir, hayot bir o‘yin-ku. Bu o‘yinda inson hech qachon g‘olib chiqmaydi. Yashash to qarilik yetib kelmaguncha, og‘ir mehnat qilish va azob-uqubat chekish demakdir. Qarilik yetib kelganda, biz o‘chib qolgan gulxanning sovuq kulini changallaymiz. Yashash og‘ir. Chaqaloq azob ichida tug‘iladi, qari odam azob ichida so‘nggi nafasini chiqaradi, bizning butun umrimiz qayg‘u va tashvish bilan o‘tadi. Shunga qaramasdan, inson qoqilib-suqilib, tevarak-atrofga olazarak bo‘lib qaraydi va o‘limning quchog‘iga o‘zini istamaygina tashlaydi. O‘lim ezgu narsa-ku! Faqat hayot alam chektiradi. Ammo biz hayotni yaxshi ko‘ramiz-u, o‘limdan nafratlanamiz! Bu qiziq narsa!

Biz, ya‘ni Passuk bilan men kam gaplashardik. Kechalari qor ustida o‘likdek qotib uxlardik, ertalab o‘rnimizdan turib, yana murdalardek indamay yo‘lga tushardik. Tevarak-atro-

fimiz hammasi jonsiz, o'lik, na qirg'ovul, na olmaxon, na quyosh – hech narsa ko'rilmaydi. Daryo ham o'zining op-poq pardasi ostida sukutga botgan. O'rmonda hamma narsa o'lgan. Sovuq ham xuddi hozirgidek. Kechalari yulduzlar katta va yaqin bo'lib ko'rinar, sakrashar, raqsga tushar edilar; kunduzlari esa, nazarimizda, quyosh juda ko'payib ket-gandek bo'lib tuyulgancha bizning jig'imizga tegardi. Havo yarqirar, qor esa xuddi olmos zarralariga o'xshardi. Na biror gulxan ko'rindi, na biror tovush eshitiladi – hamma yoqni sovuq va Oppoq Sokinlik qoplagan. Biz vaqtning hisobidan adashdik, o'zimiz xuddi murdalardek qadam tashlab borardik. Bizning ko'zlarimiz faqat Sho'r Suv tomonga tikilgan, fikr-xayolimiz Sho'r Suv bilan band. Oyoqlarimizning o'zi Sho'r Suv tomonga olib ketayotir. Biz Taxkina-ga borib to'xtadik, uni tanimadik. Bizning ko'zlarimiz Oq Otga tikilar, lekin uni taniyolmas edi. Oyoqlarimiz Kanon tuprog'iga qadam bosdi, lekin biz buni sezmadik. Biz hech narsani his qilmasdik. Biz tez-tez yiqilar, lekin yiqilayotib ham Sho'r Suv tomondan ko'zimizni olmasdik.

Biz bab-baravar baham ko'rib kelgan ovqatimiz tuga-di, lekin Passuk tez-tez yiqilardi. Bug'u dovoniga yaqin kelganda Passuk holdan toydi. Ertalab ikkimiz ham bitta adyolga o'ralib yotar va yo'lga tushishni o'yamas ham edik. Shu yerda qolib, Passuk bilan birga qo'l ushlashgan holda o'limni qarshi olishni istadim, chunki men ulg'ayib qolgan, xotinning sevgisi nima ekanligini tushuna boshlagan edim. Xeyns missiyasiga yana sakson mil yo'l bor edi. Lekin uzoqda, o'rmonning orqasida, cho'qqisini bo'ronlar sidirib ketgan Chako't tog'i qad ko'tarib turibdi.

Shunda Passuk eshitishim oson bo'lsin uchun og'zini qulog'imga tutib so'zlay boshladи. Endi u mening g'aza-bimdan qo'rmasdi, Passuk menga yuragini ochib, o'zining muhabbatи va ilgari men tushunmay yurgan ko'p nar-salar haqida gapirdi.

– Sen mening erimsan, Charli, – dedi u, – senga yaxshi xotin bo'ldim. Hamma vaqt senga o't yoqib berdim, ovqatingni pishirdim, itlaringni boqdim, qor kurab yo'l ochdim, lekin hech qachon zorlanmadim. Otamning vigvami issiqroq edi yoki bizning Chilkatda ovqat ko'proq edi, deb hech ta'na qilmadim. So'zlaganingda quloq soldim. Buyruq bergeningda ijro etdim. Shunday emasmi, Charli?

– Ha, shunday, – deb javob berdim men.

U davom etdi:

– Birinchi marotaba Chilkatga kelib, meni sotib olganningda, hech bo'lmaganda it sotib oluvchi odamdek biror marta yuzimga boqmading. Meni o'zing bilan olib ketding. O'shanda yuragimda senga qarshi norozilik qo'zg'aldi, butun vujudimni alam va qo'rquv bosdi. Lekin bunga ko'p zamonlar bo'ldi. Ko'ngli yumshoq odam o'z itini avaylaganidek, sen ham menga rahm-shafqat qilding, Charli. Ammo yuragingdan menga o'rin bermading, lekin hamma vaqt menga nisbatan odil eding, menga lozim bo'lganicha yaxshi muomala qilding. Sen mardonavor ishlar qilganingda va katta xavf-xatarga qarshi ko'krak kerib borganingda, men hamma vaqt yoningda birga bo'ldim. Men seni boshqa erkaklar bilan solishtirib ko'rdim – sen ularning ko'pidan yaxshi eding, o'z nomusingni yaxshi saqlar eding, so'zlarining dono, tiling esa rostgo'y edi. Shunda sen bilan faxrlana boshladim. Shunday vaqt yetib keldiki, mening butun yuragimni, fikr-xayolimni egallab olding. Nazarimda, sen oltin so'qmoq bo'ylab yuradigan va bir zumga ham o'z osmonini tark etmaydigan yozgi quyosh eding. Ko'zlarim qaysi tomonga qaramasin, o'z quyoshimni ko'rар edim. Ammo se ning yuraging, Charli, sovuq edi. Unda menga joy yo'q edi.

– Ha, shunday bo'lgan edi, – deb javob berdim. – Mening yuragim sovuq edi, unda senga joy yo'q edi. Ammo ilgari shunday edi. Hozir yuragim quyosh qaytib kelgan bahor paytidagi qorga o'xshaydi. Yuragimda hamma narsa

eriyotir, unda chashmalar shildirab oqayotir, hamma narsa qulf urib gullayotir. Qирг‘овулларнинг овозлари, қушчаларнинг саърashi eshitilyapti, musiqa yangrayapti, chunki qish mag‘lubiyatga uchradi, Passuk, men bo‘lsam xotin kishi-ning sevgisini tushundim.

Passuk tabassum qildi va yana ham pinjimga tiqilib oldi.
– Xursandman, – dedi u.

Shundan keyin anchagacha jim yotdi, boshini ko‘ksim-ga qo‘yib ohista nafas olardi. Keyin u shivirladi:

– Mening yo‘lim shu yerda tamom bo‘ldi, charchadim. Senga ikki og‘iz gap aytmoqchiman. Bundan ko‘p vaqtlar ilgari, men hali kichkina qiz ekanimda ko‘pincha otamning Chilkatdagи vigvamida yolg‘iz qolardim, chunki erkaklar ovga ketishar, xotin-qizlar va bolalar o‘rmonda ov-o‘ljalarini tashir edilar. Kunlardan bir kun, bahor chog‘lari edi, teri ustida o‘tirgan edim. Birdan qishki uyqusidan endigina uyg‘ongan och va oriqlagan targ‘il ayiq vigvamga boshini tiqib: „u-uh“ deb bo‘kirib yubordi. Xuddi shu vaqt akam ov o‘ljalarini chanaga ortib kelib qoldi. U o‘choqda yonib turgan to‘nkani ushlab, sira tap tortmay ayiq bilan olishib ketdi. Itlar esa chanalarni sudragan holda ayiqqa yopishib oldilar. Katta jang bo‘ldi, shovqin-suron ko‘tarildi. Ular o‘tga yuma-lab tushdilar, terilarni har tomonga irg‘itib tashladilar, vig-vamni ag‘dardilar. Pirovardida, ayiq jon berdi, lekin akam-ning bir barmog‘i ayiqning og‘zida qoldi, yuzida esa ayiq panjalarining izlari qoldi. Sen Pelliga ketayotgan hinduning qo‘liga e’tibor berdingmi, o‘tga tutib turgan qo‘lining katta barmog‘i yo‘q ekan... U mening akam edi. Men unga ovqat bermadim, u ovqatsiz Oppoq Sokinlik ichiga kirib ketdi.

Mana, birodarlar, Passukning muhabbatи shu qadar kuch-li edi. Passuk Bug‘u dovonida qor ustida uzildi. Uning sevgisi buyuk sevgi edi. Axir, xotin kishi uni og‘ir yo‘llar bilan boshlab halokatga olib borayotgan erkak uchun o‘z akasini qurbon qildi-ya. Uning sevgisi shu qadar kuchli ediki, hat-

to o‘zini ham ayamadi. Ko‘zlari so‘nggi marta yumilishdan oldin Passuk mening qo‘llarimni olib, olmaxon terisidan qilingan nimchasining ichiga suqdi. Qo‘lim belida bir narsa tiqilgan xaltaga tegdi, shunda hamma gapga tushundim. Kun sayin biz ovqatni bab-baravar bo‘lar edik, lekin Passuk o‘ziga tekkan ovqatning yarmisini yer ekan. Yarmisini esa mana shu xaltachaga solib, menga saqlab yurar ekan.

– Mana, Passukning hayot yo‘li tugadi, – dedi u. – Sening yo‘ling esa, Charli, hali tamom bo‘lgani yo‘q, bu yo‘l seni buyuk Chilkat orqali dengiz sohillariga, Xeyns mis-siyasiga olib boradi. Bu yo‘l seni borgan sari uzoqqa olib ketaveradi, quyosh mo‘l-ko‘l shu‘la sochadigan yot o‘lkalar va ulkan dengizlarga olib boradi; mana shu yo‘lda seni uzoq umr, izzat-ikrom va buyuk shon-sharaf kutadi. Bu yo‘l seni ko‘pgina xotinlarning uyiga, yaxshi xotinlarning oldiga olib boradi, lekin sen hech qachon Passukning sevgisi kabi ulug‘ sevgini uchratmaysan.

Passukning so‘zlari haq ekanligini sezib turardim. Hayajonga tushdim. Men ozuqa bilan to‘ldirilgan xaltachani uloqtirib tashladim va, mening yo‘lim ham tugadi, men ham sen bilan qolaman, deb qasam ichdim. Lekin Passukning horg‘in ko‘zlari yoshga to‘ldi va:

– Odamlar Sitka Charlini hamma vaqt vijdonli odam, deb hisoblar edilar, – dedi Passuk. – Uning har bir so‘zi haqiqat edi. Nahotki, u o‘z nomusini unutib, endi Bug‘u dovoniga kelganda, bo‘limg‘ur gaplarni gapirib o‘tirsa! Nahotki, u o‘zlarining eng yaxshi ovqatlari-yu, eng yaxshi itlarini bergen Qirqinchi Mildagi odamlarni unutgan bo‘lsa! Passuk hamma vaqt o‘z eri bilan faxrlanar edi. Passuk ilgarigidek sen bilan faxrlansin, desang o‘rmingdan tur, chang‘ilaringni bog‘la-da, yo‘lga tush.

U quchog‘imda jon berib badani sovuganda, o‘rnim-dan turib, oziq-ovqat solingan xaltachani topib oldim-da, chang‘ilarни oyog‘imga bog‘lab, gandiraklay-gandiraklay

yo'lga tushdim. Oyoqlarimning madori ketgan, boshim aylanar, quloqlarim shang'illar, ko'z oldilarim qorong'ilashib ketar edi. Yoshlikning unutilgan manzaralari ko'z oldimdan o'taverdi. Ziyofatda qaynayotgan qozonlar oldida o'tirar edim, qo'shiq aytar va yigitlarning qo'shig'i, dengiz mushugi terisidan qilingan baraban tovushlari ohangiga o'yin tushardim; Passuk bo'lsa mening qo'limdan ushlab, hamma vaqt men bilan birga borardi. Uyquga ketganimda, meni uyg'otardi. Qoqilib yiqilganimda, suyab ko'tarardi. Qalin qorlarda adashib qolganimda, to'g'ri yo'lga olib chiqardi. Mana, mast odamdek ko'zimga g'alati narsalar ko'rina boshladi, ana shu taxlitda dengiz sohilidagi Xeyns missiyasiga yetib keldim.

Sitka Charli o'midan turib, chodirning bir tomonini ko'tarib tashqari chiqdi. Tush payti edi. Janub tomonda, Genderson tog' qirralari ustida quyoshning haroratsiz gardishi muallaq turardi. Havo yiltiroq qirovdan yasalgan o'rgimchak uyasiga o'xshardi. Oldinda, yo'l ustida bo'rige o'xshagan bir it o'tirardi. Yunglari tarashadek qotgan bu it tumshug'ini osmonga ko'tarib zorlanib uvullardi.

HAYOTGA MUHABBAT

Ular oqsoqlanib, soyga tomon tushib borishardi. Hamrohlardan biri, oldinda ketayotgani, toshloq yerda qoqilib, gandiraklab ketdi. Ikkalasi ham charchab holdan toygan, yuzlaridan chidam va itoatkorlik ifodalari ko‘rinib turadi – bu uzoq vaqt qiyinchilik chekish natijasi. Orqalarida-gi qayish bilan tortib bog‘langan og‘ir yuklari yelkalarini ezadi. Ikkalasida ham bittadan miltiq. Ikkalasi ham bukchayib, engashib, ko‘zlarini yerdan uzmay boradilar.

– Qani endi yashirib qo‘ygan joyimizdagi o‘qlardan hozir ikkitaginasи bo‘lsa, – deb qo‘ydi ulardan biri.

Azbaroyi madorsizligidan ovozi zaif chiqdi. O‘zi behafsala gapirar edi; toshlarga urilib, ko‘piklanib oqayotgan sutdek oppoq suvga endi oyoq bosgan sherigi esa, unga hech narsa deb javob bermadi.

Ikkinchisi ham sherigi orqasidan suvga tushdi. Suv muzdek sovuq bo‘lishiga qaramay, ular oyoq kiyimlarini yechmadilar, suv shu qadar sovuq ediki, ularning oyoqlari, hatto oyoq barmoqlari ham sovuqdan uvushib qoldi.

Ba‘zi joylarda suv tizzadan kelar, shitob bilan urilganda o‘zlarini tutolmay gandiraklab ketardilar.

Orqada kelayotgan yo‘lovchi silliq toshga tiyg‘anib ketib yiqlishiga oz qoldi, og‘riqdan qattiq ixrab yubordiyu, ammo yiqlmadi. Boshi aylandi, shekilli, munkib ketib, xuddi havodan tayanch topishga intilgandek bo‘sh qo‘lini oldinga cho‘zdi. O‘zini o‘nglab oldi-da, oldinga qadam

bosdi, lekin yana toyib ketib, sal bo'lmasa yiqilayozdi. Shundan keyin to'xtab, o'z sherigiga qarab qo'ydi: sherigi esa orqasiga ham qaramay, hamon oldinga ketmoqda edi.

Bir narsani o'ylayotgandek, birpas qimirlamay turdi, keyin:

– Menga qara, Bill, oyog'imni chiqarib oldim! – deb qichqirdi.

Bill oyoqlarini sudrab sutdek oppoq suvdan kechib borardi. U orqasiga biror marta ham qayrilib qaramadi. Sherigi uning orqasidan qarab turardi, yuzi hali ham avvalgidek hech narsani ifoda qilmasa-da, ko'zlarida yaralangan bug'u singari chuqur qayg'u belgilari paydo bo'ldi.

Mana, Bill qarshi qirg'oqqa o'tib oldi-da, kalovlanib yurib ketdi. Suvning o'rtasida turgan hamrohi undan ko'zini olmay qarab turdi. Uning lablari shu qadar titrar ediki, o'siq sariq mo'ylovining tuklari uchib-uchib ketardi. U tilining uchi bilan qoq qurigan lablarini bir yalab oldi-da:

– Bill! – deb qichqirdi.

Bu falokatga yo'liqqan odamning jon achchig'ida-gi hayqirig'i edi, ammo Bill qayrilib qaramadi. Orqada qolib ketgan sherigi uning orqasidan uzoq vaqt qarab turdi: sherigi lapanglab, oqsoqlanib, qoqilib-suqilib, tepalikda ko'ringan egri-bugri ufq chiziqlari tomon asta-sekin ko'tarilib borardi, Bill to tepalikni oshib, ko'zdan g'oyib bo'lib ketguncha, sherigi uning orqasidan qarab turdi. Shundan keyin u tarafdan ko'zini uzdi va Bill ketgandan keyin o'zi yolg'iz qolgan yerni bir-bir ko'zdan kechirib chiqdi.

Xuddi ufq tepasida g'ira-shira va cheksiz-chegarasiz quyuq tuman pardasi ortidan zo'rg'a ko'rinyotgan quyosh xira nur sochib turadi. U butun og'irligini bir oyog'iga solib turib, soatini oldi, soat to'rt edi. So'nggi ikki hafta ichida u hisobni yo'qotib qo'ydi: iyulning oxiri yoki avgustning boshlari bo'lganidan quyosh shimoli-g'arbda bo'lishi kerak

edi. U janub tomonga qaradi, mana shu yoqimsiz tepaliklar orqasida allaqayerda Katta Ayiq ko‘li bor, xuddi o‘sha tomonda Kanada sahrosidan mudhish shimoliy Qutb doirasi o‘tadi, deb o‘ylab qo‘ydi, u turgan soy Koppermayn dar-yosining irmog‘i, Koppermayn esa shimol tomonga oqib, Koronatsiya ko‘rfaziga, Shimoliy Muz dengiziga quyiladi. Uning o‘zi u yerlarga hech qachon bormagan, lekin buning hammasini bir kun Gudzon ko‘rfazi kompaniyasining xaritasida ko‘rgan.

U o‘zi yolg‘iz qolgan joyini yana bir marta ko‘zdan kechirdi. Tevarak-atrof sovuqdan sovuq bir manzarani tashkil etardi. Pastakkina tepachalar bir xildagi egri-bugri chiziq hosil qilib, to ufqqa tutashib ketgan. Na biron daraxt, na buta, na o‘t-o‘lan ko‘rinadi – poyonsiz va dahshatli sahrodan boshqa hech narsa yo‘q. Uning ko‘zlarida qo‘rquv ifodalari ko‘rindi.

– Bill! – deb pichirladi u, ketidan yana: – Bill! – deb takrorladi.

Poyonsiz sahro go‘yo qudratli kuchi bilan bosayotganday, mudhish sokinligi bilan ezayotganday, u loyqalanib oqayotgan soy o‘rtasida cho‘qqayib o‘tirib qoldi. U xuddi bezgak tutayotgandek qaltirab ketdi, shu payt miltig‘i shalp etib suvga tushdi. Bu uni o‘ziga keltirdi. U qo‘rquvni yengib, es-hushini yig‘di, keyin qo‘lini suvga tiqib paypaslandi-da, miltig‘ini topdi. So‘ng mayib oyog‘iga og‘irlik kamroq tushsin uchun yukni chap yelkasiga surib oldi va har oyoq bosganda og‘riqdan basharasini burishtirib, zo‘r ehtiyyot bilan sekin-asta qirg‘oqqa yura boshladi.

U to‘xtamay yuraverdi. Og‘riqqa sira e’tibor bermay, o‘lgudek tirishqoqlik bilan shoshib Bill oshib o‘tib ketgan tepalik ustiga chiqaverdi, shunda o‘zi kalovlanib zo‘rg‘a oyoq sudrab borayotgan Billdan ham kulgiliroq va qo‘polroq bo‘lib ketdi. Tepalikka chiqib qarasa, vodiyda hech kim yo‘q ekan! Uni yana qo‘rquv bosdi, keyin qo‘rquvni

yana yengib, qopini chap yelkasiga yana ham surib oldi-da, oqsoqlanib-oqsoqlanib pastga tusha boshladi.

Vodiyning pastligi balchiqzor bo‘lib, chimlik jiqqa suv edi. Har qadam bosganda suv sachrar, oyog‘ini nam chimplikdan har ko‘tarib bosganda shalop-shulup etgan tovush chiqardi. U Billning izidan yurishga intilib, ko‘loblarni aylanib o‘tar yoki chimliklar ustida xuddi orol singari qaq-qayib turgan toshlar ustidan borardi.

U yolg‘iz qolgan bo‘lsa ham yo‘ldan adashmadi. Yana biroz yurgandan keyin atrofini pastakkina nimjon quruq pixta va archalar o‘rab yotgan kichkina Titchinnichili ko‘liga yetib borishini bilardi, bu ko‘lning ismi mahalliy tilda „Kichik Oq‘ochlar O‘lkasi“ degan ma’noni anglatardi. Shu ko‘lga bir ariq kelib quyiladi, suvi ham loyqa emas. Ariq bo‘ylarida qamish o‘sadi. Buni u yaxshi eslaydi, lekin u yerda daraxt yo‘q. U ariq bo‘ylab yuqoriga, soygacha boradi. Shu yerdan g‘arbga oqayotgan boshqa bir ariq yoqalab Diz daryosiga qadar boradi. Xuddi o‘sha yerda ustiga tosh bostirilgan, to‘nkarib qo‘yilgan qayiq ostiga yashirib qo‘yilgan narsalarni topadi. U yerda miltiq o‘qi, baliq tutadigan qarmoq va qarmoq iplari, kichik bir to‘r, umuman, ovqat topish uchun zarur narsalarning hammasi yashirib qo‘yilgan. Bundan tashqari, o‘sha yerda oz bo‘lsa ham un, bir parcha go‘sht, loviya ham bor.

Bill uni o‘sha yerda kutib turadi, keyin ikkisi Diz dar-yosi bilan Katta Ayiq ko‘liga boradilar, undan keyin ko‘ldan o‘tib janubga, to Makkenzi daryosiga yetib olguncha doim janubga qarab boraveradilar. Janubga, hamma vaqt janubga qarab boraveradilar – qish esa ularni quvib boradi. Tezoqar soy va jilg‘alar muz bilan qoplanadi, sovuq tushadi, ular esa janubga Gudzon ko‘rfazidagi faktoriyalardan biriga yetib oladilar, u tomonlarda baland-baland, azamat daraxtlar o‘sadi va oziq-ovqat ham istagancha topiladi.

Zo‘rg‘a sudralib borayotgan yo‘lovchi mana shular

haqida o‘ylar edi. Lekin yurish qanchalik og‘ir bo‘lmasin, Bill uni yolg‘iz tashlab ketmaydi degan fikrga ishonish undan ham qiyin edi. Bill hech shubhasiz uni narsalar yashiringan joyda kutib o‘tiradi. U shunday deb o‘ylashi kerak, aks holda bundan keyin kurashni davom ettirishning hech qanday ma’nisi yo‘q, unda oyoqni cho‘zib, o‘lib qo‘ya qolishdan boshqa iloj yo‘q. Quyoshning xira gardishi shimoli-g‘arb tomonga sekin-asta yashirina borar ekan, u Bill bilan birga yaqinlashib kelayotgan qishdan qochib, janub tomonga qo‘yiladigan har qadamini hisoblab chiqdi. U narsalar yashirilgan joydagi va Gudzon ko‘rfazi kompaniyasining omboridagi oziq-ovqat zaxirasini qayta-qayta xayolidan kechirdi. Ikki kundan beri u hech narsa yegani yo‘q, lekin undan ilgari ham to‘yib ovqat yemagan edi. U tez-tez egilib, rangsiz botqoq mevalarini uzib og‘ziga solar va chaynab yutib yuborardi. Mevalar juda sersuv, suvi ichiga ketib, og‘zida faqat taxir va qattiq urug‘larigina qolardi. Bu mevalar qorin to‘yg‘azmasligini bilardi, shunday bo‘lsa ham ularni sabr bilan chaynar, chunki umid achchiq haqiqat bilan hisoblashmoqni istamas edi.

Soat to‘qqizlarda u oyog‘ining katta barmog‘ini o‘tkir tosh qirrasiga urib oldi. Charchoq va darmonsizlikdan gandiraklab yiqilib tushdi. Bir yonboshiga ag‘anab, anchagacha qimirlamay yotdi. Undan keyin orqasidagi qop qayishini yelkasidan chiqarib, ixrab-ixrab o‘tirib oldi. Hali uncha qorong‘i tushganicha yo‘q edi, shu g‘ira-shirada toshlar orasini paypaslab, quruq xas-cho‘p yig‘a boshladi. Bir tutam xas-cho‘p yig‘ib o‘t yoqdi, keyin kotelokka suv solib, tutab-burqsib yonayotgan o‘tga qo‘ydi.

U qopni ochib, hammadan burun gugurtlarni sanab ko‘rdi. Hammasi bo‘lib oltmisht yetti dona gugurt cho‘pi bor edi. U, yanglishgan bo‘lmay, deb gugurtni uch marta sanab chiqdi. Gugurtni uch bo‘lakka ajratib, har bir bo‘lagini qog‘ozga o‘radi. Bir bo‘lagini bo‘sh hamyoniga solib

qo'ydi, ikkinchisini eskirib ketgan shapkasingin astariga tiqdi, uchinchisini esa ko'kragiga yashirib qo'ydi. Bu ishni tamom qilgandan keyin uni birdan qo'rquv bosdi: uch bo'lak gugurtni yana ochib, qaytadan sanab ko'rdi. Gugurt avvalgidek oltmisht yetti dona edi.

Oyoq kiyimini o'tga tutib quritdi, mokasini yirtilgan, adyoldan tikilgan paypoqlari chilteshik, oyoqlari bo'lsa qontalash bo'lib ketgandi. To'pig'i qattiq og'rirdi, u to'pig'ini ko'zdan kechirdi. To'pig'i xuddi tizzasidek yo'g'on tortib, shishib ketgandi. U adyollaridan bittasining chetidan uzun qilib yirtib oldi, to'pig'ini mahkam siqib bog'ladi. Keyin yana bir necha parcha yirtib olib, mokasin va paypoq vazifasini o'tasin, deb oyog'ini aylantirib o'radi-da, qaynagan suvdan ichib oldi, soatini buradi, so'ng adyolga o'ranib yotdi.

U dong qotib uxladi. Yarim tunga borib qorong'i tushdi, lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. Shimoli-sharqdan quyosh ko'tarildi, to'g'rirog'i o'sha tomondan tong yorisha boshladi, chunki quyosh yuzini quyuq tuman qoplagan edi.

Soat oltida u chalqancha yotgani holda uyqudan uyg'on-di, kulrang osmonga qaradi va och qolganini sezdi. Tirsagiga suyanib qaddini ko'tardi va qayrilib qaragan edi, qulog'iga qattiq pishqirgan tovush eshitildi. Qarasa, sezgirlik va qizi-qish bilan bir bug'u unga qarab turgan ekan. Bug'u undan ellik qadamcha joyda turardi. Shu ondayoq tovada jizillab qovurilayotgan bug'u go'shtining hidi dimog'iga urilgandek, o'zi go'sht mazasini totgandek bo'ldi. Beixtiyor o'qi yo'q miltig'ini olib o'qtaldi, tepkini bosib yubordi. Bug'u cho'chib bir chekkaga tashlandi va tuyoqlarini tapillatib qochib ketdi.

Odam so'kinib, miltig'ini uloqtirib tashladi, ixrab-ixrab o'midan turishga urinib ko'rdi. Ancha uringandan keyin zo'rg'a turib oldi. Bo'g'lnlari xuddi zanglab qolgandek edi, ularni to'g'rakash yoki egish juda mashaaqqat edi. Nihoyat,

u oyoqqa bosgandan keyin ham odamga o'xshab tik turib olish uchun rosa bir daqiqacha urindi.

U chog'roq bir tepalik ustiga chiqib, atrofga nazar tashladi. Bo'zrang chimlik dengizidan boshqa hech narsa – na biron daraxt, na biron buta – hech narsa ko'rinnmasdi. Onda-sonda bo'zrang xarsang toshlar, bo'zrang ko'lchalar, bo'zrang ariqlargina ko'zga tashlanadi. Osmon ham bo'zrang edi. Quyosh na nur sochadi, na uning yilt etgan shu'lasi ko'rini qoladi. U shimol qayoqda ekanini, kecha kechqurun bu yerga qaysi tomondan kelganini eslay olmadi. Lekin u yo'ldan adashmagan edi. Buni yaxshi biladi. U tezda Kichik Og'ochlar O'lkasiga yetib oladi. U o'lka shu yaqin orada, chap tomonda bo'lishi kerak, ehtimol, xuddi mana shu ko'rini turgan tepalikning narigi tomonidadir.

U qaytib tushib, yo'lga otlandi; tugunini tugdi, uch bo'lak qilib qo'ygan gugurtlarim turibdimi-yo'qmi, deb paypaslab ko'rdi, lekin sanab o'tirmadi. U bug'uning terisidan tikilgan xaltachaga qarab turib, xayol surib qoldi. Xalta uncha katta emas, ichidagi narsalari bilan bir hovuch kelardi. Lekin og'irligi o'n besh qadoq bo'lib, qolgan yukning og'irligi bilan teng – uni mana shu tashvishga solardi. U xaltani bir tomonga surib qo'yib, boshqa narsalarni o'ray boshladni. Keyin xaltachaga qaradi-da, apil-tapil qo'liga oldi, xuddi sahro uning qo'lidan oltinni tortib olayotgandek, xo'mrayib atrofга qaradi. Yangidan o'rnidan turib, yo'lga tushganda boshqa narsalar qatori xaltacha ham uning orqasida edi.

U chapga tomon burildi. Ahyon-ahyonda to'xtar va botqoq mevalaridan terib yer edi. Uning oyog'i butunlay qotib qoldi, o'zi borgan sari kuchliroq oqsar, lekin oyoq og'rig'i qornidagi og'riq azobi oldida hech gap emasdi. Ochlik azobi uni hammadan ko'proq qiydar, qornidagi og'riq esa ich-ichidan azob berardi. Endi u Kichkina Og'ochlar O'lkasiga yetib olish uchun qaysi tomonga yurishni ham bilmasdi. Mevalar uni ochlik azobidan qutqarolmas, til va

tanglaylarini lovullatib achitardi. Kichikroq bir soylikka yetib borganda, toshlar orasidan qanotlarini qoqib va qir-qir lashib bir to‘p oq kaklik ko‘tarildi. U kakliklarga tosh otdi, lekin tekkizolmadidi. Keyin u yukini yerga qo‘yib, xuddi chumchuq poylagan mushukdek, kakliklarning orqasidan pusib o‘rmalab bora boshladidi. O‘tkir tosh qirralari uning shimlarini parchalab tashladi, tizzalaridan oqqan qon qonli iz qoldirib bordi. Lekin ochlik azobi shunchalik kuchli edi-ki, u boshqa hech qanday og‘riqni sezmasdi. U balchiqzor chimliklar ustidan o‘rmalab, kiyimlari ho‘l-shalabbo bo‘lib ketgan, badani sovuqdan qotgan edi-yu, lekin faqat ovqat haqida o‘ylar, boshqa hech narsani sezmasdi. Atrofidan hadeganda par etib uchib ketayotgan kakliklarning qir-qi-ri uni masxara qilayotgandek tuyuldi. U kakliklarni so‘kib qo‘ydi-da, ularga taqlid qilib qichqira boshladidi.

Bir marta u bir kaklikka juda yaqin kelib qoldi, qush, chamasi, uqlab yotardi. U qush toshlar orasidagi o‘z uyasidan yuziga tegib ketay deb parillab uchib chiqmaguncha, kaklikni ko‘rmadi. Kaklik bexosdan parillab chiqib qolganiga qaramay, u changal soldi. Qo‘lida qushning uchta pati qoldi. U uchib ketayotgan qushning orqasidan qarab turdi, kaklik go‘yo uning boshiga katta falokat keltirgandek, odam ko‘nglida unga nisbatan cheksiz nafrat uyg‘ondi. Keyin orqasiga qaytib, yukini ko‘tarib oldi.

Choshgoh paytida u bir botqoqqa yetib keldi, bu yerda ov ko‘proq edi. Xuddi unga o‘chakishganday oldidan yigirmatacha bug‘u o‘tib ketdi, ular shunday yaqindan o‘tdiki, miltiq o‘qi bahuzur yetardi. U jonivorlarni quvlagisi kelib ketdi, quvlasa, ushlab olishiga juda ishonardi. Uning oldidan og‘ziga kaklik tishlagan bir qora tulki o‘tib ketdi. U qichqirib yubordi. Shunday qattiq qichqirdiki, cho‘chib ketgan tulki o‘zini bir chetga urdi, ammo kaklikni og‘zidan tushirib yubormadi.

Kechqurun u qamishlar orasidan ohakdan oppoq loyqa-

lanib oqayotgan ariqcha yoqalab borardi. Bir qamishning ostidan mahkam ushlab, xuddi piyozga o'xshagan bir narsani sug'urib oldi. Qamishning tomiri yumshoq bo'lib, chaynaganda ishtahani ochib, qars-qars qilardi. Lekin o'zi mazasi taxir, xuddi mevaga o'xshagan sersuv bo'lib, och qorinni to'yg'azmasdi. U yukni yerga tashladi-da, xuddi kavsh qaytarayotgan molga o'xshab kavshana-kavshana qamishlar orasidan o'rmalab ketdi.

U juda charchagan, biroz orom olgisi, yotib uxlagisi kelardi; lekin Kichik Og'ochlar O'lkasiga yetib olish orzusi, undan ham zo'rroq bo'lgan ochlik azobi unga tinchlik bermasdi. U bunday uzoq Shimolda qurt va qurbaqalar bo'lmasligini bilsa ham, chuqurchalardan qurbaqa axtarar va oyoqlari bilan yermi titkilab, qurt qidirar edi.

U har bir ko'lma kni sinchiklab qarardi. Pirovardida, qosh qoraygan paytda, bir chuqurda bittagina baliqcha suzib yurganini ko'rib qoldi. U yelkasigacha qo'lini suvga tiqdi. Lekin baliqcha uning qo'lidan sirg'alib chiqib ketdi. Shunda u qo'lini suvga tiqib, butun chuqurchani ostin-ustin qilib loyqalatib yubordi. Butun fikr-u yodi baliq bilan bo'lib, hayajondan suvga tushib ketdi, beligacha suvga botdi. Suvni shunday loyqalatib yubordiki, baliqni ko'rib bo'lmay qoldi, shundan keyin loyqa suv tiniqlashguncha kutib turishga to'g'ri keldi.

U yana baliqni ov qila boshladi-da, suvni yana loyqalatib yubordi. Ortiq kutishga toqat kolmadi. Yukka qo'shib bog'langan paqirchani oldi-da, chuqurdagi suvni bu yoqqa olib to'ka boshladi. Suvni quritish uchun zo'r berib ishladi, ust-boshi shalabbo bo'lib ketdi, shoshilganidan suvni chuqurga shunday yaqin to'kardiki, suv yana qaytib chuqurga oqib tushardi. So'ngra u qo'lining titrashi va yuragini qattiq urishiga qaramay, xotirjam bo'lib ishlashga harakat qildi. Yarim soatdan keyin chuqurchada hatto bir hovuch ham suv qolmadi. Biroq baliq yo'q bo'lib qolgandi.

Uning ko‘zi toshlar orasidagi bir teshikchaga tushdi. Baliq o‘sha yerdan katta bir chuqurga o‘tib ketibdi, u chuqurda suv shu qadar ko‘p ediki, uning suvini bir kecha-yu bir kunduzda ham tamom qilib bo‘lmashdi. Teshik borligini ilgari bilganda, hammadan burun uni tosh bilan berkitib qo‘ygan bo‘lardi, shunda baliq uning qo‘lidan qochib qutulolmasdi.

Odam holdan toyib chalchiq yerga o‘tirib oldi-da, yig‘lab yubordi. Oldin sekin-sekin yig‘ladi. Keyin atrofni o‘rab yotgan shafqatsiz biyobonni uyg‘otmoqchi bo‘lgandek borgan sari qattiqroq, ho‘ng-ho‘ng yig‘layverdi; ho‘ngrab-ho‘ngrab, a’zoyi badani titrab yana uzoq yig‘ladi.

U o‘t yoqdi, qaynagan suv ichib, biroz isidi va kechagidek yotish uchun tosh ustiga joy soldi. Yotishdan avval u gugurtning ho‘l-quruqligini tekshirib ko‘rdi va soatini burab qo‘ydi. Adyol ho‘l va muzdek edi. Og‘riqdan oyoqlari o‘tday yonar, lekin u faqat ochlik azobini sezardi. Kechasi har xil ziyoftlar, mehmondorchiliklar va dasturxonga tortilgan turli noz-ne’matlarni tush ko‘rib chiqdi.

U sovuq qotib, kasal bo‘lib uyg‘ondi. Quyosh ko‘rinmasdi. Yer-u osmonning bo‘zrang tusi yana ham quyuqlashgan; qattiq shamol urib turar, birinchi yog‘gan qor tepaliklarni oppoq tusga kiritgan. U o‘t yoqib suv qaynatguncha, havo yana ham quyuqlashgandek, yana ham oqargandek tuyuldi. Bu yog‘ayotgan qorning ho‘l laylakqorga aylanganidan edi. Qor boshida yerga tushgan zamon erib turdi, lekin bora-bora ko‘payib, yerning usti qor bilan qoplana boshladi-da, qor quruq xas-cho‘plarni ho‘l qilib, o‘tni o‘chirdi.

Bu unga yukini orqasiga ko‘tarib, boshi og‘gan tomonga yo‘lga chiqish uchun belgi bo‘ldi. U endi Kichik Og‘ochlar O‘lkasi haqida ham, Bill haqida ham, Diz daryosi sohilidagi qayiq ostiga yashirilgan narsalar haqida ham o‘ylamasdi. Uning fikr-u xayoli ovqat bo‘lib qolgan edi. Ochlik uni aqldan ozdirdi. U qayoqqa ketayotganini ham o‘ylolmay qoldi. Ishqilib, to‘g‘ri va tekis vodiydan borsa bo‘lgani

edi. U ho'l qor ostidan sersuv mevalarni paypaslab qidirar, qamishlarni tomiri bilan so'g'urib olardi. Lekin bu bema-za yemish uning qorniga orom bermasdi. Yo'lda u mazasi achchiq bir o'simlik topdi, bu o'tdan qancha topsa, hammasini yedi, ammo o'simlik juda oz ekan, bu o'rmalovchi bir o'simlik bo'lib, qor tagida qolgandi.

Shu kecha u o't yoqmadi, suv ham qaynatmadni, adyol ichiga kirib oldi-da, och holda yotib qoldi. Qor asta-sekin sovuq yomg'irga aylandi. Yuziga yomg'ir tomchilari tushayotganini sezib, tez-tez uyqusidan uyg'onib ketardi. Tong otib, yana quyoshsiz bo'zrang kun boshlandi. Yomg'ir to'xtagan. Endi undagi ochlik tuyg'usi o'tmaslashdi. Qornida allaqanday bezillab turgan bir og'riq qoldi, xolos, ammo bu unga uncha azob bermasdi. Uning fikri biroz ravshanlashdi, endi u yana Kichik Og'ochlar O'lkasi haqida, Diz daryosi bo'yiga yashirib qo'yilgan narsalar haqida o'ylay boshladni.

U yirtiq adyoldan qolgan qismini yana uzunasiga yirtib, qoni chiqar darajada shilinib ketgan oyog'ini bog'ladi, chiqqan to'pig'ining lattasini yangiladi-da, yana yo'lga tu-shishga hozirlandi. Yukni ko'tarib olishdan oldin bug'u terisidan tikilgan xaltaga uzoq tikilib turdi-yu, yana xaltani ham olib ketdi.

Yomg'ir qorni eritib ketgandi, faqat tepachalarning uchi oqarib turardi. Quyosh ko'rinish qoldi, bundan foydalanib, yo'lovchi dunyoning to'rt tomonini belgilab oldi, yo'ldan adashganligi aniq bo'ldi. So'nggi kunlarda chap tomonga ko'proq ketib qolgan bo'lsa kerak, endi u to'g'ri yo'lga tushib olish uchun o'ng tomonga qarab yura boshladni.

Ochlik azobi o'tmaslashgan edi-yu, lekin o'zining holdan ketganini sezdi. Dam olish uchun tez-tez to'xtar, yerdan meva terar va qamishlarni tomiri bilan sug'urib olardi. Uning tili qaqrab, shishib ketdi, og'zi achchiq va bemaza. Hammadan ko'proq yuragi bezovta qildi. U bir necha qadam bosmasdan yuragi duk-duk urib ketar, keyin qinidan

chiqib ketar darajada dukullab ura boshlardi-da, yo'lovchi bo'g'ilar, o'zdan ketar darajada boshi aylanardi.

Tush paytida u katta bir chuqurda ikkita tanga baliq suzib yurganini ko'rib qoldi. Chuqurning suvini quritib bo'lmasdi, lekin endi u ancha o'zini bosib olgandi, paqirchasi bilan baliqlarni tutib oldi. Baliqlar jimjiloqdek-jimjiloqdek kichkina edi, lekin u ovqat yeyishni uncha istamasdi. Qorin og'rig'i xuddi mudrayotgandek, borgan sari bosib borardi. U baliqlarni xomligicha og'ziga solib, g'ayrat bilan chaynay boshladidi. Ishtahasi bo'lmasa ham, ovqat yeyishga o'zini majbur qildi, chunki yashamoq uchun ovqat yeyish zarurligini yaxshi bilardi. Kechqurun u yana uchta tanga baliq tutdi, ikkitasini yeb, uchinchisini ertalabga olib qo'ydi. Quyosh onda-sonda uchrab turgan yo'sinlarni quritganda, u suv qaynatib ichib, biroz isidi. O'sha kuni u o'n mildan ortiq yo'l bosolmadi, ertasiga yuragi gupullab urib ketaverib, besh milga yaqin yo'lni zo'rg'a bosib o'tdi. Qorni uyquga ketgandek ortiq og'rimay qo'ydi. Endi u notanish yerlardan borardi, bug'ular tez-tez uchrar, hatto bo'rilar ham ko'rinib qolardi. Ularning uvullagan tovushi uzoqdan qulog'iga chalinardi. Bir marta u pusib yo'lini kesib o'tayotgan uchta bo'rini ko'rib qoldi.

Yana tun kirdi, tongda u biroz o'ziga kelib, xaltaning qayishini yechdi-da, ichidagi oltinni yerga to'kdi. Oltinni bab-baravar qilib, ikki qismga bo'ldi. Bir bo'lagini lattaga o'rab, uzoqdan yaxshi ko'rinish turadigan bir tepalikka, toshlar orasiga yashirib qo'ydi. Ikkinchchi qismini yana xaltaga solib, og'zini bog'ladi. Keyin u bitta-yu bitta adyolini yirtib, oyoqlarini o'radi. Lekin u hali ham miltig'ini tashlamadi, chunki Diz daryosi bo'yida yashirib qo'yilgan narsalar orasida patronlar bor edi.

Bugun hamma yoqqa tuman tushdi. Shu kun ochlik yana o'zini bildirdi. Yo'lovchi juda zaiflashib qolgan, tez-tez boshi aylanar, vaqtı-vaqtı bilan hech narsani ko'rmay

qolardi. U endi tez-tez qoqilib ketar, yiqilar edi, bir marta to‘ppa-to‘g‘ri kaklik uyasiga yiqilib tushdi. Uyada endigina tuxumni yorib chiqqan kaklik bolalari bor ekan. U shoshib-pishib ularni tiriklayin og‘ziga sola boshladi. Kaklik bolalari uning tishlari orasida xuddi tuxum po‘stlog‘i singari qisirlar edi. Ona kaklik uning tepasida charx aylanib uchib yurar va achchiq-achchiq yig‘lardi. Yo‘lovchi miltiq qo‘ndog‘i bilan kaklikni urib tushirmoqchi bo‘ldi, lekin qush chap berib qochdi. Keyin u kaklikka tosh ota boshla-di-da, qanotini sindirdi. Kaklik yaralangan qanotini sudrab, bir tomonga qarab uchib ketdi, odam uning orqasidan quvlashga tushdi.

Kaklik bolalari uning ishtahasini yana ham ochib yubordi. U kalovlanib, oqsoqlanib goh kaklikka tosh otar va bo‘g‘iq qichqirar, goh har yiqilganida chidam bilan o‘rnidan turib, qovog‘ini solib indamay qadam bosardi, boshi aylanganda hushdan ketmaslik uchun ko‘zlarini ishqalar edi.

Kaklik orqasidan quvib, pastlikdagi bir chalchiquzorga borib qoldi. Ko‘zi ho‘l chimlikda odam iziga tushdi. Bu izlar uniki emasligi ravshan edi. Billning izlari bo‘lsa kerak. Lekin u to‘xtab turolmasdi, chunki kaklik borgan sari undan uzoqlashib qochib ketmoqda edi.

U quvlay berib qushni charchatdi, lekin o‘zining ham tinkasi quridi. Kaklik yonboshiga ag‘darilib, og‘ir-og‘ir nafas olib yotardi, lekin u ham o‘n qadamcha berida entikib yotar, qushga yetib olishga sira madori qolmagan edi. Odam biroz dam oldi, lekin qush ham nafasini rostlab olgandi. U qo‘l uzatgan zamon qush tipirlab qochdi. Quvish yangidan boshlandi. Qorong‘i tusha boshlagach, qush ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Juda charchaganidan qoqilib, orqasidagi yuki bilan yiqlidi-da, yuzlari shilinib ketdi. U uzoq vaqtgacha qimirlamay yotdi, keyin yonboshiga ag‘darilib, soatini burab qo‘ydi-da, tong otguncha shu holatda yotib qoldi.

Yana tuman. Adyolning yarmisi oyog‘ini o‘rashga ketdi. Billning izini u qaytib topolmadi, lekin unga baribir edi. Ochlik uni hamon olg‘a haydardi. Bordi-yu... Bordi-yu, Bill ham adashib qolgan bo‘lsa-chi? Tushga borib u juda ham holdan toydi. U yana oltinni ikkiga bo‘ldi. Bu gal o‘lchab o‘tirmay, yarmini yerga to‘kib qo‘ya qoldi. Kechga borib, adyolning yarmini, paqircha va miltiqni olib qolib, oltin-ning hammasini yerga to‘kib tashladi.

Unga bir xomxayol yopishib oldi. Tasavvurida miltiqda xuddi bir o‘q qolgandek, buni ko‘rmay qolgandek edi. Shu bilan bir vaqtda miltiqda o‘q yo‘qligini yaxshi bilardi. Lekin xomxayol uni sira tinch qo‘ymadi. Bir necha soat-gacha mana shu xomxayolga qarshi kurashdi. Pirovardida, miltig‘ini qarab, o‘qning yo‘qligiga ishonch hosil qildi. Hafsalasi shunday pir bo‘ldiki, go‘yo u haqiqatan ham o‘q borligini kutgan edi.

Yarim soat o‘tdi, keyin boyagi xomxayol yana paydo bo‘ldi. U xomxayolga qarshi kurashib yengolmadi-da, o‘zini biroz ovutish uchun yana miltig‘ini tekshirib chiqdi. Ahyon-ahyonda miyasi ishlamay qolar, o‘zi esa jonsiz bir narsadek beixtiyor kalovlanib borardi; g‘alati xayollar va bema’ni tasavvurlar uning miyasini aynitar edi. Lekin u tez o‘ziga kelardi, chunki ochlik azobi uni hamma vaqt haqiqatga qaytishga majbur qilardi. Bir marta ko‘z o‘ngida shunday g‘alati bir manzara paydo bo‘ldiki, hushidan ketib qolishiga sal qoldi. U o‘zini tutolmay qoldi va yiqilib ketmaslik uchun mast kishidek gandiraklab ketdi. Uning oldida ot turardi. Ot! U ko‘zlariga ishonmasdi. Ko‘zoldi jimirlashib, atrofni tuman bosgandek bo‘ldi. U zo‘r berib ko‘zini ishqaladi, ko‘zoldi ravshanlashganda qarasa, qarshisida ot emas, kattakon bir targ‘il ayiq turgan ekan. Ayiq unga yovqarash qilib turar edi.

U miltig‘ini yelkasidan oldi-yu, shu ondayoq esini yig‘di. Miltiqni qo‘yib, munchoq qadalib tikilgan qindan

pichog‘ini sug‘urdi. Uning oldida go‘sht va hayot turar edi. U bosh barmog‘i bilan pichoqning tig‘ini paypaslab ko‘rdi. Pichoqning tig‘i ham, uchi ham o‘tkir edi. U hozir ayiqqa tashlanib, uni o‘ldiradi. Lekin uning yuragi xuddi xavfdan ogohlantirayotgandek duk-duk ura bashladi. Keyin birdan yuragi qinidan chiqib ketar darajada hapriqib ketdi; miyasi xuddi iskanjaga olgandek qattiq og‘ridi, ko‘z oldi qorong‘ilashdi.

Hozirgina jo‘sh urib turgan botirligi o‘rnini qo‘rquv egalladi. U shunday zaif ediki, ayiq hujum qilsa, unda nima bo‘ladi? Mumkin qadar haybatliroq bo‘lib ko‘rinish uchun haddini rostladi, pichoqni qo‘liga olib, to‘g‘ri ayiqning ko‘zlariga tikildi. Yirtqich lapanglab oldinga bir qadam bosdi, ikki oyog‘ini ko‘tarib, o‘kirib yubordi. Odam qochib ketganda, ayiq uning orqasidan quvgan bo‘lardi. Lekin odam qo‘rquvning kuchliligidan botirlanib, o‘rnidan qimirlamadi; u ham yirtqich hayvon singari vahshiyona ovoz bilan o‘kirib yubordi, bu o‘kirik qo‘rquv ifodasi edi, chunki qo‘rquv yashash uchun kurash bilan chambarchas bog‘liq edi.

Ayiq undan qo‘rqmay, tik turgan mana shu sirli maxluqdan hayiqib o‘kirib-o‘kirib bir tomonga chekindi. Lekin odam o‘rnidan qimirlamadi. U xavf o‘tib ketguncha qaqqayib tek turdi, keyin xuddi bezgak tutgandek qaltirab, ho‘l chimlikka yiqildi.

U biroz o‘ziga kelib, qo‘rquv azobidan qiynalgan holda yana yo‘lga tushdi. U endi ochdan o‘lishdan emas, balki hayot uchun kurashning so‘nggi intilishlari so‘nguncha yirtqich hayvonlar qo‘lida o‘lishdan qo‘rqardi. Atrofda bo‘rilar izg‘ib yurardi. Sahroda hamma yoqdan ularning uvullagan tovushlari eshitilardi, tevarak-atrofda xavf shu qadar ko‘p ediki, u o‘sha xavfni bartaraf qilmoqchi bo‘lgandek beixtiyor ikki qo‘lini yuqori ko‘tardi.

Bo‘rilar ikkita-ikkitadan, uchta-uchtadan bo‘lib tez-tez uning yo‘lini kesib o‘tardilar. Lekin ular odamga yaqinlash-

madilar. Ular juda ham ko‘p emasdi. Bundan tashqari, ular qarshilik ko‘rsatmaydigan bug‘ularni ovlashga o‘rgangan edilar, ikki oyoqli bu g‘alati maxluq esa chang solib qolsa ham, tishlab olsa ham ajab emasdi.

Kechga borib, u yerda sochilib yotgan suyaklarni ko‘rib qoldi. Bo‘rilar xuddi mana shu yerda ovni qo‘lga tushirgan edilar. Bundan bir soat ilgari tirik bo‘lgan bug‘ucha hansi-rab, yugurib, ma’rab yurgandi. Odam top-toza qilib qo‘ylgan yarqiroqqizg‘ish suyaklarga qarab turdi. Suyaklarning rangi qizg‘ish edi, chunki undagi hayot hali so‘nmagandi. Kechqurunga borib, ehtimol, uning taqdiri ham shunday bo‘lar. Hayot shunaqa, hayot bevafo va bebaqo. Lekin hayot alam chektiradi. O‘limda qiynalish yo‘q. O‘lim uxlamoqdir. O‘lim orom olmoqdir. Bo‘lmasa, nima uchun u o‘lishni istamaydi?

Lekin u uzoq o‘ylab o‘tirmadi. Ko‘p o‘tmay u cho‘kka tushib olib suyaklarni og‘ziga soldi, suyaklarga qizg‘ish tus berib turgan hayotning oxirgi nishonalarini so‘rardi. Go‘shtning o‘tmishdan qolgan xotira singari tuyulgan sezilar-sezilmas mazasi uni o‘zini yo‘qotar darajada hayajonga soldi. Suyakni tishlari orasiga olib g‘ajiy boshladи. Goh suyak sinar, goh uning tishi sinardi. Keyin u suyakni tosh bilan yanchib, ochko‘zlik bilan yuta boshladи. Shoshilganidan toshni barmoqlariga urar, ammo qancha hovliqmasin, nima uchun og‘riqni sezmayotirman, deb ajablanib qo‘yardi.

Qor va yomg‘irli eng og‘ir kunlar yetib keldi. U endi qachon yotib, qachon yo‘lga tushganini eslay olmasdi. Vaqt ni surishtirmay, kecha-yu kunduz yo‘l bosa bordi, yiqilgan yerida dam oldi, undagi so‘nayotgan hayot sal jonlandi deguncha yana oldinga qarab o‘rmaladi. Hayot uchun endi odam kurashmay qo‘ydi. Undagi hayotning o‘zi o‘lishni istamas va uni ilgari haydardi. U ortiq azob chekmasdi. Uning asablari uvushib qolgan, o‘tmaslashgan, miyasi esa g‘alati xayollar, shirin tushlar bilan to‘la edi.

U bitta qo‘ymay yig‘ib, o‘zi bilan olib ketgan suyaklarni tinmay so‘rar va chaynar edi. U ortiq tepaliklarga ko‘tarilmas, ariqlarni kechib o‘tmasdi, u endi keng vodiyidan oqib o‘tayotgan anhor yoqalab borardi. Uning ko‘ziga xayoliy manzaralar ko‘rinardi. Uning tani bilan joni birga borardi-yu, shunday bo‘lsa ham bir-birlaridan ajralgandek edi: ularni bir-birlariga bog‘lab turgan hayot rishtasi shu qadar ingichka edi.

Bir kuni ertalab yassi bir tosh ustida yotganida hushi o‘ziga keldi. Quyosh nur sochib, isitib turardi. Uzoqdan uning qulog‘iga bug‘ularning ma’ragan ovozları eshitildi. Yomg‘ir, shamol, qor yog‘ib turgani g‘ira-shira esida, lekin yog‘ingarchilik necha kun bo‘lganini, ikki kun bo‘ldimi, yo ikki hafta davom etdimi – buni bilməsdi.

U uzoq vaqtgacha qimirlamay yotdi, quyosh mo‘l-ko‘l nur sochib, uning ayanchli badaniga issiqlik bag‘ishlar edi. „Yaxshi kun“, deb o‘yladi u. Ehtimol, quyoshga qarab, qayerda ekanini aniqlab olar. U ming azob-uqubat bilan bir yonboshiga ag‘darildi. Pastda katta sokin bir daryo oqib yotardi. Bu daryo yo‘lovchiga notanish edi, bu uni ajablantirdi, shoshilmay suvning oqishini ko‘zdan kechira boshladı. Daryo shu vaqtgacha u ko‘rib kelgan tepalardan ham yalang‘ochroq va yoqimsiz tepaliklar orasidan buralib-buralib oqayotganiga qarab yotdi. U shoshmasdan, beparvo va sira qiziqmay notanish daryoning oqimini to ufqqa qadar kuzatdi-da, daryo o‘z suvini uzoqda yarqirab turgan dengizga quyayotganini ko‘rdi. Shunday bo‘lsa ham bunga hayajonlanmadı. „Qiziq, – deb o‘yladi u. – Bu yo sarob yoki o‘tmashlashgan tasavvurning mevasi“. Yarqiroq dengizda turgan kemani ko‘rganda, bu fikrning to‘g‘ri ekanligiga yana bir marta ishondi. U bir zum ko‘zlarini yumib, yana ochdi. Ajab, xayoliy manzara yo‘qolmadı. Hayron qoladigan hech gap yo‘q edi ham. Uning miltig‘ida patron bo‘limganidek, mana shu sahroning qoq o‘rtasida dengizning ham, kemanning ham bo‘lishi mumkin emasligini bilardi.

Orqadan xirillagan bir tovush eshitildi, bu xo'rsinish-mi, yo'talmi – bilib bo'lmasdi. G'oyat zaiflik va karaxtlikni juda sekinlik bilan yengib, u ikkinchi yonboshiga ag'darildi. Yaqinida hech narsa ko'rinnadi, u sabr bilan kuta boshladi. Yana xirillagan va yo'tal tovushi eshitildi. Yigirma qadam-chaga narida o'tkir qirrali ikki toshning orasidan bir bo'rining kulrang boshi ko'rindi. Uning quloqlari boshqa bo'rilmarniki singari tik emas, ko'zlar xira va qon quyilgan, boshi zaif ravishda solingan. Bo'ri kasal bo'lsa kerak: u hamma vaqt aksa urar va yo'talar edi.

„Hech bo'limganda bunisi haqiqatdir“, – o'yladi u va tasavvur olamidagi dunyoni emas, haqiqiy dunyoni ko'rish uchun boshqa yonboshiga ag'darildi. Lekin dengiz hali ham ilgarigidek uzoqda yaltirab turar, o'rtasidagi kema ham aniq ko'zga chalinardi. Ehtimol, bu rostdan ham haqiqatdir? U ko'zlarini yumib o'ylay boshladi – pirovardida, hamma narsa ayon bo'ldi. U shimoli-sharqqa qarab yurgan va Diz daryosidan uzoqlashib Koppermayn daryosi vodiysiga kelib qolgan. Sokin oqayotgan mana shu keng daryo Koppermayn daryosining xuddi o'zginasi. Yaltirab turgan dengiz – Shimoliy muz dengizi. Bu kema kit ovchilari kemasi bo'lib, Makkenzi daryosi dengizga quyiladigan joydan sharq tomonga ancha ketib qolgan. Bu kema Koronatsiya ko'rfazida turibdi. U bir vaqtlar ko'rgani Gudzon ko'rfazi kompaniyasining xaritasini esladi-yu, bor gap ravshan, tushunarli bo'lib qoldi.

U yerga o'tirib oldi-da, eng zarur ishlar haqida o'yab ketdi. Oyoqlarini o'rab bog'lagan adyol parchalari titilib ketgandi, shu sababdan oyoqlari shilinib qip-qizil go'sht bo'lib qolgandi. Eng so'nggi adyolni ham ishlatib bo'lган. Miltiq bilan pichog'i yo'qolgan. Qalpog'i ham tushib qolibdi, u bilan birga astariga yashirilgan gugurt ham yo'qolgan-di, lekin qog'ozga o'rab, hamyoniga solib qo'ygan gugurt hali ham quruq turibdi. U soatiga qaradi. Soati, hamma vaqt

u soatini burab turgan bo'lsa kerak, yurib turar va o'n birni ko'rsatardi.

O'zi tinch, aqli joyida edi. Juda holdan toyganiga qaramay, og'riqni sezmas, ovqat yegisi ham kelmasdi. Ovqat haqidagi fikr uni qiziqtirmasdi ham. Har bir harakatni idrok hukmi bilan qilardi. U shiminining pochasiidan to tizzasiga-cha yirtib oldi-da, to'pig'ini o'rabi bog'ladi. Chelakchasi-ni nima uchundir tashlamadi: kemaga qarab yo'l olishdan avval suv qaynatib ichishi kerak, bu safarning juda og'ir bo'lishini u oldindan bilardi.

U juda sekin harakat qilar, shol odamdek qaltirar edi. Qurug yo'sin yig'moqchi bo'ldi, lekin o'midan turolmadi. Bir necha marta o'midan turishga intilib ko'rdi, bo'limgach, emaklab ketdi. Bir marta hatto kasal bo'rining oldiga juda yaqin borib qoldi. Bo'ri istar-istamas o'zini chetga oldi va zo'rg'a tilini qimirlatib tumshug'ini yaladi. Uning tili sog'lom bo'rnikidek qizil emas, kulrang-sarg'ish bo'lib, yelim singari quyuq shilliq bilan qoplangan. Odam biroz qaynagan suv ichib oldi-da, deyarli kuch-quvvatdan qolgan bo'lsa ham, o'midan turishga, hatto yurishga o'zida yetarli kuch borligini his qildi. Daqiqa sayin to'xtab dam olardi. Zaiflik bilan yakkam-dukkam qadam tashlar, bo'ri ham uning orqasidan xuddi shu xilda sudralib borardi.

Qorong'i tushib, yarqirab turgan dengiz zulmat ichiga g'arq bo'lganda, u oraliqdagi masofa ko'p emas, to'rt milga qisqarganini anglatdi. Tun bo'yi kasal bo'rining yo'talishi va ba'zan bug'u bolalarining ma'rashi eshitilib turdi. Atrofda hayot qaynamoqda, ammo u hayot kuch-quvvatga to'la, sog'lom hayot. U esa orqasidan kasal bo'ri ergashib kelayotganini, kasal odam avval o'ladi, degan umidda ekanligini tushunar edi. Ertalab turib qarasa, bo'ri unga g'amgin va ochko'zlik bilan ko'z tikib turibdi. Bo'ri dumini qisib, xuddi tinkasi qurigan g'arib it kabi, boshini quyi solib turardi. Bo'ri sovuq shamolda qaltirar, odam unga

xirillagan tovush bilan so‘z qotganda, tishini tirjaytirib irillar edi.

Ufqdan yorqin quyosh ko‘tarildi. Odam choshgohga qadar qoqilib-suqilib yaltiroq dengizda turgan kemaga qarab yurdi. Havo juda yaxshi, shu shtatlarga xos bo‘lgan erta kuz kunlari edi. Bunday kunlar ko‘pi bilan bir hafta davom etar, erta, yo indin tamom bo‘lishi ham mumkin edi.

Tushdan keyin u bir izga duch keldi, bu boshqa bir odamning izi bo‘lib, u odam yurib emas, emaklab ketgani bilinib turardi. Ehtimol, bu Billning izidir, deb o‘yladi u hech qanday hayajonsiz. Unga baribir edi. To‘g‘risi, u biorr narsani sezish va hayajonlanish tuyg‘usini yo‘qotib qo‘ygan edi. U hatto og‘riqni ham sezmasdi. Qorni bilan asablari go‘yo mudrab ketgandek. Lekin hali so‘nmagan hayot uchquni uni olg‘a haydardi. U juda charchagan, lekin undagi hayot o‘lishni istamasdi. Shuning uchun ham u chalchiqzordan meva terib yer, tanga baliq ovlar, suv qaynatib ichar va olazarak bo‘lib kasal bo‘rini kuzatar edi.

U o‘rmalab o‘tgan boshqa odamning izidan borardi.

Ko‘p o‘tmay u o‘zidan oldingi odamning manziliga yetib keldi. Ho‘l chimlik ustida kemirib tashlangan suyaklar va bo‘rilarning iziga ko‘zi tushdi. Yerda xuddi o‘zini kiga o‘xshash, o‘tkir tishlar tortqilab yirtgan bug‘u terisidan tikilgan xalta yotardi. Bunday og‘ir yukni ko‘tarishga madori kelmasa ham kuchsiz barmoqlari bilan qopni yerdan ko‘tarib oldi. Bill oltinlarini so‘nggi daqiqalarga qadar tashlamagan ekan. Xa-xa-xa! U hali Billning ustidan masxara qilib kuladi. Tirik qoladi va xaltani yarqirab turgan dengizdagи kemaga olib ketadi. U xuddi qarg‘aning qag‘ilashiga o‘xshagan bo‘g‘iq va beo‘xshov ovoz bilan kulardi. Kasal bo‘ri ham unga taqlid qilib xirillagan tovush bilan uvulladi. Odam darhol jim bo‘ldi. Agar mana shu suyaklar Billniki bo‘lsa, shu toza kemirilgan, qizg‘ish suyaklar Billniki bo‘lsa, qanday qilib uning ustidan kulyapti-ya!

U yuzini o'girib oldi. Nima qilsin, Bill uni tashlab ketdi, lekin u Billning oltinlarini ochmaydi, uning suyaklarini kemirmaydi. Agar mening o'rnimda Bill bo'lganda shunday qilgan bo'lardi, deb o'ylab qo'ydi va kalovlanib yo'lga tushdi.

U kichkina bir ko'lga duch keldi. Baliq yo'qmikan, deb chuqurchaga engashib qaradi-yu, xuddi ilon chaqqandek seskanib o'zini orqaga tashladi. Suvda u o'z aksini ko'rib qoldi. Uning basharasi shu qadar qo'rqinchli ediki, hatto o'tmaslashib qolgan ongini ham uyg'otib yubordi. Ko'lcha-da uchta baliq suzib yurardi, lekin ko'lcha kattagina bo'lib, suvini quritishga uning qurbi yetmasdi. U baliqlarni chelak-cha bilan tutishga urinib ko'rdi, keyin bu fikrdan qaytdi. O'lgudek charchaganidan suvga yiqlilib, cho'kib ketaman, deb qo'rqdi. Xuddi shu sababga ko'ra u qumloq sohilda yog'och xodalar ko'p bo'lsa ham, sol yasab, daryodan suzib ketishga jur'at qilolmadi.

O'sha kuni u kemagacha bo'lgan masofani uch milga qisqartirdi, ertasiga esa ikki mil yo'l bosdi. Endi u xuddi Billga o'xshab o'rmalab borardi. Beshinchi kuni kechqurun kemaga yetish uchun yana yetti mil yo'l qolgan edi; endi bir kunda bir mil yo'l bosishga ham madori qolmadni. Ertakuzning iliq kunlari hali tugamagandi, u esa goh o'rmalar, goh hushidan ketib yiqlardi, kasal bo'ri esa yo'talib, aksa urib, uning orqasidan qolmay sudralib borardi. Odamning tizzalari qip-qizil go'sht bo'lib ketgan, tovonlari bundan ham battar edi. Ko'ylagidan yirtib olib, tizza va tovonlarini o'rab bog'lagan bo'lsa ham, orqasidan chimlik va toshlar ustiga qonli iz qoldirib borardi. U bir marta orqasiga qayrilib qarab, bo'ri ochko'zlik bilan qonli izzlarni yalayotganini ko'rib qoldi. Agar bo'rini bir yog'lik qilmasa, o'zining umri nima bilan tugashini yaxshi tasavvur etdi. Shundan keyin hayotda uchrashi mumkin bo'lgan kurashlarning eng shiddatlisi boshlandi: emaklab borayotgan kasal odam, uning orqasi-

dan sudralayotgan kasal bo'ri; ikkisi ham chala o'lik holda, bir-birini poylashib, sahrodan sudralib bordilar.

Bo'ri sog' bo'lganda, odam bunchalik qarshilik ko'rsatib o'tirmagan bo'lardi, lekin mana shu eng badburush, deyarli o'laksa bo'lib qolgan razil maxluqning qorniga tu-shishini o'ylasa, ko'ngli aynir edi. U yana alahlay boshladi, yana ko'ziga xomxayollar ko'rina boshladi, ongi ravshanlashgan vaqtlar borgan sari qisqarib va tobora siyraklashib borardi.

Bir marta xuddi qulog'i ostida kimdir tez-tez nafas olayotganini eshitib hushiga keldi. Tepasida turgan bo'ri o'zini orqaga tashladi va qoqilib ketdi-da, zaiflikdan yiqilib tushdi. Bu kulgili bir manzara edi, lekin odam kulmadi. U hatto qo'rqmadi ham. U endi qo'rqish nimaligini ham sezmay qolgandi. Uning ongi bir daqiqaga ravshanlashdi, u o'ylab ketdi. Kemaga qadar endi ko'pi bilan to'rt mil yo'l qolgandi. U tuman bosgan ko'zlarini ishqalab, kemani juda ravshan ko'rdi. Yarqirab turgan dengizni kesib o'tayotgan oq yelkanli qayiqchani ham ko'rdi. Lekin bu to'rt millik masofani bosishga asti madori qolmagandi. Odam buni bilardi, shuning uchun ham bezovtalanmadı. Yarim millik yo'lni ham bosa olmasligiga aqli yetardi. Shunday bo'lsa ham yashashni istardi. Shuncha azob-uqubatlar chekkandan keyin o'lib ketish be'manilik bo'lardi. Taqdir undan juda ko'p narsa talab qilardi. O'layotib ham u o'limga bo'ysunishni istamas edi. Ehtimol, bu aqlsizlik edi, lekin o'limning changaliga tushib qolgan bo'lsa ham, uning changalid dan qutulib ketish uchun kurashni davom ettirdi.

U ko'zlarini yumib, ming ehtiyyot bilan kuchini to'pladi. Xuddi to'lqin singari uning butun vujudini qoplab olayotgan hushidan ketish xavfini yengish tilagida u o'ziga dalda berardi. Bu to'lqin o'qtin-o'qtin ko'tarilib, uning ongini xiralashtirardi. Ba'zan u chorasziz tipirchilab, hushsizlik dengiziga botib ketar, ongning qandaydir noma'lum kuchi

ta'sirida yana qaytadan irodasini zo'rg'a to'plab, hushsizlik dengizidan suzib chiqdi.

U qimirlamasdan chalqancha yotgan holda kasal bo'ri-ning xirillagan tovushi tobora yaqinroq eshitilayotganiga qulq soldi. Onlar juda sekin o'tar, lekin odam biror marta ham qimirlamasdi. Bo'rining nafasi juda yaqindan eshitila boshladi-yu, qurib qolgan til xuddi shildiroq qog'oz singari uning yuzini timdaladi. Uning qo'llari yuqoriga cho'zildi, barmoqlari xuddi changak singari bukildi, lekin mehnati zoye ketdi. Tez va ishonch bilan harakat qilish uchun kuch kerak, unda esa kuch yo'q.

Bo'ri sabrli edi, lekin odam undan ham sabrli edi. U hushdan ketib qolmaslik uchun urinib va bo'rini poylab, yarim kun qimirlamasdan yotdi. Bo'ri uni yemoqchi edi, qo'lidan kelsa, odam ham bo'rini yemoqchi edi. Vaqt-vaqt bilan u hushdan ketib qolar, shunda u uzoq-uzoq tushlar ko'rар edi; lekin hamma vaqt: tushida ham, o'ngida ham mana hozir bo'rining xirillagan tovushi eshitiladi, g'adir-budur tili bilan meni yalaydi, deb kutib yotardi.

Nafas tovushini eshitmadni, lekin bo'ri uning qo'lini yalayotganligini sezib o'ziga keldi. Odam kutib yotdi. Bo'ri uning qo'lini tishlari orasiga olib so'nggi kuchlarini sarf qilib qisdi, keyin tishlarini borgan sari qattiqroq botira berdi, u shuncha vaqtdan beri kutgan ovqatiga erishgan edi. Lekin odam ham shu paytni ko'pdan beri kutardi, uning tishlangan qo'llari bo'rining jag'ini qisdi. Bo'ri zaiflik bilan o'zini himoya qilar kan, odam bir qo'li bilan uning jag'ini qisardi, ikkinchi qo'lini ham uzatib bo'rining tomog'idan bo'g'a boshladi. Besh daqiqadan keyin odam o'zining butun og'irligi bilan bo'rini bosib tushdi. Bo'rini bo'g'ib o'ldirish uchun uning kuchi yetmasdi, shunda odam tishi bilan bo'rining tomog'iga yopishdi, uning og'zi yungga to'ldi. Yarim soat o'tdi, odam o'z tomog'iga issiq qon quyilayotganini sezdi. Xuddi uning og'ziga eritilgan

qo'rg'oshin quyilayotgandek uni yutish qiyin edi. Lekin faqat iroda kuchi bilan o'zini chidashga majbur qildi. Keyin odam chalqanchasiga ag'darildi-da, uyquga ketdi.

Kit ovlovchi „Bedford“ kemasida ilmiy ekspeditsiya a'zolari bor edi. Ular kema palubasida turib, qirg'oqda g'alati bir maxluqni ko'rib qolishdi. Bu maxluq qum ustida zo'rg'a o'rmalab, dengiz tomonga kelardi. Olimlar buning nima ekanini bilolmadilar, tabiatshunos bo'lganliklari uchun qayiqchaga o'tirib qirg'oqqa suzib ketdilari. Ular tirik bir maxluqni ko'rdilar, lekin uni odam deb atash mumkinmidi? U hech narsani eshitmas, hech narsani tushunmas, qum ustida ulkan qurt singari buralar edi. U oldinga deyarli siljimas, lekin orqaga ham chekinmasdi va buralib-buralib oldinga qarab harakat qilar va soatiga yigirma qadamdan yo'l bosardi.

Uch hafta o'tgandan keyin u „Bedford“ kemasida karavotda yotgan holda ko'zyoshlarini oqizib, o'zining kimligi va qanday mashaqqatlarni boshidan kechirgani haqida hikoya qilib berdi. U bir-biriga qovushmagan hikoyasida o'zining onasi, serquyosh janubiy Kaliforniya, apelsin daraxtlari va gullar orasiga ko'milgan uyi haqida gapirib berdi.

Bir necha kun o'tgandan keyin u olimlar va kapitan bilan birga kayut-kompaniyada o'tirardi. U ovqatning serobligidan quvonar, boshqalarning og'ziga tushib yo'q bo'lib ketayotgan har bir luqma uni zo'r tashvishga solar-di. Uning aqli joyida, lekin stol atrofida o'tirgan odamlarga nafrat bilan qarardi. Ovqatning tamom bo'lib qolishidan qo'rqib bezovta bo'lardi. U hadeb oshpazdan, xizmatchi boladan, kapitandan ovqat zaxirasini surishtirardi. Ular yuz martalab tasallli bersalar ham ishonmas, o'z ko'zi bilan ko'rib ishonish uchun ovqat omboriga tez-tez tushib turardi.

Kemadagilar uning semirayotganligini sezib qoldilar. Kun sayin uning etiga et qo'shilardi. Olimlar bosh chayqab

turli taxminlar qilishardi. Unga ovqatni kamroq bera boshladilar. Lekin shunda ham borgan sari semirib ketaverdi, qorin sola boshladi.

Matroslar bunga kulishardi, ular gapning nimada ekanini bilishardi. Olimlar uning orqasidan poylab, sirni bilib oldilar. Ertalab nonushtadan keyin u bakka chiqar va xuddi tilanchi singari matroslarga qo'l cho'zardi. Matros kulib, unga suxari berardi. U ochko'zlik bilan suxarini olar va xuddi oltinga ko'zi tushgan xasisdek, nonni qo'ltig'iga urardi. Boshqa matroslardan ham xuddi shunday yo'l bilan sadaqa olardi.

Olimlar indamadilar va uni o'z holiga qo'yib qo'ydilar. Ular o'ziga bildirmay uning karavotini tekshirdilar. Karavotning osti suxari bilan to'la edi. To'shakning ichiga ham suxari to'ldirilgan ekan. Har bir burchakka suxari yashirilgan. Lekin uning miyasi joyida edi. U faqat ikkinchi marta och qolmaslik chorasin ko'rardi, xolos. Olimlar bu kasallik tez o'tib ketadi, degan fikrda edilar. Haqiqatan ham „Bedford“ kemasi San-Fransisko limoniga langar tashlamasданоq bu kasallik o'tib ketdi.

BUYUK SEHRGAR

Qishloq aholisi zo'r tashvishda. Xotin-xalaj chinqirishib, labi-labiga tegmay to'xtovsiz javrashadi. Erkaklarning qovog'i soliq, ular shubha bilan tevarak-atrofga qaraydilar, hatto itlar ham bezovtalanib, daydib yuradilar, ular ham butun qishloqni qoplab olgan hayajonli tashvishni g'ira-shira sezib, falokat yuz bergen hamon o'rmonga qarab qochishga tayyorlanadilar. Hamma shubhada. Hech kim o'z qo'shni singa ishonmas, qo'shni ham shu xilda unga shubha bilan qarayotganligini bilardi. Hatto bolalar ham yuvosh bo'lib qolgan, butun hodisaning aybdori kichkina Di-Ya onasi Guniyadan, keyin otasi Boundan rosa kaltak yeb, qirg'oqdagi to'nkarib qo'yilgan qayiq ostiga yashirinib oldi, endi ahyon-ahyonda burnini bir shilqiratib tortib atrofga qarab o'tirar edi.

Eng yomoni shundaki, shu qishloqlik shomon Skundu odamlar nazaridan qolgan, shuning uchun uning mashhur sehrgarlik san'atini ishga solib, jinoyatchini topib bo'l-maydi. Bundan bir oycha ilgari qabila a'zolari Tonkinga mehmondorchilikka borishdi, u yerda Chaku-Jim yigirma yil davomida to'plagan boyligini sarf qilib, ziyofat berdi. Shunda shomon Skundu, janubdan yo'lovchi shamol yuradi, deb bashorat qilgan edi. Oxirida nima bo'ldi? Belgilangan kun birdan shimol tomondan shamol urib berdi. Shamol shu qadar kuchli bo'ldiki, eng oldin yo'lga chiqqan uchta qayiqning birini dengizga surib ketdi. Qolgan ikkisi qirg'oq toshiga urilib, parcha-parcha bo'ldi, bir

kichkina bola suvgaga cho'kib o'ldi. Keyin Skundu fol ochganimda xatoga yo'l qo'yibman, zarur bo'lgan ip tortilmagan ekan, deb tushuntirdi. Lekin odamlar unga qulqoq solmadilar; unga hech kim go'sht, baliq va teri sovg'a qilmay qo'ydi. Keyin odamlar uni o'z uyiga kirib olib, kunlarini ro'za tutish va qayg'u-alamda o'tkazayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladilar. Haqiqatda esa Skundu yashirib qo'ygan joyidagi bor ovqat zaxiralarini yeb yotar va odamlarning bevafoligi haqida o'ylar edi. Guniyaning adyoli yo'qoldi. Juda yaxshi, qalin, issiq adyol edi. Guniya bu adyolni deyarli suvtekinga olganligi uchun ham doim maqtanib yurardi. Qo'shni qishloqlik Ti-Kuon juda go'l odam ekan, bo'lmasa, shunday adyolni arzon-garovga berib qo'ya qolarmidi. To'g'risi, Guniya bu adyol o'ldirilgan bir inglizniki ekanligini bilmasdi. Bu ingliz g'oyib bo'lganda, Qo'shma Shtatlarga tegishli politsiya kateri uzoq vaqt qirg'oqdan uzoqlashmay turdi. Qayiqlari esa bo'g'ozlar va buxtalarning eng yashirin joylarini ham ag'dar-to'ntar qilib, rosa axtardilar. Shuning uchun ham Ti-Kuon, hukumat qabiladoshlarimni javobgar qilmasin, deb bu adyolni tezroq sotib yuborishga oshiqqandi. Lekin Guniya bundan xabarsiz bo'lib, adyolni maqtash bilan ovora edi. Hamma xotinlarning adyolga havasi kelganidan Guniyaning shuhrati ortgandan ortib bordi va dovrug'i qishloqdan ham tashqari chiqib, butun Alyaska qirg'oqlari bo'ylab Datch-Xarbordan to muqaddas Mariya buxtasigacha borib yetdi. Hamma yerda uning adyolini maqtashar edi. Har yerda uning antiqa o'ljasni to'g'risida gap bo'lardi, erkaklar qayerda to'planmasin – baliq ovidami, ziyofatdami – hamma yerda, Guniyaning adyol og'izdan tushmas, uning qaliligi va issiqligi to'g'risida gurung ketardi. Bu adyolning yo'qolishi juda g'alati va sirli ish bo'ldi.

– Men uni endigina xuddi uyim oldiga oftobga yoyib qo'ygan edim, – deb minginchi marta zorlanar edi Guniya,

Tlinket qabilasi xotinlariga. – Adyolni yoyib, endigina o‘girilgan edim, negaki, anavi yaramas o‘g‘ri Di-Ya xom xamirdan yeb ko‘rmoqchi bo‘lib, boshini katta qozonga suqibdi, qozonga yiqlilib tushibdi-da, xamirga boshi bilan sho‘ng‘ib ketibdi, oyoqlari xuddi shamolda qimirlagan daraxt shoxlari kabi qimirlab turibdi. Uni xamirdan sug‘urib, aql kirsin, deb boshini eshikka bir-ikki urgunimcha yo‘qli, qarasam, adyol yo‘q-da.

– Adyol yo‘qoldi degin! – deb shivirladilar qo‘rqib ketgan xotinlar, uning gapini ilib olib.

– Yomon bo‘ldi, – dedi Guniya.

– Shunday adyol-a! – dedi boshqa bir xotin.

Lekin xotinlar hamma havas qilib yurgan la’nati adyol yo‘qolganidan ich-ichidan xursand bo‘ldilar.

– Endigina oftobga yoyib qo‘ygan edim-a, – deb gap boshladi Guniya, ming birinchi marta.

– Ha, ha, – deb uning so‘zini kesdi bu hikoya joniga tekkan Boun. – Lekin qishloqda yot odam yo‘q edi. Shuning uchun ham adeyolni o‘g‘irlagan odam o‘z qabilamizdan ekanligi aniq.

– Qo‘ysang-chi, bo‘limg‘ur gaplarni, Boun! – deb norozilik bildirishdi xotinlar. – Bizning oramizda bunday odam yo‘q.

– Bo‘lmasa, birov jodugarlik qilgan, – dedi Boun sovuqqonlik bilan va atrofdagi xotinlarga mug‘ambirlik bilan qarab qo‘ydi.

– Jodugarlik! – degan so‘z aytishi bilanoq xotinlar jim bo‘lib qolishdi va qo‘rqa-pisa bir-birlariga qarashdi.

– Ha, – deb qasos hissi bir zumga uyg‘ongan Guniya xotinlarni chaqib oldi. – Klok-No-Tonni olib kelgani kuchli bir eshkakchi yuborildi. Kechqurungi suv ko‘tarilganda shu yerda bo‘ladi.

Xalq tarqala boshladi. Butun qishloqni qo‘rquv bosdi. Falokatlarning eng yomoni – jodugarlik. Shayton xohlagan

odamning ichiga – xoh erkak, xoh xotin, xoh yosh bola – kirib olgan bo‘lishi mumkin, lekin hech kimga ayon emas. Ko‘zga ko‘rinmas, tutqich bermas kuchlarga qarshi shomonlargina kurasha oladi, o‘lkadagi shomonlarning ichida jin-ajinalarga dahshat soladigani esa qo‘shti qishloqlik Klok-No-Ton edi. Jin-ajinalarni hech kim uningdek ko‘p topa olmaydi, hech kim gunohkorlarni u qadar mudhish qiyonoqlarga sololmaydi. Bir marta iblis hatto uch oylik chaqaloqning ichiga kirib olgan ekan. Bu ajina juda ham o‘jar ekan. Uni haydab chiqarish uchun chaqaloqni bir haftagacha ajriqqa ag‘anatib qo‘yishga to‘g‘ri keldi.

Chaqaloqning o‘ligini dengizga tashladilar, lekin to‘lqin xuddi butun qishloq ahliga la’nat o‘qiyotgandek, uni hadeb qirg‘oqqa uloqtirib tashlayverdi. Ikkita baquvvat erkak suv qaytayotgan paytda g‘arq bo‘lib ketganlaridan keyingina bolaning o‘ligi qaytib chiqmadi.

Guniya mana shu Klok-No-Tonni olib kelish uchun odam yuboribdi. O‘zimizning shomon Skundu nazardan qolmagan bo‘lsa ham go‘rga edi. U, odatda, bu qadar keskin choralarни ko‘rmasdi, bir kuni u bir erkakning ichiga kirib olgan ikkita shaytonni haydab yubordi, o‘sha kishi keyin yetta farzand ko‘rib, hammasini boqib katta qildi. Klok-No-Ton-chi! Uni esga olganda, yomon bir falokat kelihsidan qo‘rqib odamlarning kapalagi uchar edi. Qishloqdagi har bir kishi ham, hamma menga shubha bilan qaratotir, deb o‘ylar, shunday deb o‘ylagan odamning o‘zi ham boshqalarga xuddi o‘shanday shubha bilan qarardi. Sime-dan boshqa hamma shuni his qilar edi, lekin Sime xudosiz odam edi, bora-bora u katta bir falokatga uchrashi turgan gap, albatta. Lekin shu vaqtgacha u biror falokatga uchragani yo‘q.

– Xa-xa-xa, – deb kular edi u. – Iblis emish! Klok-No-Tonning o‘zi har qanday iblisdan battar-ku, unday yovuz odamni butun tlinketlar tuprog‘idan topolmaysiz.

– Voy tentak-e! Shoshmay tur hali, hademay Butun sehr afsunlari bilan yetib keladi. Yaxshisi, tilingni tiy, bu gaplarning kasofati uring, umring qisqarib qolmasin yana!

Aldoqchi deb laqab berilgan La-Lax shunday dedi, lekin Sime bunga javoban kulib qo‘ya qoldi.

– Meni Sime deydilar, qo‘rquv nimaligini bilmayman, jaholatdan qo‘rmayman. Marhum otamdek kuchliman, kallam ham joyida. Axir, jin-ajinalarni na men, na sen ko‘rgan emasmiz-ku, hech kim ham ko‘rmagan!

– Skundu esa ko‘rgan, – deb e’tiroz bildirdi La-Lax. – Klok-No-Ton ham ko‘rgan. Biz buni bilamiz.

– Sen qayoqdan bilasan buni, voy ahmoq-e! – deb shang‘illab berdi Sime, uning ho‘kiznikidek yo‘g‘on bo‘yni qon quyilib, qizarib ketdi.

– Men buni ularning o‘z og‘zidan eshitganman, – shuning uchun bilaman.

Sime piq etib kulib yubordi.

– Shomon ham bir odam-da. Uning so‘zlari ham meniki yoki senikiga o‘xshab yolg‘on bo‘lishi mumkin emasmi? Tuf-e! Tuf! Yana bir marta tuf! Mana, jin-ajinalar-u shomonlaringga beradigan javobim shu! Mana senga! Mana senga!

Shunday deb Sime barmoqlarini qarsillatib, o‘z yo‘liga ketaverdi, olomon esa unga hurmat va qo‘rquv aralash yo‘l bo‘shatib berdi.

– Yaxshi ovchi, usta baliqchi-yu, lekin yomon odam, – dedi odamlardan biri.

– Shunday bo‘lsa ham hamma vaqt uning omadi yurgan, – dedi boshqasi.

– Sen ham yomonlar qatoriga qo‘shila qol, senga ham omad keladi, – deb qayrilib qaramay gap tashladi Sime.

– Agar hammamiz yomon bo‘lsak, shomonlarga ish qolmasdi. Uff! Hammangiz ham yosh bolalarga o‘xshab bo‘limg‘ur narsalardan qo‘rqib yurasizlar.

Kechqurun dengiz suvi ko'tarilgan payt Klok-No-Ton tushgan qayiq sohilga kelib urilganda ham Sime odobsizlik qilib kulardi, hatto shomon qirg'oqqa tusha turib qoqilib ketganini ko'rib, uni askiya qilib ham qo'ydi. Klok-No-Ton qovog'ini solib, unga bir qarab qo'ydi-yu, hech narsa demasdan g'oz yurish qilib, kutib turgan odamlar oldidan o'tib ketdi va to'g'ri Skunduning uyiga qarab yurdi.

Bu uchrashuv paytida nima gaplar bo'lgani qabila odamlariga noma'lum qoldi, chunki ikki buyuk sehrgar o'zaro suhbatlashar ekanlar, odamlar odob saqlab uzoqroqda turiшar, hatto shivirlab gapirishar edilar.

– Salom, Skundu! – deb do'rilladi Klok-No-Ton, u Skundu qanday qarshilashini aniq bilmaganidan biroz xavotirda edi.

Klok-No-Ton devqomat odam bo'lib, kichkina Skunduga qaraganda uni minora desa bo'lardi. Skundu alik olganda, uzoqdan qora chigirtka chirillagandek bo'ldi.

– Salom, Klok-No-Ton, – dedi u. – Qadamlaringga hasanot.

– Haligi to'g'rimi... – dedi-yu, Klok-No-Ton tutilib qoldi.

– Ha, ha, – deb chidamsizlik bilan uning so'zini bo'ldi kichkina shomon. – To'g'ri, boshimga og'ir kunlar keldi, aks holda mening vazifamni bajarishga kelgan odamga tashakkur aytib turgan bo'lmasdim.

– Bu xabar meni juda xafa qildi, do'stim Skundu...

– Men esa xursandman.

– Topganimning yarmisi senga.

– Yo'g'-e, hurmatli Klok-No-Ton, – dedi Skundu qo'lini ko'tarib norozilik bildirar ekan. – Aksincha, shu bugundan boshlab quling va qarzdoringman, umrimning oxirigacha senga xizmat qilishga tayyorman.

– Men ham...

– Hozir menga xizmat qilishga tayyor turganing kabi.

– Bunga shubha qilmasang ham bo‘ladi. Menga qara, Guniya degan xotin adyolini o‘g‘irlatibdi, buni qiyin ish deb o‘ylaysanmi?

Yangi kelgan shomon kalavaning uchini topishga shoshib, xato qildi. Skundu miyig‘ida kulib qo‘ydi, u odamlar ning ko‘nglidagi gaplarni bilib turishga o‘rganib qolgandi, shuning uchun hech kimni nazar-pisand qilmasdi.

– Hamma vaqt keskin choralar ko‘rib kelgansan, – dedi u. – O‘g‘rini birpasda topib olishingga sira shubham yo‘q.

– Ha, bir zumda topaman, faqat bir nazar tashlasam bo‘lgani, – dedi-yu, Klok-No-Ton yana tutilib qoldi. – Biror begona odam yo‘qmidi bu yerda? – deb so‘radi u.

Skundu bosh chayqadi.

– Bunga qara! Ajoyib narsa-a, nima deding? – deb Skundu bug‘u va dengiz mushugi terisidan tikilgan choyshabni ko‘rsatdi. U mehmonning choyshabga qiziqish bilan ko‘z qirini tashlab qo‘yayotganini sezib qolgandi.

– Juda arzon tushirib olganman, – deb qo‘srimcha qildi u.

Klok-No-Ton diqqat bilan qulqoq solar ekan, tushundim degandek bosh irg‘itdi.

– Men buni La-Lax degan odamdan oldim. Bu odam juda epchil yigit. Shunda miyamga lop etib bir fikr keldi...

– Qani, qani, – deb yubordi sabrsizlik bilan Klok-No-Ton.

– Miyamga bir fikr keldi, – deb gapini tugatdi u birpas jum turib. – Keskin choralar ko‘rishga ustasan, qadamlaringa hasanot, Klok-No-Ton, – deb qo‘shib qo‘ydi.

Klok-No-Toning yuzi yorishib ketdi.

– Buyuk odamsan, Skundu, shomonlar shomonisan. Seni sira esimdan chiqarmayman. Endi boray. La-Lax epchil odam degin?

Skundu yana miyig‘ida kulib qo‘ydi, mehmonni chiqarib yuborib eshikni yopdi, eshikka ikki qavat tamba solib qo‘ydi.

Klok-No-Ton Skunduning uyidan chiqqanda, Sime qir-

g‘oqda qayig‘ini tuzatib o‘tirgan edi. U ishini to‘xtatib, hammaning ko‘z oldida miltig‘ini o‘qlab yoniga qo‘ydi.

Shomon buni ko‘z ostiga olib qo‘ydi-da:

– Qabilaning hamma odamlari mana shu yerga yig‘ilsin, – deb qichqirdi. – Shunday deb, jin-ajinalarni topa oladigan va ularni quva oladigan men, Klok-No-Ton, buyuraman.

Klok-No-Ton boshda odamlarni Guniyaning uyiga to‘plamoqchi edi, lekin u Simening buyruqqa itoat qilishiga ishonmasdi; janjal ko‘tarishni esa istamasdi. Simega o‘xshagan odamlar bilan, yaxshisi, adi-badi aytishib o‘tirmaslik kerak, ayniqsa, shomon bundan ehtiyyot bo‘lishi zarur, deb o‘ylaydi u.

– Guniya degan xotinni chaqiringlar, – deb buyurdi Klok-No-Ton atrofga yirtqichlarcha nazar tashlab. Uning qarashlaridan hammaning badani jimirlab ketdi.

Guniya hech kimga qaramay, boshini quyi solib o‘rtaga chiqdi.

– Adyoling qani?

– Endigina oftobga yoyib qo‘ygan edim, bir zumda yo‘q bo‘lib qoldi, – deb ko‘zyoshi qildi Guniya.

– Ha-ha!

– Hammasiga Di-Ya sababchi.

– Ha-ha!

– O‘zini ham rosa adabini berdim, yana beraman hali, chunki boshimizga falokat keltirdi, biz esa kambag‘al odamlarmiz.

– Adyoldan gapir! – deb bo‘g‘iq tovush bilan o‘kirdi Klok-No-Ton, u Guniyaning jodugarlik xizmat haqini kamaytirishga urinayotganini anglab qolgandi. – Adyoldan gapir, hay xotin. Boyliging hammaga ma‘lum.

– Adyolni endigina oftobga yoygan edim, – deb hiqillab takrorladi Guniya. – O‘zimiz kambag‘al odamlarmiz, hech vaqomiz yo‘q.

Birdan Klok-No-Tonning muskullari tarang tortildi, yuzlari burishib-tirishib ketdi, Guniya esa orqaga tisarildi. Lekin dam o'tmay Klok-No-Ton shunday shaht bilan oldinga sakradiki, Guniya gandiraklab ketib, uning oyog'i ostiga yiqildi. Shomonning ko'zlarini olayib, jag'i pastga osilib qoldi. U qo'llarini cho'zib, jon-jahdi bilan havoni mushtlayverdi. Uning butun gavdasi xuddi qattiq og'riyotgandek buralib-buralib ketardi. Bu harakatlari tutqanog'i tutib qolgan odamning holatini eslatardi. Lablarida oppoq ko'pik paydo bo'ldi, a'zoyi badani qaltiray boshladı.

Xotinlar jazavasi tutib, u yoqdan bu yoqqa chayqalib turdilar-da, mahzun kuy boshlab yubordilar, erkaklar ham birin-ketin ularga qo'shildilar. Bunga faqat Sime aralashmadı. U ag'darilgan qayiqqa minib olib, atrofida bo'layotgan ishlarga istehzo bilan qarab o'tirdi, lekin uning tomirlarida qoni bo'lgan bobolarining ovozi borgan sari kuchayib, uni ham shunga undardi. Sime esa qo'rquvni yengish uchun o'zi bilgan hamma boloxonador so'kishlarni og'ziga olib to'ng'illay boshladı. Klok-No-Tonga qarab, odam qo'rqib ketardi. U o'zi o'ralib olgan adyolni uloqtirib urdi, butun kiyimlarini yechib tashlab, qip-yalang'och bo'lib oldi, belida burgut changalini tizib yasalgan lungi qoldi, xolos. U, u yoqdan bu yoqqa chopar, davra o'rtasida gir aylanar, baqirib-chaqirardi, uzun, qop-qora sochlari yoyilib ketgan, xuddi zulmat qorong'ilikning bir parchasiga o'xshardi. Lekin jazavasi tutgan Klok-No-Tonning harakatlari qandaydir qat'iy bir ritmga bo'ysungan edi. Tevarak-atrofdagilarning hammasi mana shu ritmga ergashib, shomonning ovoziga jo'r bo'lganlaridan keyin u birdan to'xtadi-da, burgutning tirnog'iga o'xshagan uzun ko'rsatkich barmog'ini ochib qo'lini oldinga cho'zgan holda yerga o'tirib oldi-yu, qotdi. Olomon orasidan go'yo jon uzilish paytidagi singari ingroq ovoz ko'tarildi – odamlar jon hovuchlab, titrab-qaqshab, davrani sekin-asta aylanayotgan dahshatli ko'rsatkich bar-

moqdan ko‘zlarini olmay turdilar. Chunki bu barmoq bilan birga o‘lim aylanar, barmoq ko‘rsatmay o‘tib ketgan odam hayot qolardi. O‘limdan qutulganlar yengil tortib, endi nima bo‘lishini diqqat bilan kutib turardilar.

Pirovardida shomon qattiq qichqirib yubordi, uning barmog‘i La-Laxga qadalib to‘xtadi. La-Laxni titroq bosib ketdi. U o‘ldim endi, deb o‘yladi, mol-mulki talon-toroj qilingani, xotini esa ukasiga tekkani ko‘ziga ko‘rinib ketdi. U gapishtiga urinib ko‘rdi, o‘zini oqlamoqchi bo‘ldi, lekin tili tanglayiga yopishib, tomog‘i qaqrab qoldi. Klok-No-Ton ishini qilib bo‘lgach, xuddi behushdek bo‘lib qoldi. Lekin ko‘zi yumuq holda quloq solib turardi: mana, hozir tanish ovoz yuz va ming martalab eshitgan buyuk qasos qichqirig‘i ko‘tariladi, deb kutardi. U sehr qilib bo‘lgandan keyin, odatda, odamlar xuddi och bo‘rilardek, titrab turgan gunohkorga tashlanar edilar. Ammo hozir hamma jim turardi; kimdir piqillab kulib yubordi, davra ning boshqa tomonidan kimdir unga ergashdi, keyin kulgi borgan sari kuchayib bordi-da, qahqaha ovozi hamma yoqni titratib yubordi.

– Nima gap o‘zi? – deb qichqirdi shomon.

Bunga javoban odamlar:

– Xa-xa-xa! – deb xaxolab kulishardi. – Sehrgarliging o‘tmadi, Klok-No-Ton.

– Mana, sakkiz oy bo‘ldiki, Sevash qabilasidagi ovchilar bilan tulen oviga ketgan edim, – dedi duduqlana-duduqlana La-Lax, – bugungina qaytib kelib, adyol o‘g‘irlanganini eshitib turibman.

– Bu to‘g‘ri gap, – deb hamma bir og‘izdan La-Laxning so‘zini tasdiqladi. – Guniyaning adyol yo‘qolganda La-Lax qishloqda yo‘q edi.

– Senga hech narsa to‘lamayman, sehrgarliging to‘g‘ri chiqmadi, – dedi Guniya. U allaqachon o‘midan turgan va ishning sharmandalik bilan tugaganidan joni chiqib ketgandi.

Klok-No-Tonning ko‘z oldiga miyig‘ida kulib turgan Skundu keldi, qulog‘iga xuddi qora chigirtkaning chiyilashiga o‘xshagan ingichka ovozi eshitilib ketdi, u: „Men bu adyolni La-Lax degan odamdan oldim, miyamga bir fikr keldi... Keskin choralar ko‘rishga ustasan. Qadamlaringga, hasanot“, degan edi.

Klok-No-Ton Guniyani itarib tashladi-da, oldinga otildi, odamlar beixtiyor unga yo‘l berdilar. O‘z qayig‘ida o‘tirgan Sime yomon so‘zlarni aytib, uni askiya qildi, xotinlar uning yuziga qarab qahqahlab kular dilar, odamlar uni har tomon dan masxara qilishardi. Lekin Klok-No-Ton hech narsaga e’tibor bermay, kuchining boricha Skunduning uyiga chopib boraverdi. U Skunduning eshigini itardi, qo‘llari bilan urib qoqdi, qichqirib la’natlar o‘qidi. Lekin ichkaridan javob bo‘lmadi. Jimlik tushgandagina uydan Skunduning duo-sehr o‘qiyotgan ovozi eshitildi. Klok-No-Ton jinnilarga o‘xhab baqirib-chaqirdi, bu ham bo‘limgach, katta bir toshni olib, eshikni urib sindirmoqchi bo‘ldi, biroq odamlar orasida norozilik ovozlar ko‘tarildi. Shunda Klok-No-Ton o‘zining shuhrati va kuchidan mahrum bo‘lgani holda boshqa qabila odamlari orasida turganini esladi. U bir kishining yerga engashib tosh olayotganini ko‘rib qoldi, uning orqasidan yana bir kishi yerdan tosh oldi, shomonni qo‘rquv bosdi.

– Skunduga tegma, u senga o‘xshagan aldoqchi emas, u haqiqiy sehrgar, – deb qichqirdi bir xotin.

– Yaxshisi, jo‘nab qol bu yerdan, – deb do‘q aralash maslahat berdi bir kishi.

Klok-No-Ton g‘oyat o‘sal bo‘lib va g‘azabdan burilib, qirg‘oqqa yo‘l oldi. Orqamga birortasi tosh bilan tushirib qolmasin yana, deb qo‘rqib borar edi. Biroq orqasidan birorta ham tosh otilmadi.

Bolalar qilpanglashib, uning oyoqlari ostida o‘ralishib borardilar, orqadan xaxolab kulgan odamlarning ovozi eshitilardi, xolos. Shunday bo‘lsa ham, u tushgan qayiq ochiq

dengizga chiqqandan keyingina erkin nafas oldi va tik tur-gan holda qishloq aholisiga la'natlar yog'dirdi, uni shar-manda qilishda bosh aybdor bo'lgan Skunduni, ayniqsa, ko'proq qarg'adi.

Qirg'oqda esa odamlar baqirib-chaqirib, Skunduni talab qilmoqda edilar. Qishloqning butun aholisi Skundu eshi-gi oldida to'planib olib, qiyin-qistoq qilar va ojizlik bilan unga yalinar edilar. Pirovardida, kichkina shomon eshik oldiga chiqib, qo'lini yuqori ko'tardi:

– Siz mening bolalarimsiz, shuning uchun ham gu-nohlaringizni kechirdim, – dedi u. – Lekin bu eng oxirgisi. Maqsadingizga yetasiz, chunki men sirni topdim. Bugun kechasi, oy osmon gardishi orqasiga botib, ulug' murdalar-ni ko'zdan kechirayotganda, hamma Guniyaning uyi oldiga to'plansin. O'sha yerda jinoyatchining kim ekani hammaga ma'lum bo'ladi. Jinoyatchi qilmishiga ko'ra jazosini tortadi. Gapim shu.

– Uning jazosi o'lim, – deb qichqirdi Boun. – Chunki u bizning boshimizga g'am-g'ussa solishdan tashqari, shar-manda ham qildi.

– Shunday bo'lsin! – deb javob berdi Skundu va eshi-gini taq etib yopib oldi.

– Endi hamma narsa ravshan bo'ladi, tinchlik va tartib o'rnatiladi, – deb tantanali ravishda e'lon qildi La-Lax.

– Hammasi shu jikkak Skunduning irodasi bilan bo'ladi-mi? – deb istehzo bilan so'radi Sime.

– Buyuk sehrgar Skunduning irodasi bilan, – deb uning gapini to'g'riladi La-Lax.

– Tlinketlar – ahmoqlar qabilasi! – dedi Sime soniga shapillatib urib. – Kap-katta xotinlar, zabardast erkaklar ah-moq bo'lib bo'limg'ur ertaklarga ishonib yurishganiga hay-ron qoladi kishi.

– Men ko'pni ko'rgan odamman, – deb e'tiroz bildirdi La-Lax. – Men dengizlarda sayohat qildim, har xil alomat-

lar va ko‘p mo‘jizalarni ko‘rdim, bularning hammasi haq gap. Men La-Lax...

– Aldoqchisan...

– Ba’zi kishilar menga shunday laqab taqqanlar, lekin menga Sayyoh deb ham to‘g‘ri nom qo‘yanlar.

– Men uncha ko‘p narsa ko‘rgan emasman-u... – deb boshladi Sime.

– Demak, tilingni tiyib yur, – deb uning so‘zini kesdi Boun, keyin ular bir-birlaridan norozi holda har tomonga tarqalib ketishdi.

Quyoshning so‘nggi kumush nurlari osmon gardishi orqasida g‘oyib bo‘lgach, Skundu Guniyaning qarshisida to‘plangan odamlar oldiga keldi. U tez va dadil qadam bosib kelardi. Jinchiroqning xira yorug‘ida ko‘rsalarki, uning qo‘li bo‘sh, niqobsiz, shaldir-shuldur asboblar va umuman sehrgarlik ishida zarur bo‘lgan narsalar yo‘q. Faqat qo‘ltig‘iga mudragan katta bir qarg‘ani tiqib olibdi.

– Gulxan qilish uchun o‘tin to‘plab qo‘ydilaringmi? – deb so‘radi Skundu. – O‘g‘ri topilganda hamma uni ko‘rishi kerak.

– Hammasi tayyor, – deb javob berdi Boun. – O‘tin yetarli.

– Bo‘lmasa quloq solinglar. Gapim qisqa bo‘ladi.

Men bu yerga Jelksni olib keldim, bu qarg‘a hamma sirlarni biliadi, har qanday ishdan xabardor. Men mana shu qora qushni Guniyaning uyidagi eng qorong‘i burchakka o‘tqazib, ustiga katta qora tog‘ora to‘nkarib qo‘yaman. Biz jinchiroqni o‘chirib, qorong‘ida qolishimiz kerak. Bu juda oson ish. Har biringiz navbat bilan uyga kirib, qo‘lingizni tog‘oraga tekkizasiz, qo‘lingizni bir marta chuqur nafas ol-guncha tog‘oradan olmaysiz, keyin chiqib ketasiz. Jelks jinoyatchi o‘ziga shu qadar yaqin ekanligini sezib, qag‘illab yuborishi kerak. Yoki boshqa bir yo‘l bilan o‘zining avliyoligini ko‘rsatar. Tayyormisiz?

— Tayyormiz! — deb javob berdi hamma bir ovozdan.

— Unday bo‘lsa, boshladik. To hamma ayol-erkaklar uygaga kirib chiqquncha bitta-bittadan otingizni aytib chaqiramman.

Birinchi bo‘lib uygaga kirgan La-Lax bo‘ldi. Hamma hayajon bilan qulqoq solar, jimglikda uning oyog‘i ostidagi omonat yotqizilgan taxtalarning g‘ichirlashi eshitilib turardi. Jelks qag‘illamadi, biror belgi ham bermadi. Keyin navbat Bounga keldi. Chunki o‘z adyolini o‘zi yashirib, qo‘shnilarini sharmanda qilishga qasd etgan bo‘lishi ham ajab emasdi. Uning orqasidan navbat Guniyaga keldi, keyin boshqa xotinlar, bolalar kirdilar, lekin qarg‘a hech ovoz bermadi.

— Sime! — deb chaqirdi Skundu, — Sime! — deb yana takrorladi u. Ammo Sime qimirlamadi.

— Ha, qorong‘idan qo‘rqtyapsanmi? — deb chaqib oldi uni aybsizligi isbot qilinganidan g‘ururlanib La-Lax.

Sime piq etib kulib qo‘ydi.

— Mana shu maynavozchiliklarga qarab, kulgim qistayapti. Lekin men mo‘jizaga ishonganidan emas, qo‘rqmasligimni isbot qilish uchun kiraman.

U dadil qadam bosib uygaga kirdi, odatdagidek jilmayib qaytib chiqdi.

— Qarab tur hali, lop etib o‘lib qolganingni bilmay ham qolasan, — deb shivirladi uning qulog‘iga achchiq ustida La-Lax.

— Ehtimol, — deb yengiltaklik bilan javob berdi xudosiz. — Ichingizda shomonlar va har xil bema‘ni gaplarga ishonadigan odamlar ko‘p, lekin o‘z uyida o‘z ajali bilan o‘lganlar ko‘pmi?

Qishloq aholisining yarmi omon-eson sinovdan o‘tib bo‘ldi. Ko‘pchilik o‘rtasida hayajon borgan sari kuchayib bordi, bu hayajonni bosib turish zaruriyati uning yana ham kuchayishiga turtki berdi. Uyga kirmagan odam juda oz

qoldi, shu vaqt to‘ng‘ich bolasiga ikkiqat bir yosh xotin tob keltirolmay, shaytonlab qoldi.

Oxirida sinovdan o‘tmagan bitta odam qoldi. Qarg‘a hamon ovoz bermasdi. Bu Di-Ya edi. Demak, jinoyatchi Di-Ya bo‘lishi kerak. Guniya qo‘llarini osmonga ko‘tarib, madad so‘ray boshladi, qolganlar jin urgan boladan o‘zlarini olib qochdilar. Di-Yaning kapalagi uchib, oyoqlari qaltiradi. U uyga kirayotib, qoqilib ketdi-da, yiqilishiga oz qoldi. Skundu uni ichkariga itarib yuborib eshikni yopdi. Oradan ancha vaqt o‘tdi, bolaning piqillashidan boshqa hech narsa eshitilmasdi. Keyin qadamning uzoqlashayotgan tovushi eshitildi, keyin ichkari jimjit bo‘lib qoldi, keyin yaqinlashayotgan qadam tovushi eshitildi; eshik ochildi-da, bola tashqari chiqdi. Hech narsa bo‘lmadi. Sinovdan o‘tkazadigan boshqa odam ham qolmadidi.

– Gulxanni yoqinglar! – deb buyurdi Skundu.

Alanga yuqori o‘rladi va odamlarning yuziga yorug‘ tushdi. Qo‘rquv, shu bilan birga esankirash belgisi hali odamlarning yuzidan yo‘qolmagan edi.

– Yana hech narsa chiqmadi! – dedi Guniya, bo‘g‘iq tovush bilan.

– Ha, – deb uning gapiga qo‘sildi Boun, – Skundu qarib qoldi, biz endi boshqa shomon topishimiz kerak.

– Hamma sirni biladigan Jelksning avliyoligi qani? – dedi istehzo bilan Sime La-Laxning qulog‘iga.

Esankirab qolgan La-Lax peshonasini siypaladi-yu, javob bermadi.

Sime ko‘kragini kerib, kichkina shomonning oldiga keldi.

– Ha-ha-ha! Bu ishlar befoyda deb aytmabmidim!

– Balki, ehtimol, – deb ojizona javob berdi Skundu. – Mo‘jizalardan xabarsiz bo‘lgan kishilar shunday deb o‘ylashi mumkin.

– Masalan sen, – deb qo‘sib qo‘ydi Sime, dag‘al qilib.

— Men ham xabarsiz bo‘lishim mumkin, — dedi u, Skundu juda sekin gapirardi. Uning qovoqlari asta, juda astalik bilan pastga tusha bordi-da, ko‘zlarini qopladi. — Lekin yana bitta sinov qoldi. Hamma erkaklar, xotinlar, bolalar qo‘llarini yuqori ko‘tarsinlar! Tez, hamma birdan ko‘tarsin!

Bu buyruq shu qadar kutilmagan, shu qadar amirona ohangda berildiki, hamma so‘z qaytarmay bo‘ysundi. Hammaning qo‘li yuqori ko‘tarildi.

— Endi har bir kishi boshqalarning qo‘liga qarasin, — deb buyurdi Skundu. — Hammaning qo‘liga qarasinki...

Lekin ko‘tarilgan qahqaha uning so‘zlarini kesib qo‘ydi, bu qahqahada do‘q ham bor edi. Hamma Simega qaradi. Hammaning qo‘li qorakuya, faqat Simening qo‘li Guniyaning tog‘orasiga tegib qora bo‘limgan edi.

Bir tosh havodan vizillab kelib, Simening yuziga tegdi.

— Bo‘limgan gap! — deb baqirdi u. — Noto‘g‘ri! Men Guniyaning adyoliga tekkanim yo‘q!

Ikkinci tosh kelib, peshonasini yordi, uchinchisi uning boshi ustidan vizillab o‘tdi. Atrofni buyuk qasos qichqiriqlari bosib ketdi, odamlar unga jazo berish uchun yerni paypaslab, tosh qidirar edilar. Sime gandiraklab ketdi, tiz cho‘kib qoldi.

— Hazillashgandim! — deb qichqirdi u. — Hazil qilish uchungina olgan edim.

Skunduning:

— Adyolni qayoqqa qo‘yding? — deb chiyillagani xuddi pichoq singari shovqinni kesib o‘tdi.

— Adyol uyimda, bog‘lab qo‘ylgan terilar orasida, shingga osib qo‘yganman, — deb javob berdi Sime. — Lekin men faqat hazillashgan edim, men...

Skundu boshini bir tomonga qiyshaytirdi, toshbo‘rondan hamma yoq qorong‘i bo‘lib ketdi. Simening xotini boshini tizzasi orasiga yashirib yig‘lardi, lekin uning o‘g‘ilchasi chiyillab kulib, boshqalar bilan birga otasiga tosh otardi.

Guniya qimmatbaho adyolni yelkasiga tashlagan holda taltayib kelardi. Skundu uni to‘xtatdi.

– Biz kambag‘al odamlarmiz, bizda hech narsa yo‘q, – dedi Guniya hiqillab. – Bizni xafa qilma, Skundu.

Odamlar qimirlab turgan tosh uyumidan uzoqlashdilar, hamma jikkak shomonga nazar tashladi.

– Men o‘z bolalarimni xafa qilganmanmi hech, aziz Guniya? – deb javob berdi u Guniyaga, adyolga qo‘l cho‘zib. – Men bunday odamlardan emasman. Buning dalili uchun sendan mana shu adyoldan boshqa hech narsa olmayman.

– Dono ekanmanmi, bolalarim? – deb so‘radi Skundu odamlarga qarab.

– Haqiqatan ham donosan, Skundu! – deb hamma bir og‘izdan javob berdi. Shundan keyin yelkasiga adyolni tashlab olgan, qo‘ltig‘iga mudroq Jelksni qisgan Skundu qorong‘ilik qo‘yniga kirib, ko‘zdan yo‘qoldi.

MUNDARIJA

Nashriyotdan	3
Bo‘ro o‘g‘li	
<i>Gulhayo Mahammadaliyeva tarjimasi</i>	5
Isyonchi	
<i>F. Abdullayev tarjimasi</i>	27
Shimol odisseyasi	
<i>F. Abdullayev tarjimasi</i>	52
Ayol kishining mardligi	
<i>F. Abdullayev tarjimasi</i>	96
Hayotga muhabbat	
<i>F. Abdullayev tarjimasi</i>	115
Buyuk sehrgar	
<i>F. Abdullayev tarjimasi</i>	140

Adabiy-badiiy nashr

JEK LONDON

BO‘RI O‘G‘LI

Hikoyalar

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2020

Tarjimonlar:

**G. MAHAMMADALIYEVA,
F. ABDULLAYEV**

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo‘rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Maftuna Vahobova</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
22.04.2020 bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 1/32.
Ofset qog'ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 5000. Sharhnomalar № 85–20.
Buyurtma raqami 379-20.

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ
Kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.
Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz

London, Jek.

L75 **Bo'ri o'g'li. [Matn]: hikoyalar / J. London; tarjimonlar: G. Maham-madaliyeva, F. Abdullayev. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 160 b.**

ISBN 978-9943-6343-0-5

UO'K: 821.111(73)-32

KBK 84 (AQSH)